

METODIST

ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNAL

2024-YIL 2-SON



METODIST

ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNAL

2024
2-son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
ro'yxatga olingan. Guvohnoma №229146,





MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR MINBARI

<i>Husanboyeva Q.</i> Ta'lim texnologiyalari. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining xususiyatlari.....	3
---	---

BOSHLANG'ICH TA'LIM – POYDEVOR

<i>Hazratqulov M.</i> "jaholat to'g'risida rivoyat" asosida insho tashkil etishda "aqliy xarita" metodidan foydalanish.....	15
---	----

<i>Shodiyeva I.</i> Boshlang'ich sinf matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	20
--	----

<i>Sayfutdinova J.</i> Boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari	27
---	----

ShE'R KO'NGIL OZUQASI

<i>Boyqo'ziyev A.</i> She'rlar.....	33
-------------------------------------	----

ONA TILI – MILLAT RUHI

<i>Hamroyev G'.</i> Ona tili ta'limida grammatikaga doir o'quv materiallarini o'qitish: muammo va yechimlar.....	39
--	----

MUMTOZ ADABIYOT – MA'NAVIYAT OMILI

<i>Qodirov V.</i> Mumtoz she'riyatda ma'no qatlamlilik.....	48
---	----

<i>Tuxliyeva D.</i> G'azal tahlilida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari.....	58
---	----

<i>Mirzayeva M., Ishonxonova I.</i> Mumtoz adabiyotni o'qitishda savol va topshiriqlarning ahamiyati (Alisher Navoiy asarlari misolida).....	66
--	----

ADABIY TA'LIM – MA'NAVIYAT MANBAI

<i>Hazratqulov M., Qilichboyeva X.</i> Umumiy o'rta ta'lim maktablarida insho yozdirish va ularni tekshirishga qo'yiladigan talablar.....	73
---	----

<i>Yusufjonova N.</i> O'zlashtirish darajasini baholash – ta'limning muhim komponenti.....	82
--	----

<i>Nabiyeva K.</i> Adabiyot darslarida o'quvchilarni qiziqtirish usullari.....	88
--	----

MUHOKAMA UCHUN MAVZU

<i>Kenja Q.</i> Navoiy "o'zbek tilining asoschisi"mi?.....	104
--	-----

BIR ASAR TAHLILI

<i>Rahimova G., Raymonova M., Umaraliyeva F., Ubaydullayeva O.</i> "Men seni topgandim" she'rining didaktik tahlili.....	117
--	-----

JISMONIY TARBIYA VA SPORT SALOMATLIK GAROVI

<i>Yahyoyev D.</i> Jismoniy madaniyatning tushuncha va atamalari.....	128
---	-----





BOSH MUHARRIR MINBARI

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI. HAMKORLIKDA O'QITISH TEXNOLOGIYASINING XUSUSIYATLARI



Qunduzxon HUSANBOYEVA

SamDU professori

el-manzil: qunduz56@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada umuman texnologiya, xususan ta'lim texnologiyalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari borasida so'z yuritiladi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi va uning milliy ta'limdagi o'rni muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, yangi pedagogik texnologiya, metod, usul, ta'lim berish san'ati, hamkorlik, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlari, o'quvchilararo hamkorlik.*

"Texnologiya" tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Dunyo tarbiyashunosligi amaliyotida, xususan, milliy ta'lim-tarbiya tizimida ham o'qitishning turfa texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Nafaqat adabiy, balki barcha o'quv fanlari ta'limida ham pedagogik texnologiyalardan to'g'ri foydalanishni bilish bugungi o'qituvchiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir.

Avvalo, "texnologiya" atamasining mohiyatiga kirib olish zarur. "Dehqonchasiga" aytadigan bo'lsak, bu so'z – mahorat, san'at, ta'limot, o'qish-o'rganishning yig'indisini anglatadi. Ya'ni kishining o'zi faoliyat olib borayotgan sohani san'atkorona bilishi, sohada kashfiyotlar qilishi va ularning amaliyotga tatbiqi borasida o'z mahoratini namoyon etishi nazarda tutiladi. "Texnologiya" termin



sifatida dastlab sanoat yoki qishloq xo‘jaligida tayyor mahsulot ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanilgan.

Texnologiya tushuncha sifatida butun boshli bir jarayonni qamrab oladi. Masalan, paxta yetishtirish texnologiyasi, mashina ishlab chiqarish texnologiyasi, pazandachilik texnologiyasi, bugungi til bilan aytadigan bo‘lsak AyTi (IT) texnologiyasi va hk. Bu jarayonda katta bilim bilan birga mehnatni oqilona tashkil etish, har bir ishni san‘atkorona mahorat bilan bajarish va oqibatda go‘zal, o‘zgalar havas qilsa arziydigan natijaga erishish yotadi.

Bu fikrlarni qoidalashtiradigan bo‘lsak, texnologiya biror jarayon bilan bog‘liq nazariy bilimlar, metod va usullar hamda amaliy faoliyat yig‘indisidir. Texnologik jarayon metod va usullarning boshqa-boshqaligi bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan, pedagogik jarayonda ta‘limning hamkorlik texnologiyasida boshqa, erkin tarbiya texnologiyasida o‘zgacha, modulli ta‘lim texnologiyasida boshqa va hk.larda bir metod ustuvorlik qiladi. Ba‘zan bir metoddan bir nechta texnologiyada ham foydalanish mumkin, albatta. Lekin bunda usullar bir-biridan farqlanadi.

Buni bizga ancha yaqin bo‘lgan qishloq xo‘jaligida, ya‘ni paxta yetishtirishda “Andijon texnologiyasi” degan atamaning paydo bo‘lishi misolida tahlilga tortsak, tushunish osonroq kechsa kerak. Ma‘lumki, 90-yillarda paxta yetishtirishda Andijon texnologiyasi urf bo‘ldi. Xo‘sh, buning asosiy xususiyati nimadan iborat edi? Paxta yetishtirishda andijonliklar texnologiyasining asosiy jihatini paxtani plyonka ostiga ekish edi. Andijonlik paxtakorlar o‘z vaqtida bu borada yaxshigina samaraga erishdilar, paxta har doimgidan 15–20 kun oldin pishdi va hosilni kuzgi yog‘in-sochinga qoldirmay terib oldilar hamda navi yuqori bo‘lgan paxta topshirdilar davlatga.

Bir-ikki yil orasida butun mamlakat bo‘ylab dehqonlar borib ulardan paxta yetishtirishning yangi texnologiyasini o‘rganib kelishdi va o‘z xo‘jaliklarida paxtani plyonka ostiga ekdilar. Kimlardir eplab ketdi, lekin kimlardir bir kun ertalab kelib qarasa, gektar-gektar paxta maydonlarining ekini qurib, issiqda kuyib ketibdi. Nega?



Gap shundaki, paxta yetishtirishda chigitni plenka ostiga ekish bu texnologiyadagi bitta va asosiy metod. Uni qo'llab qo'ya qolish bilan ish bitmaydi. Bu jarayonning o'zigagina xos bo'lgan yana bir qancha mayda metod va usullari bor edi. Masalan: kunduzi isib ketganda ko'chatlarning ustini ochish; kechasi salqin tushganda yopish; ko'chatlarning boshini o'z vaqtida ochib qo'yish (ko'chatlar klyonkaga tegib qolsa issiqning taftidan kuyib qolishi mumkin); klyonkani qachon yerdan yig'ishtirib olish (issiqlik haddan oshib ketsa g'o'zaning tomiri ham kuyib ketishi mumkin) va hk. shu kabi usullarga to'liq amal qilmagan dehqonlar chuv tushib qoldilar hamda apel-may oylarida paxtani qaytadan ekib o'zlari o'rganib qolgan texnologiya asosida ishladilar.

Yoki o'zbek sifatida osh qilish texnologiyasini olaylik. Osh o'zbekning keng tarqalgan taomi va u har bir xonadonda, har kimning o'z xususiy texnologiyasi asosida pishiriladi. Lekin natija bitta – mazali o'zbekcha osh pishadi. Endi bu texnologiya xususiyatlariga, ya'ni pishirish jarayoniga diqqatni qarataylik. Bu borada ham har kim har xil yo'l tutadi: kimdir yoqqa avval piyoz tashlaydi, kimdir go'sht; kimdir sabzini uzoq, qizarguncha qovuradi, kimdir dimlab pishiradi; kimdir guruchni ivitadi, kimdir yo'q va shu tariqa har kimning o'ziga xos texnologiyadan foydalangan holda pishirgan oshi o'ziga xos darajada mazali chiqadi. Kimningdir oilasida parxez osh pishirishga ehtiyoj paydo bo'lib qolsa, qo'shnisining oshni dimlab pishirish texnologiyasini o'rganadi va bu jarayonda o'zi o'rganib qolgan ayrim metodlardan voz kechib qo'shnisi qo'llagan metodlarga qat'iy amal qilishiga to'g'ri keladi. Demak, texnologiya biror bir ishni bajarishning yaxlit bir tizimi, butun boshli jarayoni ekan. Bu jarayonning o'ziga xos ishlash metodlari va usullari mavjud.

Endi bu atamani o'qitish jarayoniga nisbatan qo'llaydigan bo'lsak, butun boshli ta'lim tizimini tashkil etish yoki darsni olib borishda o'qish va o'qitishning o'zaro uzviyligini ta'minlash, aloqadorlik bosqichlarini ajratish, ta'lim-tarbiya jarayonida belgilangan maqsadga erishish uchun bajariladigan ishlarni muvofiqlashtirish, ularning ketma-ketligi hamda bosqichma-



bosqichliligini, o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining xususiyatlarini ta'minlash singari rejalashtirilgan barcha ishlarning talab darajasida bajarilishi anglashiladi. Ya'ni ta'lim texnologiyasi ta'lim-tarbiya jarayonini san'atkorona, mahorat bilan tashkil etish ma'nosini ifodalaydi. «Yangi pedagogik texnologiya» degan atama esa o'qituvchilar o'rganib qolgan, yuz yillardan beri amalda bo'lgan, bugun “an'anaviy ta'lim” nomini olgan o'zimizning besh bosqichli dars tizimimiz emas, o'qitishni dunyo miqyosida qo'llanilayotgan andozalar darajasiga ko'tarish va bu jarayonda qo'llanilayotgan turfa texnologiyalar yig'indisi nazarda tutiladi.

Hamkorlik texnologiyasining o'ziga xos jihatlari. Ta'lim amaliyotida o'qitishning: erkin tarbiya texnologiyasi, modulli ta'lim texnologiyasi, didaktik o'yinlar texnologiyasi, multimedia texnologiyasi va hk. turfa texnologiyalari mavjud bo'lib shulardan biri hamkorlikka asoslangan ta'lim texnologiyasidir.

O'qituvchi bilan ta'lim oluvchi munosabatlari muammosi antik ta'lim tizimiga borib taqaladi uni tashkil etish muammosi barcha davrlarda ham o'ta dolzarb masalalardan bo'lib, mazkur hamkorlikning nazariy asoslari ilmda “pedagogik sinergetika” atamasi bilan ifodalanadi. Bu ta'lim beruvchi (o'qituvchi) uchun ham, ta'lim oluvchi (o'quvchi) uchun ham o'z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etishga oid nazariy yondashuvlardan biri bo'lib, o'qituvchi-o'quvchi hamkorligini to'g'ri tashkil etish bilan bog'liq yangi dunyoqarashdir.

“Sinergetika” so'zi hamkorlik, hamjihatlik ma'nolarini ifodalab, barcha tizimlar (ta'lim, meditsina, sanoat, qishloq xo'jaligi va hk.)ning o'z-o'zini mustaqil tarzda tashkil etish va boshqarish nazariyasi, tizimda muntazamlikka tushmaydigan hodisalarni o'rganish, dunyo tajribasini yangicha izohlash, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy murakkab tizimli jarayonlarning tabiatini bilishga qaratilgan ilmiy yo'nalish bilan bog'liq tafakkur va faoliyat usuli hisoblanadi [1, 247-b.].

Sinergetika, ya'ni hamkorlik ilmiy yo'nalish sifatida XX asrning 60–70-yillarida shakllandi. XXI asrda paydo bo'lgan “pedagogik sinergetika” tushunchasini esa ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlari –



o'qituvchi va o'quvchi hamkorligini anglashga ko'maklashadigan nazariy-amaliy yondashuv sifatida talqin etish o'rinlidir.

XX asrning oxiri XXI asrning boshlariga kelib, ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyatiga nisbatan yangicha yondashuvlar vujudga kela boshladi. Bu yondashuvlarda shaxslararo munosabatlar o'zaro hamkorlik asosiga qurilsa kutilgan natijani berishi kashf etildi. O'qituvchi va o'quvchi hamkorligi ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatida yangicha sifat o'zgarishlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga ko'maklashdi. Bu hamkorlikning muhim jihati shundaki, u ta'lim jarayoni subyektlari faoliyatini muayyan tarzda uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Kuzatishlar ko'rsatmoqdaki, nafaqat turg'unlik, balki mustaqillikning dastlabki yillarida ham milliy pedagogikaga oid darslik va ilmiy manbalarda hamkorlik masalasi bevosita muammo sifatida ko'tarilmagan. Vaholanki, bunday hamkorlik va uni o'qitish kechimida qo'llash bugun ham zamonaviy ta'limda hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan biridir. Maktab o'qituvchilari pedagogik hamkorlik, uning tabiati, o'ziga xos xususiyatlari, samaradorligi, bunday hamkorlikni tashkil etish yo'llari haqida etarlicha tasavvur, bilim va tajribaga ega emaslar. Bularning barchasi mazkur hodisani har tomonlama tadqiq etish ehtiyoji mavjudligidan dalolat beradi.

Hamkorlik masalasi milliy tarbiyashunoslik ilmida chuqur o'rganilmaganligini quyidagi sabablar bilan izohlash mumkin:

- 1) pedagogik hamkorlik hodisasi milliy pedagogika va didaktika uchun yangi fenomen ekanligi;
- 2) ta'lim jarayonini subyekt-subyekt asosida tashkil etish kechagi jamiyatda shakllangan va bugun ham o'z ta'sirini yo'qotmagan talablar maqsadiga monand emasligi;
- 3) o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida subyekt-obyektlik faoliyati ya'ni dars jarayonida o'qituvchi hokimligining barqaror ekanligi;
- 4) ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra soha mutaxassislarining e'tiborini jalb qilmaganligi;
- 5) bu tushunchaning o'qituvchi o'rganib qolgan darsdagi hokimlik mavqeiga mos tushmasligi;



6) pedagogik faoliyatning tezkorligi va bu jarayonda o‘quvchi erkinligining ustuvorligi va hk.lardir.

Pedagogik hamkorlik jarayon subyektlari uchun o‘zligini namoyon qilish imkoniyatidirki, unda o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro hamkorligi: o‘quvchining erkinligi; ijodkorligi; bu jarayonda tartibsizlikning namoyon bo‘lishi singari jihatlarni yuzaga keltiradi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining afzalliklari va istiqboli. Pedagogik jarayondagi hamkorlik ta’lim subyektlari (o‘qituvchi va o‘quvchi hamda o‘quvchilarning o‘zaro) faoliyatining tadrijiy yo‘lini namoyon qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi bilan o‘quvchi faoliyati uyg‘unlashib, ijodiy xarakter kasb etadi. U ta’lim jarayoni subyektlaridagi har bir o‘ziga xos jihatni, ya’ni har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati, intellektual imkoniyati va iqtidorini inobatga olishni taqozo etadi. Pedagogik hamkorlikning yuzaga kelishi uchun nafaqat o‘quvchilarning o‘zaro, balki o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro aloqador hamda teng huquqli subyektlari darajasiga ko‘tarilishlari taqozo etiladi. O‘quv-biluv jarayonining shaxsga yo‘naltirilganligi, ya’ni ta’limda o‘quvchi shaxsining ustuvorligi markazida subyektlar orasidagi hamkorlik yotadi. O‘quv-tarbiya jarayonidagi hamkorlik subyektlarning birgalikda yangi axborotlarni o‘zlashtirishlari va ularni o‘z faoliyatlarida ijodiy qo‘llashlariga ko‘maklashadi. Ma’lumki, uzoq yillar davomida ta’lim tizimida ham turg‘unlikka yo‘l qo‘yildi. O‘qitish kechimidagi bir xillik o‘quvchini itoatkor tinglovchiga aylantirdi. O‘quvchi faoliyatining o‘qituvchi tomonidan boshqarilishi ta’lim jarayonini bir tizim va qolipga soldi. Endilikda o‘quvchi-o‘qituvchi munosabatlariga bunday yondashuv ta’limning yangilangan maqsadiga ham, davr talablariga ham javob bera olmasligi ayon bo‘lib qoldi. Pedagogik hamkorlik, avvalo, bilimlarni o‘zlashtirishda jamoa bo‘lib faoliyat ko‘rsatishni nazarda tutadi va uning asosiy maqsadi – ta’lim ishtirokchilarining his-tuyg‘uga asoslangan mustaqil, mantiqli, analitik va obrazli tafakkurini shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Ta’limning bu turi o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilishi mo‘ljallangan o‘quv materialiga ijodiy yondashish imkoniyatini kengaytiradi.



Pedagogik hamkorlik – subyektlar (o'qituvchi va o'quvchilar hamda o'quvchilarning o'zaro)ning teng huquqli hamkorligi jarayonida jamoa bo'lib ishlashi o'rganilayotgan mavzu doirasida yangi mushtarak g'oyalar tug'ilishiga zamin hozirlaydi.

Tabiiyki, pedagogik hamkorlik texnologiyasi ta'lim jarayonida samaradorligi sinalgan ilg'or metodlardan foydalanishni taqozo etadi. O'qitish kechimida ulardan vaqti va o'rnida foydalanilsa, o'quvchining izlanuvchanlik qobiliyati muntazam rivojlanib borayotganini payqash mumkin. Hamkorlikda ishlaganda qo'yilgan muammoning yechimiga to'g'ri yo'naltirilgan savol va topshiriqlardan foydalanish o'quvchilarni yangi farazlar, his-tuyg'uga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi va bunga ma'lum miqdorda erishiladi ham. Bu jarayonda o'quvchilar asta-sekinlik bilan o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishga odatlanib boradilar. Hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etishda unga mos o'qitish metod va usullari hamda o'quv topshiriqlari variantlarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Bu borada jahon pedagogikasi ilmida foydalanishga arzigulik yutuqlar qo'lga kiritilgan. Ta'limiy ishlarni hamkorlikda tashkil etishda quyidagi asosiy holatlar mujassamlashganini ko'rish mumkin:

- 1) ta'limiy muammoning o'quvchilar muhokamasiga dastlabki ko'rinishda qo'yilishi;
- 2) o'quvchilarda ta'limiy muammoning tahlili va buning uchun zarur bilimlar haqida tasavvur uyg'otish;
- 3) ta'limiy muammoni echish imkoniyatlarini aniqlash va chegaralash;
- 4) o'quvchilar ongida ularning shaxsiy dunyoqarashi va ilmiy-amaliy tushunchasi doirasida muammoni qayta shakllantirishga erishish;
- 5) qayta shakllantirilgan muammo variantlaridan qulayini tanlay olishga erishish;
- 6) hamkorlikning asosiy bosqichlaridan uning qonun-qoidalariga amal qilgan holda o'tish;
- 7) qo'yilgan muammo yechimi talablariga asoslangan holda yondashuvlar yoki tayyor javoblarni bayon qilish va hk.[2].



Bilimlarni hamkorlik asosida o'rganish (o'rgatish emas!)da e'tibor subyekt sifatida muayyan o'quvchi emas, balki o'quvchilar guruhiga qaratiladi. Bu o'rinda o'qituvchi bilan o'quvchilar, o'quvchilar o'zaro subyekt-subyekt munosabatlariga kirishadilar. Bunday jarayonning xarakterli jihati izlanuvchanlik faoliyatining birgalikda amalga oshirilishidadir. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam birgalikdagi harakat vujudga keladi, hamkorlikka oid ishlab chiqilgan qat'iy talablar uni o'quv jarayonida to'g'ri amalga oshirilishiga asos bo'ladi.

Mazkur murakkab va serqirra texnologiyadan ko'zlangan maqsad yo'lida foydalanish o'qituvchidan yuksak darajadagi bilim, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, mahorat va fidoiylilikni, umumlashtirib aytadigan bo'lsak, kasbiy kompetentlilikni talab qiladi. Agar ta'lim beruvchi (o'qituvchi)da shu jihatlarning birortasi etishmasa yoki qaysidir jihatida «kemtik»lik sezilsa, mazkur holat o'rganish faoliyatiga aks ta'sir ko'rsatishi ham hech gap emas.

Hamkorlikdagi ta'limning o'ziga xos jihatlaridan yana biri har xil ta'limiy sharoitlarda turlicha tabiatga, dunyoqarashga ega bo'lgan subyekt (o'quvchi)lar imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olishidadir. O'quv-tarbiya jarayoniga hamkorlik g'oyasining tatbiq etilishi, an'anaviy pedagogik tafakkurda bir tomonlama qotib qolishga barham beradi. Maktab o'quvchisida hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatish ko'nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirishni boshlang'ich ta'limdayoq tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki ta'limning mazkur bosqichida o'quvchida ijodiy faoliyatning ilk shakllari bo'y ko'rsatadi va asta-sekinlik bilan rivojlanish bosqichiga o'tadi. Bolada ijodkorlik imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va o'z-o'zini namoyon etish ko'nikmalari tarkib topa boshlaydi. O'qituvchi bilan muloqotga kirishish, u bilan hamkorlikda faoliyat olib borish, hamjihatlik ko'nikmalarini ta'limning ushbu bosqichida shakllantirish nihoyatda zarurligini amaliy tajribalar yaqqol ko'rsatmoqda.

Hamkorlikda o'qitish g'oyasi Amerika qo'shma shtatlari, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil, Singapur singari bir qator mamlakatlar pedagoglari



tomonidan chuqur o'rganilgan va ta'lim muassasalari amaliyotida keng foydalaniladi. Unga o'tgan asrning oltmishinci yillarida amerikalik olimlar R. Slavin, R. Jonson, D. Jonson va Sh. Sharonlar tomonidan asos solingan [1, 133.]. Pedagogik hamkorlik masalasi rus olimlari V. M. Myasishev [3], B. F. Lomov [4], B. G. Ananov [5], A. V. Petrovskiy [6] va boshqa bir qator pedagog olimlar tomonidan ham o'rganilgan va shaxslararo munosabat – ta'lim jarayonida o'qituvchining o'quvchilar bilan, o'quvchilarning o'zaro hamkorligini tashkil etish ularning nafaqat muloqot-muomalaga nisbatan ehtiyojini qondirish vositasi, balki o'quv materialini o'zlashtirishning ham muhim sharti ekanligi aytib o'tilgan.

Ta'lim olish jarayonini hamkorlikda tashkil etish har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga yo'naltirish, shaxs sifatida unda mustaqillik va onglilikni tarbiyalash, har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ham ko'zda tutadi.

Hamkorlikda o'qitishning o'quvchilararo faoliyatdagi shakli har bir tarbiyalanuvchini ta'lim olishdagi o'z muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda mustaqil va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlarini to'liq va sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishga ham zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitishning o'quvchilararo shaklida ularga topshiriqni birgalikda bajarish ko'rsatmasini berishning o'zi etarli emas. Bunda o'quvchilar tom ma'nodagi sheriklikda ishlashlari, har bir o'quvchi qo'lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonishi, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissini tuyishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga keltirilishi zarur.

Mazkur texnologiyadan foydalanilib o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har birining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilganlari bilan taqqoslanadi. Shunda har bir o'quvchi o'zining dars davomida



erishgan yutug'i o'z jamoasiga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi.

O'quv jarayonida o'quvchilararo hamkorlikka asoslangan do'stona muhitni vujudga keltirish shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Maktabdagi o'quv-biluv jarayoni o'quvchilarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish asosida tashkil qilinishi lozim.

O'qituvchi bilan o'quvchi orasida o'zaro hamkorlik muhiti yaratilayotganda esa barcha o'quvchilarning imkoniyatlari va ehtiyojlari hisobga olinishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o'zaro tenglik muhiti hukmron bo'ladi. Ya'ni, o'qituvchi o'zining darsdagi hokimlik mavqeidan voz kechadi. Bu jarayonda o'quvchilar oddiy ta'lim oluvchilar emas, balki, ta'lim-tarbiya jarayonining teng huquqli, hamkorlik asosida jipslashgan ishtirokchilari bo'lishlariga erishiladi. Sinfdagi barcha o'quvchiga bir xil muomala va munosabat, hamkorlikdagi ta'lim, o'quvchi, o'qituvchi va ma'muriyat orasida do'stona munosabat ustuvorligi asosida sifatli ta'lim berish jarayoni vujudga keladi. O'quvchilarga nisbatan do'stona munosabat muhiti o'zaro adolatli munosabatlar zahirida yaratiladi. Adolat bor joyda haqiqat, haqiqat bor joyda o'zaro hurmat muhiti hukm suradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi hamkorlikdagi o'quv-biluv jarayonini tashkil etar ekan, har bir o'quvchining betakror ekanligi, uning ta'lim-tarbiyasi oilaviy muhitiga, sinfdagi mavqeiga, ustozlarining munosabatiga, ruhiy kechinmalari va kayfiyatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lishini unutmasligi lozim.

Ta'lim muassasasida faoliyat olib boradigan har bir pedagog o'quvchining qalbidan chuqur joy ola bilishi, ularning hurmat-ehtiromi vva e'tirofiga sazovor bo'lishi, o'quvchining eng yaqin kishilaridan biriga aylanishi, quvonch va tashvishlariga sherik bo'lishi, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l ko'rsata olishi zarur. Shunda ta'lim-tarbiya oldiga qo'yilgan maqsadga erishish mumkin bo'ladi.



O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi o'zaro hamkorlik muhitini shakllantirish uchun, avvalo, quyidagilarni amalga oshirish taqozo etiladi:

- o'quv jarayonida ijodkorlik muhitini vujudga keltirish;
- o'quvchilar faoliyatini muayyan tartib asosida tashkil etish;
- o'quvchilar orasida o'zaro do'stona muhitni vujudga keltirish kabilar.

O'zaro hamkorlik va do'stona muhitni vujudga keltirish uchun o'quv-tarbiya jarayonining ochiq xarakter kasb etishi va o'zaro axborotlar almashinuvi uchun qulay bo'lishini ta'minlash muhimdir.

Ta'lim jarayonida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun o'quvchilarda ongli faoliyat ko'rsatish ko'nikmasini tarkib toptirish, ularni mustaqil, ijodiy, mantiqiy va analitik fikrlashga yo'naltirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'zaro hamkorlikka asoslangan ijodiy faoliyatini tashkil etish uchun axborotlardan oqilona foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv muhitida o'qituvchi ham jismoniy, ham virtual ekspert sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik amaliyotda o'quvchilarning bor imkoniyatlarini ularning o'zlari uchun maksimal darajada yuzaga chiqara bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni yangi bilimlarni o'zlashtirishda bor imkoniyatdan samarali foydalana bilish zarur. Jumladan:

- 1) o'quvchilar aniq ilmiy, amaliy muammolarni echishga jalb etilishi, bu jarayonda ularda muayyan qiziqishlar hosil bo'lishi;
- 2) mantiqiy va lingvistik bilimlardan topshiriqlarni echish vositasi hamda ularning yechimlarini tekshirish usuli sifatida foydalanish imkoniyati vujudga kelishi;
- 3) qo'lga kiritilgan natijalar, aksariyat hollarda elektron ko'rinishlarda ifodalanishi lozimligi.

Buning natijasida o'quvchilarda kompyuterdan ma'lum maqsad yo'lida oqilona foydalanishga oid dastlabki ko'nikmalar tarkib topadi va har bir o'quvchida o'zi uchun zarur bo'lgan



axborotlar bazasini yaratishga bo'lgan qiziqish va intilish vujudga keladi. Bu jarayonda ular birgalikda harakat qila boshlaydilar, har bir o'quvchi o'z bilim zahirasini sinfdoshlari egallagan bilimlar yordamida boyitish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Bunda ularga yangi bilimlar bilan boyitilgan o'quv materiallari va kompyuter savodxonligi yaqindan yordam beradi. O'qituvchi intellektual xarakterdagi o'quv topshiriqlaridan kengroq foydalangan holda hamkorlikka asoslangan o'quv muhitini vujudga keltirishi lozim. Ta'lim-tarbiya tizimiga bunday yodashuvni tatbiq qilish natijasida maktab ta'limida yangi yo'nalish vujudga keladi.

Bugun «interfaol metodlar» nomi bilan ta'lim amaliyotiga kirib kelayotgan barcha metodlar (fikriy hujum, guruhlarda ishlash, qarorlar shajarasi, Ven diagrammasi, Blum taksanomiyasi, yelpig'ich, yangilangan suhbat metodi va hk.) mazkur hamkorlikda o'qitish texnologiyasining asosini tashqil etadi. Ma'lumki, bu metodlarnig barchasida o'ziga xos va mos usullardan foydalaniladi (mazkur metod va usullarning xususiyatlari haqida alohida so'z yuritiladi).

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatini, dunyoqarashini har tomonlama o'zgartirish tamoman yangi ilmiy-pedagogik asoslarga tayanishni taqozo qilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadga erishish yo'lidagi vazifalarni bajarish nafaqat ta'lim mazmunini o'zgartirishni talab qilmoqda, balki uning shakllari, metodlari, usullari va o'qituvchi faoliyatini ham takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практ. обучения языкам). – Москва: ИКАР, 2009. – 448 с.
2. <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия. Свободная энциклопедия.
3. [ru.wikipedia.org/wiki/Мясищев, Иладимир_Николаевич](https://ru.wikipedia.org/wiki/Мясищев,_Иладимир_Николаевич)
4. <https://studfile.net/preview/7850721/page:2/>
5. https://spravochnick.ru/psihologiya/sistema_psihologicheskikh_nauk/klassifikasiya_metodov_psihologicheskogo_issledovaniya_po_b_g_ananevu/.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/moy-ironichnyy-umnyy-i-dobrozhelatelnyy-pokrovitel-artur-vladimirovich-petrovskiy>



BOSHLANG'ICH TA'LIM – POYDEVOR

"JAHOLAT TO'G'RISIDA RIVOYAT" ASOSIDA INSHO TASHKIL ETISHDA "AQLIY XARITA" METODIDAN FOYDALANISH



Mutallib HAZRATQULOV

SamDU dotsenti

El-manzil: hazratqulovmutallib@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarni insho yozishga o'rgatish va insho yozish jarayonini tashkil etish bilan bog'liq faoliyatini uyushtirish borasida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *bo'shlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, insho, esse, mustaqil ish, tekshirish, tashkil etish.*

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim davridan boshlab o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmasini kichik bog'lanishli matnlar yaratish asosida shakllantira borish, keyinchalik yuqori sinflarga o'tgach esse, insho yozish, badiiy matnlar yaratish qobiliyatini rivojlantirish ona tili, adabiyot o'quv fanlarining asosiy vazifalaridan biriga aylanib boryapti.

O'quvchilarning erkin fikr bildirishlari, o'z ichidagilarini bayon qila olishlarining asosiy shartlaridan biri ularni qiziqtirgan mavzularda yozish imkonini berishdir. Bunday paytda o'qituvchi bir nechta qiziqarli mavzularni doskaga yozib, o'quvchilarga tanlash imkonini berish ham samarali hisoblanadi. Hozirgi kunda boshlang'ich sinflarning yuqori bosqichida quyidagi mavzularda kichik insholar yozdirishni tavsiya etish mumkin: "Hayotning men anglagan tomonlari", "Vaqt – eng bebaho boyligimiz", "Yaxshilik



qilish – inson ziynati”, “Mening odamlarga aytadigan gaplarim”, “Yer yuzida tinchlik o’rnataman”, “Tinchlik – eng oliy ne’mat”, “Dunyoni o’zgartirgan odamlar”, “Mening sevimli multiqahramonim”, “Mening sevimli kitobim”, “Men yoqtirgan adabiy qahramon”, “Hayot qiyinchiliklarini yenga olaman”, “Vatanimiz kelajagi mening tasavvurimda”, “Hayotimdagi eng asosiy vazifam”, “Mening hayotdagi qahramonim”, “Kelajakka maktub” va hk.

Adabiy asarlar asosida insho yozish lozim bo’lganda o’qituvchining o’zi bu jarayonni tashkil etish haqida ham nazariy, ham amaliy tajribaga ega bo’lishi taqozo etiladi. O’qituvchining har qanday asarni o’rganishga qaratilgan darsni metodik jihatidan to’g’ri tashkil eta olishi o’quvchilarning insho yozish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Buning uchun u talabalik davridayoq mazkur jarayonga tayyorlanib borishi taqozo etiladi. SamDUning maktabgacha, boshlang’ich va texnologiya fakulteti talabalari Erkin Vohidovning “Jaholat to’g’risida rivoyat”[2, 63–76-b.] she’ri asosida yozilajak inshoni quyidagicha tashkil etishlari mumkin:

1.Tashkiliy qismda adabiyot olami, so’z qudrati haqida, adabiyot hayotni o’zida aks ettiruvchi oinai-jahon ekanligini misollar asosida ta’kidlab o’tiladi. “Keys-stadi” texnologiyasi asosida “Jaholat nima? Unga qarshi qanday kurashmoq kerak?” mavzusida muammo qo’yiladi. Talabalar muammo ustida ishlaydilar.

Savol: Buyuk olim va shoh Mirzo Ulug’bekka xoinlik qilganlar qanday jaholat kishilari edilar? O’zbekiston qahramoni Abdulla Oripovning:

Do’stlar, ko’kda yulduzlar emas,

U Ulug’bek ko’zidagi yosh.

misralarini qanday izohlaysiz?

“Keys-stadi” metodi asosida misralarni tahlil etish, mulohazalash o’quvchilarning doston g’oyasini yanada chuqurroq anglashlariga yordam beradi.



2. Yangi mavzuni tushunishga tayyorlash. Muhokama-munozara metodi. Bunda dostonidagi asar syujetini ochib beruvchi misralar yuzasidan munozara o'tkaziladi. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va ularga muhokama uchun savollar beriladi:

1-savol:

Rivoj topmish sohib hikmat,
Donish, mehnat, madadkor.
Ammo qayda bo'lsa shuhrat
Yonboshida hasad bor
misralarini qanday izohlaysiz?

2-savol:

Tinmay kecha-yu kunduzi
Topib Nabi so'zidan
Dedilar: dard bergan o'zi
Davosi ham o'zidan
misralaridagi "Nabi" so'zini qanday tushundingiz?

3-savol:

Keyin suvni, arqonni ham,
Hayf bildilar "shayton"ga.
Yoqing, dedi eng bosh hakam,
Olib chiqib maydonga
misralaridagi "shayton" so'zi nima sababdan qo'shtirnoqqa olingan? Johil olomon hakimni yoqish uchun qanday yo'l tutadi?

4-savol:

Bu so'zlarni eshitdi-yu,
Faryod qildi donishmand.
"Yoqing!" deya so'radi u,
Olov bo'lsin sarbaland.

Ushbu misralardagi donishmandning olovni yoqishlarini istashining boisi nimada edi?

3. Yangi material ustida ishlash bosqichida o'qituvchi tekshiruv savollari yordamida doston g'oyasini ochib berishga harakat qiladi. Bu bosqichda O'zbekfilm kinoijodkorlari tomonidan ishlangan "Qalb ko'zi" filmidan lavha namoyish etiladi. Suhbat metodidan foydalaniladi.




Qisqa savollarga qisqa javoblar tinglanadi:

1. Doston nega “Jaholat to’g’risida rivoyat” deb nomlangan?
2. Dostondagi donishmand tabibning hayot tarzi, muruvvatligining boisi nima deb o’ylaysiz?
3. So’qir ko’zi ochilgan-u, biroq johilligi sabab buni tushunmagan chol obraziga qanday baho berasiz?
4. Johil olomon nima sababdan tabibni o’limga mahkum qildi?
5. Donishmand tabibning o’limidan so’ng qanday voqealar sodir bo’ldi?
6. Johil olomonning o’z aybini tushunib yetishi lavhalariga munosabat bildirsa olasizmi?

Yuqoridagi savollarga talabalar imkon qadar javob topishga harakat qiladilar. Bu savollarning javobi ularning muallifligida yoziladigan insho uchun reja vazifasini bajarishi mumkin.

Mavzuni batafsil tushunish uchun “Intelлект xarita”dan foydalaniladi:





O'quvchilar “xarita”ga asoslanib inshoning mundarijasini va xayoliy syujetini yaratadilar.

4. Imlo bo'yicha ishlash. (xattaxtada yozilgan so'zlar asosida).

1. Dostondagi qaysi so'zlar sizga notanish uchradi? Marhamat, so'rashingiz mumkin.

2. Asar syujetidagi tushunarsiz jumlar uchragan bo'lsa, so'rang.

3. Doston g'oyasiga mos epigraf tanlash maqsadga muvofiq ekanligini eslatib o'tmoqchiman.

4. Endi daftarlaringizni ochib, sanani va mavzuni yozing.

5. Mustaqil ishlash bosqichi:

O'quvchilar mustaqil holda inshoni yozadilar.

6. Ishni tekshirish bosqichi:

O'quvchilar xohishiga ko'ra o'zlari o'qib berishlari yoki o'qituvchi yordamida o'qish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

7. Dars yakuni va uy vazifasi:

Bo'lajak o'qituvchilar o'zlari Abdulla Oripovning “Olomonga” she'ri, Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani va insho g'oyasi o'rtasidagi umumlashmalarni bilib kelishlari topshiriq sifatida beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мадаев О. Иншо қандай ёзилади: Ўрта махсус ўқув юртларининг ўқитувчилари учун методик қўлланма. –Т.: Ўқитувчи, 1991. –88 б.

2. То'xliyev B. va boshq. Adabiyot. 11-sinf: darslik-majmua – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – 200 b.

3. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o'qitish muammolari va yechimlar. –T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2009. –244 b.

4. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo'li. Toshkent. “Muharrir” nashriyoti, 2013. –432 b.



BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH METODIKASI



Iroda SHODIYEVA

*Yozyovon tumanidagi 12-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi,
Xalq ta'limi a'lochisi.
el-manzil: shodiyeva@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish metodikasi yoritilgan bo'lib, maqola mazmunida o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ulardan foydalanish yo'llari metodik jihatidan asoslaga harakat qilingan.*

Kalit so'zlar: *usul, metod, interfaol usul, texnologiya, mantiqiy, tanqidiy, qobiliyat.*

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasiga asoslanish maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, uni ta'lim oluvchilarni faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Dars jarayonini oqilona tashkil etishda o'qituvchidan o'quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda, ularning ta'lim jarayonidagi faolligini muttasil rag'batlantirib turish, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum,



kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash asnosida tarbiyalanuvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Interfaol metodlar deganda tarbiyalanuvchilarni faollashtiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi, ularni dars markaziga qo'yuvchi metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda o'qituvchi o'quvchilarni darsda faol ishtirok etishga chorlaydi. O'quvchi dars jarayonida ijrochi emas, faol ishtirokchi darajasiga ko'tariladi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatining o'quvchilar ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- tarbiyalanuvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- bilimlarning amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Dars jarayonida didaktik o'yinlarga asoslangan o'qitish kechimi boshlang'ich sinflar ta'limining asosi hisoblanadi va bu jamoaviy ta'limning samarali tashkil etilishiga turtki bo'ladi. Ayniqsa, sinf sharoitida o'quvchilarning jismoniy taraqqiyoti uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Bilimlarni didaktik o'yinlar orqali o'zlashtirishning raqobatbardoshlik jihati ham mavjud. O'quvchilar o'zlari yoki jamoalari nomidan raqobatlashishga yoki g'alaba qozonishga harakat qiladilar.

Ular o'z jamoalariga ko'proq ochko to'plash maqsadida yoki o'yinga moyilliklari sabab topshiriqlarni yuqori saviyada bajarishga intilishlari tabiiy. Quyida boshlang'ich sinflarning matematika darslarida didaktik o'yinlarning turlari va ulardan foydalanish yo'llari taqdim etiladi.





“Qo‘g‘irchoq teatri” o‘yini

O‘yin texnologiyasi. Avval darstaxtadan yarim metrlik uzoqlikda stol-stullar ko‘magida biror material asosida sahna tayyorlab olinadi. Rangli qog‘ozlardan kattaroq shaklda ko‘k, qizil, yashil va sariq nuqtalar tayyorlanadi. O‘quvchilar orasidan ijrochilar tanlanadi. Qo‘g‘irchoq teatri sahnasida o‘quvchilar qo‘g‘irchoq (nuqta)larni harakatlantirib gapirtiradilar. Bu o‘quvchilarga zavq bag‘ishlaydi. Ular o‘zlarining ishtirokida amalga oshirilgan bilimlarni, ko‘zlari bilan ko‘rgan narsalarini yaxshi eslab qoladilar.

O‘quvchilarning eslab qolish imkoniyatlari psixologiya ilmidagi quyidagicha tavsiflangan:

1. O‘qiganlarini – 10 %.
2. Eshitganlarini – 20 %.
3. Ko‘rganlarini – 30 %.
4. Ko‘rib, eshitganlarini – 50 %.
5. Gapirayotganlarini – 80 %.
6. Gapirib, bajarayotganlarini – 90 %.

«Matematika» darsligidagi “To‘g‘ri chiziqlarning hosil bo‘lishi” nomli mavzuni o‘rganishni qo‘g‘irchoq teatri misolida namoyish etishda kamgap va tortinchoq o‘quvchilarga asosiy e‘tibor qaratiladi. Ya‘ni sahna ko‘rinishini ular namoyish etadilar. Bu faoliyat o‘quvchilarning ham nutqining rivojlanishiga, ham do‘stlari oldida o‘zlarini erkin his qilishlariga zamin tayyorlaydi:

“Qalam, sirkul, o‘chirg‘ich inoq va hamkorlikda yashaydigan Geometriya mamlakatida bir qizil nuqtacha ham yashar ekan. U o‘zini juda ham yolg‘iz his qilarkan. Har doim do‘stlari bo‘lishini orzu qilarkan. Kunlardan bir kuni o‘sha qizil nuqtacha o‘ziga do‘st axtarib yo‘lga chiqibdi. U yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi. Yo‘lda ko‘k nuqtachani ko‘rib qolibdi. Ko‘k nuqtacha dadillik bilan qizil nuqtadan so‘rabdi:

- Qayerga ketayapsan?
- O‘zimga do‘st axtarib ketyapman.
- Kel, unda ikkimiz do‘st bo‘lamiz.
- Xo‘p bo‘ladi, deb ular do‘st bo‘lishibdi.





Ular do'st tutinishibdi va yo'lda birgalashib davom etishibdi. Yo'lda Yashil va Sariq nuqtalarni uchratib qolishibdi. Yashil nuqta ulardan qayoqqa ketishayotganini so'rabdi. Ko'k va qizil nuqtalar bir-biriga gap bermay o'z do'stliklari haqida gapirib berishibdi. Sariq nuqta Qizil va Ko'k nuqtalarga ham o'z do'stliklarini taklif etibdi. Nuqtalar ular bilan ham do'st bo'lshibdi. Nuqtalar hammasi do'stlashishganlaridan so'ng mo'jiza ro'y beribdi. Ya'ni hamma nuqtalar birlashishgan ekan, ularning hamjihatligidan to'g'ri chiziq hosil bo'libdi. To'g'ri chiziq mana shunday barcha nuqtalarning inoqligi va hamjihatligi asosida paydo bo'lgan ekan”.


Bu o'yinda o'qituvchi ertakchi rolida maydonga chiqadi. To'rtala nuqtaning suhbatidagi nutqni o'quvchilar o'zlari belgilaydilar.

Qo'g'irchoq teatri o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishini yanada oshiradi. Bunday tomoshalarni har xil mavzular misolida dam olish daqiqasida ham, darsning tashkiliy qismida ham amalga oshirish mumkin. Har xil mavzularda teatrlashtirilgan sahnalarni tashkil etishda o'qituvchidan ijodkorlik talab qilinadi. U mavzuga moslab har xil yo'nalishda ertaklar to'qib berishi kerak bo'ladi.

«Matematik savdogar» o'yini

O'yin texnologiyasi. O'quvchilar to'rtta-to'rttadan guruhlariga taqsimlanadi. Bir o'quvchi do'konga Savdogar etib tayinlanadi. Guruhlardagi o'quvchilar Xaridor rolida ishtirok etadilar. O'qituvchi stolida peshtaxta hosil qilinadi va mahsulotlar terib qo'yiladi. Do'konda har bir mahsulotning narxi karra jadvali yoki tenglama (sinflar kesimidagi mavzulardan kelib chiqib) ko'rinishida yozib qo'yiladi. Mahsulot olmoqchi bo'lgan Xaridor matematik hisob-kitobni to'g'ri amalga oshirsa, Savdogar uni tekshirib ko'radi va Xaridordan mahsulotning pulini oladi. Agar Xaridor adashsa, Savdogar unga mahsulotini sotmaydi. Bu o'yin musobaqa shaklida olib boriladi. Qaysi guruh vakillari ko'p misol yechib, ko'p mahsulot sotib olgan bo'lsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi va rag'batlantiriladi.






O'qituvchi har darsda reja asosidagi mavzusiga qarab, misol yoki masalalardan foydalanishi mumkin. Matematik mavzularni o'zlashtirishda didaktik o'yinlardan foydalanishning afzalliklari shundan iboratki, o'quvchilar o'rgangan bilimlarini hayotda qo'llay olish ko'nikmasini egallab ularni rivojlantirib boradilar.

"Puzzle o'yin" usuli

O'yin texnologiyasi. Bu o'yinda o'quvchilarning aqlini charxlash uchun PISA testlaridan foydalaniladi. Sinfidagi o'quvchilar aralash holda guruhdarga taqsimlanadi. Qaysi guruh testlarni birinchi bo'lib yechsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi va rag'batlantiriladi.



O'quvchilar bu testlarni yechish orqali o'zlarida mantiqiy fikrlash, tasavvur qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Bu o'yin bir qarashda oddiy ko'rinsada, o'quvchilarni chuqur o'ylanishga undaydi. Bu o'yin har darsda qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan besh daqiqa ichida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatib borish mumkin bo'ladi.


Birinchi tasvirda – C; ikkinchi tasvirda – C; uchinchi tasvirda – 4-javobni belgilagan o'quvchilar to'g'ri javob bergan



hisoblanadilar. Albert Eynshteyn "Tassavvur – bilimdan muhim" degan fikrni ta'kidlagan[2]. Shuning uchun bunday boshqotirmalardan ham dars jarayonida foydalanish samarali usullardan hisoblanadi.

"Qaynoq qalam" o'yini

O'yin texnologiyasi. Bu o'yinda ham o'quvchilar guruhlariga bo'lib olinadi. Har bir guruh uchun xattaxtada misollar yozilgan qog'oz ilib qo'yiladi. O'quvchilar galma-galdan chiqib misollarning javobini zudlik bilan yozishlari kerak. Chunki qalam qaynoq bo'lgani uchun ko'p ushlab turgan o'quvchining qo'li kuyishi mumkin. Demak, bu o'yinning sharti o'quvchilardan tez fikrlash va uddaburonlikni talab qiladi. Bu didaktik o'yinning afzalligi shundaki, unda o'quvchilarning faolligi ortadi. Diqqat va xotira rivojlanadi.



"Sohil koptogi" o'yini

O'yin texnologiyasi. Bu o'yinni tashkil etishda o'qituvchi va o'quvchilarga koptok yordam beradi. Sinfdagi hamma o'quvchilar o'rinlaridan turadilar. O'qituvchi har bir bola uchun alohida misol aytib koptokni uloqtiradi. Shu o'rinda aytish joizki, o'qituvchi o'quvchi uchun misol tanlaganda uning intellektual imkoniyatiga asoslanishi shart. Toki o'quvchi misolni tez yecha olsin. Aks holda, o'qituvchi o'rtoqlari oldida bu o'quvchining g'ururini sindirib qo'yishi mumkin. Ilib olgan o'quvchi misolning javobini tezda aytib



berishi talab etiladi. O'quvchilarning har biri koptokni ilib ola turib, javob aytib darsda faol ishtirok etadilar. Bu o'yindan ham har kungi mavzuga moslashtirib foydalanish mumkin. Masalan:

1-2-sinflarda: $17+8=$; $9+16=$; $26+9=$;

3-4-sinflarda: $25*5=$; $34*3=$; $17*5=$ va hk.

Misollarni o'quvchilarning qobiliyatlariga moslab qiyinlashtirib yoki soddalashtirib borish taqozo etiladi.

Bu didaktik o'yinning afzalligi shundaki, darsda undan foydalanilganda o'quvchilardan ziyraklik, tez fikrlash va epchillik talab qilinadi. Diqqatni tez jamlab, darsda faol ishtirok etishga undaladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni matematikaga qiziqtirish uchun dars mashg'ulotlarida didaktik o'yinlardan foydalanish matematika ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga ma'lum darajada ijobiy xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gazeta.uz
2. Mentalar.ru
3. Olimpia.uz
4. S. Jumanova. "Noodatiy fikrlash mahorati yoxud kreativlik qanday shakllantiriladi?"
5. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/fan/3305.htm>



BOSHLANG'ICH SINFLAR ADABIY TA'LIMIDA O'QUVCHILARDA MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA METODIK ASOSLARI



Jamila Sayfiddinova

SamDU tayanch doktoranti.

el.manzil:

jamilasayfiddinova2@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar adabiy ta'limida o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari, uning nazariy tahlili masalalariga murojaat qilingan. Kichik yoshdagi o'quvchilarga qo'yiladigan asosiy talablardan biri shundaki, badiiy matn mohiyatiga tushuna olish, muammoli savol-topshiriqlarga mantiqli, asosli xulosa chiqarib javob berish, o'quvchilarning mustaqil hamda mantiqiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish muhimligi keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *tafakkur, fikrlash, mantiqiy fikrlash, evristik metod, tizimli tahlil, mantiqiy fikrlash shartlari, savol-javoblar.*

Bizga ma'lumki, hozirgi ijtimoiy-madaniy hayotda ta'lim mazmuni insonparvarlashtirildi. Bu endilikda shakllanib kelayotgan yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirishga, sog'lom ma'naviyatli odam tarbiyalashga qaratilmoqda. Ta'lim jarayonida o'quvchi o'qitilishi kerak bo'lgan ta'lim obyektidan o'zini tarbiyalashda bevosita ishtirok etadigan subyekt darajasiga ko'tarilmoqda. O'quvchilarga bilimlar tayyor holda berilmay mustaqil, mantiqiy va ijodiy fikrlashga yo'naltirish bilan o'quvchi xuddi o'qituvchi singari dars jarayonining egasiga aylanmoqda.



Ta’limning asosiy maqsadi ham o’quvchi-yoshlarni ruhan sog’lom, aqlan barkamol, o’z fikri, qarashlariga ega bo’lgan avlod shaklida tarbiyalashga qaratilmoqda. Bunga har bir o’quvchining ongli ehtiyoji va ichki qiziqishini uyg’otmay turib erishib bo’lmaydi. Bunday ehtiyoj va qiziqish faqat mustaqil hamda mantiqiy mulohaza yurita oladigan kishilardagina bo’ladi.

Mantiqiy fikrlash – bu jismonan va ruhan sog’lom insonga xos aqliy faoliyat bo’lib, jamiyatda sodir bo’layotgan yangiliklar va o’zgarishlarga faol kirisha olish va ularga ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham ijtimoiy asoslarga ega bo’lgan mantiqiy munosabat bilan belgilanadi. Insonning tafakkuri qancha mustaqil bo’lsa, u shuncha mantiqiy mulohaza yurita oladigan, izlanuvchan, kreativlikka intiluvchan bo’ladi. Inson faqat mustaqil fikr egasi sifatida qadrlanadi. Shakllanib kelayotgan shaxsning dunyoqarashi, irodasi, tasavvuri, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi nozik mexanizmlari rivojlana borishi asosida uning o’z fikri va qarashi shakllanib boradi. Munosabatlarida mantiq belgilari paydo bo’la boshlaydi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Yangi O’zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g’oya asosida keng ko’lamli islohotlarni amalga oshiramiz” [1], - deya millat rivoji va jamiyat taraqqiyotida o’qituvchilarimizga juda katta mas’uliyat yuklanayotganligini ko’rsatib berdi. Ushbu jarayonda o’quvchini raqobatbardosh qilib tarbiyalash zamon talablariga kirishish, ijtimoiy buyurtmani yetishtirib bera olish kabi vazifalar o’qituvchining zimmasidadir. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini mantiqiy fikrlash ko’nikmasini shakllantirishning pedagogik-nazariy va amaliy-metodik jihatlarini o’rganish dolzarb masalalardan biridir. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarni mustaqil, mantiqiy va kreativ vazifalarni bajarishga yo’naltiruvchi metod va usullar, mantiqiy tafakkurni shakllantirishda taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish, sintez, tasniflash va analogik operatsiyalarni o’zlashtirish borasida yetarlicha tadqiqotlar o’tkazilmagan.



Fikrlash o'quvchilarning o'quv faoliyati uchun muhim jarayon hisoblanadi. Bu topshiriqlar bajarish, muloqot jarayonida nutqdan keng foydalanish imkonini beradi. Fikrlash obyektiv olamning miqdoriy munosabatlari va fazoviy shakllarining inson ongida bilvosita aks etish jarayonini, shaxsning umumlashgan va dunyoni bilvosita aks ettirilganligini tavsiflovchi o'rganish faoliyatidir. Mantiqiy fikrlash nazariya va amaliyotni, fikrlashning konvergent va divergent turlarini uyg'unlashtiradi hamda o'ziga xos topqirlik bilan tavsiflanadi[2, 30-b.].

Ruhshunoslarning ta'biricha, fikrlash, ya'ni tafakkur – odam miyasida sodir bo'ladigan jarayon. Fikrlash ko'magida inson ongi yoki ruhiyatida aks etgan narsa va hodisalarning anglangan yoxud anglanmagan jihatlari inson tafakkuri orqali o'rganiladi. Demak, insonning shaxslik belgisi, bu uning tafakkur yuritish layoqatida namoyon bo'ladi. Hech narsa insonning odam ekanligini tafakkur layoqatichalik isbotlab berolmaydi. Shunday ekan, muayyan jamiyatning taraqqiyotini insonlarning tafakkur salohiyati, narsa va hodisalarga ijodiy-mantiqiy mulohaza yurita olish qobiliyati asosiy insoniy xususiyat sifatida ajratib olingan.

A. Zak mashg'ulotlarda bola psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Bolalar konkret fikrlaydilar, shuning uchun bir qator abstrakt tushunchalarni qiyinchilik bilan, qiziqishsiz qabul qiladilar [3, 42-b.]. Demak, fikrlash takomillashib boruvchi mustaqil faoliyatdir. Fikrlash har bir odamda ichki kuch, ruhiy ehtiyoj va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi, rivojlanadi. Inson ilk bolalik davridan boshlab atrof-muhitni, uni o'rab turgan borliqni bilishga intila boshlaydi. Ana shu ichki kuch unda fikrlashni paydo qiladi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik shartlari, birinchi navbatda, turli zamonaviy vositalar va usullardan foydalanishdir. Shunga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar an'anaviy dasturlar bo'yicha ishlayotganligini hisobga olsak, mantiqiy tafakkurni, aqliy operatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan uslubiy materiallarga ehtiyoj katta.



Ko‘rinadiki, boshlang‘ich adabiy ta‘limda zamonaviy metodlardan samarali foydalanilganda, dars jarayoni o‘quvchilar ishtirokida o‘qituvchi tomonidan emas, balki o‘quvchilarning o‘zlari tomonidan o‘qituvchi ishtirokida amalga oshirilishi natijasida bu jarayon to‘g‘ri tashkil etilganligini ko‘rsatadi. Milliy tarbiyashunoslik ilmida o‘quvchi ma‘naviyatini sog‘lomlashtirish, dunyoqarashini kengaytirish, mantiqiy va mustaqil tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladigan ta‘limning interfaol metodlaridan biri evristik metoddir. Bu atama yunoncha “heurisko” – izlayman, topaman so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual ijodiy va kognitiv qobiliyatlarini rag‘batlantirish maqsadida qo‘llaniladi. Mazkur metod: hayotiy va badiiy haqiqatlarni mustaqil kashf qila bilish; mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish; murakkab muammolar yechimlarini topishda jamoaviy izlanishning afzalliklarini ko‘rsatish; o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlikning foydali tomonlarini namoyish etish; o‘rganilayotgan muammoli vaziyatning mohiyatiga kira olish ko‘nikmasini rivojlantirib boradi. Bundan tashqari, ushbu metodda o‘quvchilar taqqoslash, analiz(tahlil qilish), sintez (xulosalash), ma‘lumotlarni to‘plab ma‘lum umumlashmalar qilish, o‘z faoliyatini rejalashtirish hamda o‘z aqliy salohiyati va hayotiy tajribalariga tayanib, eng oqilona xulosaga tez va aniq kelish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishdagi faolligini ham oshiradi.

O‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo‘naltirishda evristik metoddan foydalanish jarayonining to‘g‘ri tashkil etilishi uchun bir qator qoidalaridan foydalanish o‘rinlidir:

- fikrlash va fikr bildirish uchun 2–3 daqiqa vaqt ajratiladi;
- bildirilgan fikrni darhol tanqid qilish va baholash mumkin emas;
- o‘quvchilarning barcha javoblari tinglaniladi;
- tinglangan xulosalar tahlil qilinadi;
- eng maqbul yechimlar birgalikda tanlanadi.

Ushbu metoddan o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo‘naltirishda 4-sinf “O‘qish savodxonligi” darsligining 1-qismidagi



Nasiba Erxonovaning "Qarg'a va paxta" [5, 35-b.] badiiy matnining didaktik tahlili misolida quyidagicha ko'rish mumkin. Berilgan matn ustida ishlashni adabiy ta'lim maqsadidan kelib chiqib hayot bilan, o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda rejalashtirish maqsadga muvofiqdir.

Dars jarayonini mazkur yo'nalishda tashkil etish uchun avval matn o'qituvchi tomonidan ifodali o'qib beriladi. So'ngra bir nechta mantiqli savol ko'magida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash darajasi tekshiriladi. Shundan so'ng asarning didaktik tahlili o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga yo'naltiruvchi quyidagi savol va topshiriqlar ko'magida amalga oshiriladi:

1. Nega aynan kuz oylarida g'o'za chanoqlaridagi paxtalar oppoq bo'lib ochiladi?

2. Qarg'alar haqida yana qanday ma'lumotlarni bilasiz? Ular O'zbekistonda, asosan, qaysi faslda yashashadi?

3. Qarg'aning qaysi tutumlarida shoshqaloqlik xatti-harakatlarini ko'rish mumkin?

4. Nima deb o'ylaysiz, hayotda ham qushlar insonlarning tilini tushuna oladimi?

5. Ip yigiruvchi paxtani ip shakliga kelguniga qadar qanday ishlarni bajaradi? Bu ish jarayoni haqida nimalarni tasavvur qildingiz? Fikr-mulohazalaringizni do'stlaringiz bilan bo'lishing.

6. Siz gul bosuvchining o'rnida bo'lganingizda qanday ranglardan foydalangan bo'lardingiz? Matoga qanday shakl berardingiz?

7. Paxtadan olingan bir dona chigitdan tikuvchi xola qarg'aga nima uchun ko'ylak tikib berolmagani sababini tushuntirib bering?

8. Bu ertak mazmunidan qanday haqiqatni angladingiz?

9. Asarga siz qanday sarlavha qo'ygan bo'lardingiz? Nima uchun ertakni shunday nomlaganingizni asoslab bering.

10. Shu shoshqaloq qarg'a bilan o'zingiz yangi ertak to'qing.

Suhbat asnosida o'quvchilarning hammasi barcha savollarga javob berishlari shart emas. O'quvchilar bilganlaricha javob berishga imkoniyat yaratiladi, xolos. Eng muhimi, shu savollar



bolalarning tafakkuriga o‘rnashganligi, vaqti-vaqti bilan ularni bezovta qilishi mumkinligi muhimdir.

Shuni inobatga olish joizki, ushbu metod har doim, hamma sinflarda samarali natijani beravermaydi. Buning uchun o‘qituvchining o‘zi mantiqiy fikrlash tushunchasi bilan batafsil tanishishi, o‘z ustida mehnat qilishi, seminarlarda, hamkasblari darslarida qatnashishi kerak. Muhimi, o‘qituvchi o‘zi dars jarayonida qo‘llayotgan metodning nima ekanligini va nima uchun qo‘llayotganini yaxshi tushunsagina samarali bo‘ladi. Barcha interfaol metodlar darslarni rang-barang qilish, darslarni o‘zi uchun qiziqarli qilish uchun emas, balki o‘quvchini bilish jarayoniga yaqinlashtirish, o‘yin texnikasidan foydalanish, sinfda guruh bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish, faoliyatni tez-tez o‘zgartirishdan zavq olish uchun mo‘ljallangan. Boshlang‘ich adabiy ta’limda o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga o‘rgatish ta’lim sifatini oshishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, inson mantiqiy fikrlaganda narsa va hodisalarning boshqalar tomonidan kashf etilgan jihatlarini bilib oladi. Ayni zamonda, mantiqiy fikrlanganda dunyo hodisalari, hayotiy yoki badiiy vaziyatlar mohiyatini o‘zgalarnikiga o‘xshamagan yo‘sinda, o‘ziga xos yo‘l bilan anglaydi. Insonning mantiqiy mulohaza yuritishi, o‘z fikrini aytishi hamda unga o‘zgalarni ishontirishi uchun unda shunga xos va mos mantiqiy asoslar bo‘lishi kerak. Bundan ko‘rinib turibdiki, har qanday insonning mustaqil fikri mantiqiy asoslarga quriladi. Mantiqiy asossiz mustaqil fikr va munosabat bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 29-dekabr. - <https://president.uz/uz/lists/viyew/4057>
2. Xudoynazarov E. M., Yarmetov J. R. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlar. O‘quv qo‘llanma – T: Nodirabegim, 2021. – 182 b.
3. Зак А. З. Развитие теоретического мышления у младших школьников. — Москва: Педагогика, 1984. – 151 с.
4. Husanboyeva Q. va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. Darslik. – T.: “Innovatsiya - Ziyo”, 2020. – 380 b.
5. Toirov M. E. O‘qish savodxonligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. I qism. – T.: “Novda Edutainment”, 2023. – 80 b.



SHE'R – KO'NGIL OZUQASI



**ABDUNABI BOYQO'ZIYEV
SHE'RIYATIDAN**

Onajon

Toshlar taskin berar tog'lar g'amiga,
Tomchi yosh taskindir ko'zlar namiga.
G'amlaring taskindir g'amlar g'amiga,
Bir toshcha bo'lmagan bolangman, Ona!

Uyni mehmon bossa, so'zing quvnaydi,
O'choqda qozoning – tuzing quvnaydi.
Qizim gina qilsa, ko'zing quvnaydi,
Qizimcha bo'lmagan bolangman, Ona!

Ertak aytib erka shoir bo'l, deding,
Er yigitsan elga doir bo'l, deding.
Muhabbatda Majnun, Toyir bo'l, deding,
Bo'lmagan, bo'lolmagan bolangman, Ona!

Garchi ko'ngling ko'pda kulfatxonadir,
Ko'pga kelgan kulfatni-da oladir.
Yurt kulfatin o'z ichiga soladir



Ko'ngling ololmagan bolangman, Ona!

Tosh ham taskin berar tog'lar g'amiga,
Bir toshcha bo'lmagan bolangman, Ona!

Onam yashagan uylar

Sen yashagan hovlilarga
borolmayman, onajon.
Borsam yayrab borligingday
kirolmayman, onajon.

Sen baxsh etgan bu bag'irning
bag'rida toshlar sindi.
U toshlarga boshim urib
yorolmayman, onajon.

U uylarda endi bizga
mushukchalik yo'q qadr.
Bir ko'rpacha to'shalguncha
yuz iddao, ming sadr.
U go'shaning to'shaklari
nahot, shuncha yupqadir.
Yupqalashib ketdimmi yo
bilolmayman, onajon.

Borsam, bolam, keldingmi deb,
boringni to'kkuvchiyding.
Bo'ylaringa zor ohu
zoringni to'kkuvchiyding.

Peshonamni siypab, o'pib
ming bor o'rgilguvchiyding.
O'rgilay deb borsam, endi
topolmayman, onajon!



Sen yashagan hovlilarga
borolmayman, onajon.
Borsam, yayrab, borligingday
yurolmayman, onajon!

Neki yozdim...

Neki yozdim,
Ko'nglimni yozdim,
Ko'ngillarni ko'nglimga yozdim.
Kel, ko'nglingni o'qi ko'nglimdan,
Neki bo'lsa ko'ngildan yozdim.

Hech yo'q

Qandayin tushingga kirdim, bilmadim,
Nahot baxt gulining bo'lsa armoni.
Demak, tushlaringga bejiz kirmadim,
Demak, senga hanuz zorman, armonim.

Sog'inch so'qmoqlari... Tikonlar undi,
Bo'zsuv bo'ylarida bo'zlashlar – xayol.
Umrning bu yog'i bir ohli undir,
Endi unsiz-unsiz izlashlar – xayol.

Qani, u damlarga qaytolsak, qani,
Xato qildim, xato qildim, diloyim.
Bag'ringni bir umr band etdi g'anim,
Hech yo'q tushlaringga kirib turayin...

Hech yo'q tushlaringda ... ko'rib turayin (120)





Oh tortsam

Maylimi,
Bir bora oh tortib olsam,
Bir bor visolingga boqsam mung'arib.
Xayolan ismingdan bo'salar olsam,
Xayolan qoshingda tursam gungranib?

Maylimi, so'zingdan tuysam rohatlar,
Bahmal ohanglarda yayrasam yona.
Yo'q dema, yo'q dema, yo'q dema, dilbar,
Dilimda dil bor deb, qilma bahona.

Dilbarim, dil bari faqat sendami,
Yo faqat mendami tamomi zorlik?
Tikilsam chiroying qolarmi kamib,
Ozayib qolarmi menda nisorlik?!

Maylimi, goho oh tortib yuborsam?..

Tun, azizim...

Quyosh shomda erib bitdi,
Ikkov tanho qoldik yana, Tun.
Dil rozlarin to'shamoq uchun
Seni uzoq, umrzoq kutdim.

Tun, azizim, og'ushimga kir,
Shivirlagil dudoqlarimga.
So'ng, o'zingni ko'nghimga yashir,
Va... aylangil dildog'larimga.

Kel, o'zingni ko'nghimga yashir... (109)





Ko'nglim

O'ksib-o'ksib ko'ngil ko'ngli ol bo'lgan,
Ko'ngling ololmadim, o'ksima, ko'nglim.
Ko'ngil ko'chasida qaddi dol bo'lgan
Zoru zor ko'ngildma ko'nglingda, gulim.

Gulim, zoru zoring xoru zor qilma,
Ol, ul zor kznglini, ol-u, zor qilma.
Olu ol uzorinda lolalar undi,
Lolalar bag'rini volazor qilma.

Ko'ngling ololmadim, o'ksima, ko'nglim...

Degulim bor

Gulim,
Senga degulim bor, degulim:
Hech yo'q bir bor seningman de, de, gulim.
Seningman deb... kelmasang ham mayliga,
Yashayman-ku, bor-ku deb, senday gulim! (12)

Dalda

Menga suyan,
Hilviroq maysa,
Suyanaver, axir... do'stmiz-ku.
Holingda ahvolim muztarligi bor,
Tiklanamiz, Quyosh... porlasa.

Qadding ko'tar,
Jigarim – maysa,
Bulduruqlar nima bo'libdi.
Jonlanamiz, nurlar ko'paysa,
Qirovlarni dog'da qoldirib.



Tiklanamiz, Xudo xohlasa,
Tik yonamiz, Xudo xohlasa!..

Qish kuni

Oq qayinning ozg'in shoxiga,
Yastanib yotib oldi qor.
Gul ham to'ydi bulbul ohiga,
Uxlar, boshda oq angor ro'mol.

Suvdan qolgan qumariq yana
Yotar yalpiz bo'ylarin qumsab.
Shamol tomning manglayin silar,
Oqqor sochin to'zg'itar tarab.

Beshnavolar

Olaparni
Ostonada
Tulporni
Xosxonada
Savdolashadilar.

Ko'zlaringga
Tikil
Ko'zlarim-la,
Ko'zlaringni
Ko'rasan.

* * *

Muhabbatning
Ko'chalariga
Devonavor
Kirgiz
Xudoyim!

* * *

Yuragim
Bezovta
Yuragingga
Birov
kirdi-yov!



ONA TILI – MILLAT RUHI

ONA TILI TA'LIMIDA GRAMMATIKAGA DOIR O'QUV MATERIALLARINI O'QITISH: MUAMMO VA YECHIMLAR



G'ofir HAMROYEV

TAFU professori.

el-manzil: hamroyevgofirr@gmail.com

Annotasiya. *Maqolada ona tili ta'limida grammatik bilimlarni qanday o'rgatish, qancha o'rgatish, nazariy ma'lumotlar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish masalasi muhokama qilingan va unda muammoga yechim sifatida "O'zbek tili o'quv grammatikasi"ni yaratish taklif qilingan. Shuningdek, grammatik ma'lumotlar asosida o'quvchilarda shakllanagan bilim, ko'nikma va malakalarni baholovchi topshiriqlar, jumladan, testlar berish mexanizmi haqida bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *grammatizm, zarur grammatika, o'quv topshiriqlari, o'quv grammatika, test topshiriqlari, baholash, bilim, ko'nikma va malaka.*

Har bir millat o'zi ona tilining grammatikasini zaruriyat darajasida o'rganishi lozim. Grammatik ma'lumotlar, qonuniyatlar o'quvchini tizimli tafakkur qilishga o'rgatadi. Nazariy ma'lumotlarni nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga yo'naltirish mumkin. N.Mahmudovning quyidagi fikrlari ayniqsa diqqatga sazovor: "har qanday til ta'limida tilning uslublari haqidagi bilimlarni chetlab o'tish mumkin emas. Tilni o'zlashtirishda til qurilishini bilish shart, bu boradagi bilimlar asosdir. Ammo ayni qurilish birliklaridan qanday foydalanish,



ularni nutqda bevosita qanday qo'llash malakasi shakllanmagan bo'lsa, tilni bilishni tugal deyish mushkul"[1].

Darhaqiqat, ona tili, milliy so'zlar aqliy rivojlanish hamda dunyoni anglashning asosidir. O'quvchi nutqining o'z vaqtida rivojlanishiga g'amxo'rlik qilish, savodxonligiga e'tibor berish juda muhimdir. O'quvchining nutqi qanchalik boy va mantiqli bo'lsa, uning o'z fikrlarini ifodalashi shunchalik oson kechadi, olamni, borliqni anglash qobiliyati qanchalik keng bo'lsa, o'quvchilar turli nutq vaziyatlarida tengdoshlar yoki kattalar bilan mazmunli va to'laqonli muloqotga kirisha oladi, tafakkuri ham shunchalik faol rivojlanishda bo'ladi.

Til nazariyasining asoschisi bo'lgan V. Gumbolt XIX asrdayoq "til – millat ruhi" deb aytgan edi[2].

F. I. Buslaev shunday yozadi: "birinchi va eng muhimi, nutq shakllari bilan ifodalanadigan narsalarni tushunish va ularni to'g'ri yo'l bilan ishlatishdan iborat amaliy qobiliyatni rivojlantirishdir, ya'ni o'qimishli odamlar aytganidek, og'zaki va yozma mashqlar orqali o'quvchida suhbat va yozuvga xos nutq shakllarini osonlik bilan tushunish ko'nikmasini hosil qilamiz" . "Asrlar davomida insoniyat tomonidan to'plangan barcha til ilmini o'rta maktab o'quvchisiga o'rgatishning iloji va zarurati yo'q. Demak, ona tilidan eng zarur bilimlarni tanlash asosiy masalalardan biridir.

Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz ona tilidan foydali bilimlar deb bolalarning savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish uchun xizmat qiladigan, uni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash va rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz"[3]. Bunda o'quv topshiriqlar ta'lim mazmunini yuzaga chiqaruvchi muhim omil hisoblanadi.

Ma'lumki, til ta'limida savol – mashq – topshiriq turlaridan iborat o'quv topshiriqlari qo'llaniladi. O'quv topshiriqlari, avvalo, ona tili ta'limining maqsadi, vazifalari va mazmuniga bevosita bog'liq, o'quvchini fikrlashga, o'quv material ustida mustaqil ishlay



olishga, zarur nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishga qaratiladi. Afsuski, bugungi kungacha ona tili ta'limida o'quv topshiriqlariga o'qitish metodikasining asosi, ta'lim mazmunini yuzaga chiqaruvchi muhim omil sifatida qaralmadi. Ona tili darslarida ta'lim mazmunining asosi sifatida grammatik qoidalar tushunib kelindi, o'quv topshiriqlariga esa ushbu qoidalarni o'zlashtirishda foydalaniluvchi vosita sifatida qaraladi.

Ona tili – xalqining ruhi bo'lib, ona tilini o'rgatish, avvalo, bolaning tug'ma aqliy qobiliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi, ikkinchidan, o'quvchilarni ona tili xazinalarini ongli egallashga olib keladi, uchinchidan, bolalar bu tilning mantig'ini o'rganishlari kerak. Bu maqsad va vazifalarga birin-ketin emas, balki baravar erishish borish lozim. Bunda o'quv topshiriqlari asosiy vazifani bajaradi.

Zamonaviy ona tili ta'limida matn ustida ishlash orqali nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish Markaziy masala bo'lib turgan ekan, bunda o'quvchini matn mazmunini anglash va boshqa nutqiy jarayonlarga tayyorlash o'quv topshiriqlari zimmasida bo'ladi.

Ona tili ta'limini bosqichma-bosqich isloh qilish jarayonida, ta'kidlash kerakki, ona tili ta'limi maqsadini, mazmunini, ulardan kelib chiqadigan o'quv-biluv topshiriqlarini ishlab chiqish borasida mustaqillikning dastlabki yillarida tizimli tadqiqotlar olib borildi.

Bugun ona tili o'qitish metodikasida ikki xil tendentsiya ketmoqda. Birinchisi uzoq yillar chuqur lingvistik bilimlar soyasida qolib kelgan nutqiy ko'nikma va malakalarni zamonaviy usullar orqali rivojlantirish masalasi bo'lsa, ikkinchisi – nutqiy kompetentsiyani hosil qilishda asos vazifasini o'tayotgan nutqiy mavzular soyasida qolayotgan grammatik bilimlarni darslik va qo'llanmalarda qanday berish muammosi. O'zi nutqiy kompetentsiyani rivojlantirish, o'quvchini muloqot jarayonlariga tayyorlashda grammatik bilimlarga qanchalik ehtiyoj bor?

Ona tilida fikr ifodalash uchun yozma nutqda ayrim grammatik bilimlar juda zarur, besh yoshli bola ham o'z ona tilida grammatik bilimlarsiz bema'lol gapira oladi, ammo yoza olmaydi, buning uchun



muayyan tayyorgarlik zarur. Imlo qoidalarini, tinish belgi va soʻz tanlash qoidalarini oʻzlashtirish kerak boʻladi. Matnni tinglab tushunish, oʻqib tushunish, nutq soʻzlash va yozish koʻnikmalarini rivojlantirishda ham ayrim nazariy maʼlumotlarga ish beradi. Ammo bu grammatikani tizimli oʻqitmaslik kerak degan maʼnoni anglatmaydi.

Grammatika oʻquvchiga kamida biror chet tilini oʻrganishda asqotadi. Har bir fan muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Ona tili, albatta, grammatik qonuniyatlarga tayanadi. Masalan, oʻquvchi yozma nutqi talab darjasida boʻlishi uchun imlo qoidalarini chuqur bilishi kerak.

Imlo qoidalarida shunday band mavjud: "-ikkala qismi ham turdosh otlardan iborat qoʻshma soʻzlar qoʻshib yoziladi". Bu qonuniyatni tushunish uchun oʻquvchi, albatta, otning maʼno turlarini bilishi kerak. Yoki tinish belgilarini toʻgʻri qoʻllashni oʻrganishi uchun ham maʼlum qonuniyatlarni bilishi talab etiladi. Masalan, eng koʻp ishlatiladigan vergulni oʻrinli qoʻllash uchun oʻquvchi kiritma, undalma, uyushiq boʻlak, umumlashtiruvchi soʻz, ot kesim, ega, ajratilgan izoh boʻlak kabilar haqidagi lingvistik bilimlarni yaxshi oʻzlashtirishi shart, aks holda u imlo va tinish belgi qoidalarini etarli oʻzlashtira olmaydi. Natijada yozma nutq talab darajasida boʻlmaydi.

Biz nutq uchun zarur grammatikani oʻrgatish tarafdorimiz, yuqoridagi misollardan anglab turibsizki, grammatik bilimlarni, til qonuniyatlarini, imlo va talaffuz, tinish belgi qoidalarini qaysi matn taqozo qilsa shu yerda berib ketish oʻzini oqlamaydi, maqsadga muvofiq boʻlmaydi.

Har bir narsa muayyan sistemaga ega. Yaʼni bir birini taqozo qiluvchi elementlar majmuasi. Jumladan, til ham, til oʻrgatish ham xuddi shunday sistemaga asoslanadi. Til sathlarini minimum darajada tizimli oʻqitish -- imlo va ogʻzaki nutq meʼyorlarini oʻrganishga olib keladi. Bu oʻrinda qoidalar zanjirini uzmaslik kerak.

Yangi yondashuvlarda matn bilan ishlash, nutqiy mavzularlarga asoslanish, matlar va mavzular rangbarangligi oʻzini



oqlaydi, biroq til qonuniyatlari bilan hisoblashmay, uni minimum darajada tizimli o'rgatmay savodxon o'quvchini etishtirib bo'lmaydi.

Metodikaning asosi hisoblangan o'quv topshiriqlari tuzish va ular ustida ishlash masalasida ham hamma darsliklarda turli xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Ko'nikma va malaka mashq orqali hosil qilinadi, ayniqsa, talaffuz va imlo ko'nikmalari. Shunga qaramay "ona tili" darsliklarida takrorga asoslangan talaffuz va imlo mashqlari etarli berilmay kelinmoqda. Oqibatda o'quvchilar o'zbek tilining o'ziga xos tovushlarini umrniing oxirigacha ham to'g'ri ayta olmaydi. Ammo negadir o'quvchilar bugun ingliz tilidagi eng murakkab tovushlar va so'zlar talaffuzini inglizlar darajasida o'rganib olmoqda. Afsuski, o'quvchisidan o'qituvchisigacha o'zbek tilida [h] va [x], [o'] va [u], [i] va [e] tovushlarini talaffuzda, imloda faqlamaydi. Bunda talaffuz mashqlaring ahamiyati katta. Buni qaysi fan o'rgatadi, albatta, ona tili fani. Bu ham grammatik bilimlarga bevosita bog'liq.

Xalqimizda andishaning oti qo'rqqoq degan tushuncha bor. Dasturlar, fanga doir bo'lgan Dtsilar ishlab chiqilayotganda hamma o'z fikrini aytib, jiddiy muhokamalar qilinadi. Biz ona tili ta'limi mazmunini yangilashni maqsad qildik. Negadir ona tili va adabiyot sohasi mutaxassislaring bir yoqadan bosh chiqarishi, bir to'xtamga kelishi qiyin. O'rni kelganda aytmoqchiman, ona tili o'quv fanining o'z vazifalari bor: ona tili tovushlarini to'g'ri ayta olish, so'zlarning lug'aviy, etimologik ma'nolarini bilish, to'g'ri yoza olish, zaruriy grammatik bilimlarni egallash yo'lidan borish lozim. Bular o'quvchilarda matn ustida ishlash orqali tinglab tushunish, o'qib tushunish, nutq so'zlash va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Matn bilan ishlash, matnni tushunish uchun taqdim qilinayotgan o'quv topshiriqlar sirasida ham davomli ravishda to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z ma'nolarini izohlash, grammatik bilimlarni sinab ko'rish bo'yicha savol va topshiriqlar 50/50 bo'lishi kerak. Faqat keltirilgan matn mazmunini anglash bo'yicha savol berish etarli bo'lmaydi.



Afsuski, biz hali milliy metodikani yaratib bo'lganmiz yo'q, ayrim yondashuvlarimiz tajriba-sinov jarayonida. Hozir bir xulosaga kelib olishning ayni vaqti. Ona tili grammatika asosida bo'ladimi, uni grammatika orqali o'rgatimizmi, yo grammatikasiz o'qitamizmi?

Darsliklar ko'p komponentli bo'lsa, ya'ni u har bir sinf uchun matnlar, nutqiy mavzularga asoslangan nutqiy kompetentsiyani rivojlantiruvchi Level (malaka darajasi) lardan iborat (nomi balki ona tili bo'lmas) darslik, 5–11-sinflar uchun "O'zbek tili o'quv grammatikasi", mashqlar to'plami, o'quv lug'atlari to'plami, shuningdek, o'qituvchi kitobi kabi kompleksdan iborat bo'lish kerak. Shunda bugungi bahs munozaralar o'z yechimini topishi mumkin. Zero, o'quv grammatikada qoidalar tizimli ketma-ket beriladi. Uning o'z mashq va topshiriqlari bo'ladi, o'sha Level (malaka darajasi) darsliklarining nutqiy mavzulari grammatika kitobining tegishli mavzusiga topshiriqlar orqali bog'lanadi. Orfoepik, orfografik, izohli, etimologik o'quv lug'atlari bilan ishlash uchun ham o'quv topshiriqlari tizimli berib boriladi.

Bunday grammatika darsligi tarkibida o'quvchilar bilimini, nutqiy ko'nikma va malakasini baholay oladigan o'quv topshiriqlari, maxsus test topshiriqlari ham bo'lishi zarur.

Ko'nikma va malakani sinaydigan test topshiriqlari pragmatik yondashuvga asoslanib quyidagicha tuzilsa, maqsadga muvofiqdir, chunki bu bilan bog'liq ma'lumotlarni yozma va og'zaki nutq uchun har bir kishi bilishi lozim, har kun o'z hayotida qo'llashi, u bilan bog'liq muammoga duch kelishi mumkin:

1. Qaysi qatorda ko'plik qo'shimchasi ortiqcha?

A) paxtalar qiyg'os ochilgan.

B) ikki yuz tup ko'chatlar keltirildi.

S) husningizdan oylar xijolat.

D) yangi hovliga ko'chatlar keltirildi.

2. (–) tire qanday holatda qo'yiladi?

A) juft va takroriy so'zlar orasiga.

B) ega va kesim o'rtasiga izohlash, o'xshatish, tenglik ma'nosida.



S) tartib ma'nosini ifodalash uchun sanoq sonlardan keyin.

D) ayrim yuklamalar bilan birga qo'llaniladi.

3. Qaysi o'rinda qaratqich kelishigi qo'llanilishi kerak?

A) ukamni kitobi topildi.

B) do'stimni ko'rgani bordik.

C) meni oilam kutib turibdi.

D) buning meni hurmat qilmaydi.

Bu kabi topshiriqlar o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi, sinab ko'radi. Testlar to'plamidan qayta-qayta shunday topshiriqlarni bajarish orqali to'g'ri yozish ko'nikmalari rivojlanib boradi. Bunday ko'nikmalar har bir kishi uchun zarur. Orfografiya, orfoepiya, punktuasiya va leksika bo'limlarini barcha mavzularga bog'lash mumkin va bu nutqiy kompetentsiyaning shakllanishiga olib keladi. Grammatik minimum aniqlanib olishi kerak. Grammatika deganda nazariyalar to'plamini emas, savodxonlik asoslarini tushunsak, etakchi va ko'makchi morfema, nomustaqil va mustaqil to'ldiruvchi, sintaktik shakl yasovchi, moslashuv, bitishuv va boshqaruvli so'z birikmalari kabi maktab o'quvchisiga mutloqo kerak bo'lmagan bir qancha ma'lumotlar mavjud. Undan ko'ra zamonaviy tilshunoslik – kompyuter, korpus lingvistikasi bilan shug'ullanish foydalibroq, chunki fizikada nazariyani nazariyaga urushtirsa, bir foydali buyum hosil bo'ladi, farmasevtikada bir dori yaraladi, tilshunoslikda qoidalarni to'qishtirib odamlarga foydali biror nima ishlab chiqib bo'lmayapti-ku. Bu bo'yicha qilinadigan ishlar kamida 50 yil oldin bajarib bo'lingan. Imkoni bo'lsa, til bilan adabiyotni qo'shib o'qitish kerak.

Asalida o'quv testi – ta'lim mazmunining ma'lum tomonlari (qismlari) ni o'zlashtirish darajasi (darajasi) ni aniqlash (o'lchash) ga yo'naltirilgan topshiriqlar majmuasi.

Testlar to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak:

– nisbatan qisqa muddatli, ya'ni ko'p vaqt talab qilmaydi;

– aniq, ya'ni sinov vazifasini o'zboshimchalik bilan talqin qilishga yo'l qo'ymasdan;

– to'g'ri, ya'ni ko'p qimmatli javoblarni shakllantirish imkoniyatini istisno qilgan holda;



- nisbatan qisqa, ixcham javob talab qiluvchi;
- axborot, ya'ni sinov uchun miqdoriy baholashni o'lchashlarning tartib yoki hatto oraliq o'lchovlari bilan bog'lash qobiliyatini ta'minlaydigan;
- qulay, ya'ni natijalarni tez matematik qayta ishlash uchun mos;
- standart, ya'ni keng amaliy foydalanish uchun mos.
- Agar ona tili ta'limida testlarni tasniflash shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish va shakllantirishning turli jihatlari (tarkibiy qismlari) ga asoslansa, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

1. Umumiy aqliy qobiliyatlar, bilimni rivojlantirish testlari.
2. Faoliyatning turli sohalarida maxsus qobiliyatlar testlari.
3. Trening sinovlari, akademik ishlash va ilmiy yutuqlar.
4. Shaxsning o'ziga xos sifatlari (xislatlari) ni aniqlash uchun testlar (xotira, fikrlash, xarakter va boshqalar.).
5. Ta'lim darajasini aniqlash uchun testlar (umuminsoniy, axloqiy, ijtimoiy va boshqa sifatlarni shakllantirish).

Ayrim testlardan foydalanish eng samarali bo'ladi va boshqa barcha test guruhlari bilan to'g'ri birlashgandagina ishonchli xulosalar beradi. Ta'limning diagnostik testlarining eng muhim mezonlari-samaradorlik (haqiqiylik, ahamiyatlilik), ishonchlilik (ehtimollik, to'g'rilik) va differentsiasiya (farqlilik).

O'quv testlari didaktik jarayonning barcha bosqichlarida qo'llaniladi. Ular bilim, ko'nikma, akademik ishlash va ilmiy yutuqlarni dastlabki, joriy, tematik va yakuniy nazorat qilishni samarali ta'minlaydilar.

Sinovlarni texnik qo'llab-quvvatlash uchun ikkita katta guruhga bo'lingan maxsus vositalardan foydalaniladi. Birinchi toifaga alohida tekshirish uchun qurilmalar kiradi – har xil turdagi punch kartalar, matrisalar, buxgalteriya kartalari va boshqalar. Ikkinchi guruhli nazorat vositalari – dasturlashtirilgan o'qitish g'oyalarini amalga oshiruvchi avtomatlashtirilgan sinflar (nazorat va o'quv majmualari) dan iborat. Bilish jarayonini samarali boshqarish va ta'limni tizimli sinovdan o'tkazish (operativ qayta aloqa bilan ta'minlash) uyg'unligi didaktik jarayon sifatini sezilarli

darajada yaxshilaydi. Zamonaviy kompyuterlar mukammal diagnostik testlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Test tekshiruvining afzalligi shundaki, butun sinf bir vaqtning o'zida band va samarali bo'lib, bir necha daqiqada barcha o'quvchilarning mashg'ulotlarining kesimini olishingiz mumkin. Bu esa ularni har bir darsga tayyorgarlik ko'rishga va tizimli ishlashga majbur qiladi.

Test boshqa (an'anaviy) tekshirish usullari va shakllari bilan birlashtirilishi kerak.

Bilim, ko'nikma va malakalarni baholash ostida didaktika o'quv dasturida bayon etilgan ma'lumotnoma tushunchalari bilan o'quvchilar erishgan malaka darajasini taqqoslash jarayonini nazarda tutadi. Jarayon sifatida bilim, ko'nikma va malakalarni baholash ikkinchisini nazorat qilish (tekshirish) davomida amalga oshiriladi. Baholashning miqdoriy o'lchovi "belgi" deb ataladi va ballarda ifodalanadi.

Umuman olganda, bitta darslikka ikkita tizimni berib bo'lmaydi, biriga urg'u berilsa, ikkinchisi ortda qoladi. Xorijiy tajribani o'zlashtirganda, tatbiq etganda barcha qismlarni to'liq olgan ma'qul. Ingliz tili o'qitish metodikasi ilg'or bo'lsa, ularda ingliz tili grammatikasi kitobi o'quv topshiriqlari bilan birga alohida beriladi. Shu amaliyotni ham qo'llash foydalan xoli emas. Darsliklar "topik" lar – matlar bilan ishlash orqali nutqiy malakalarni rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. O'quvchi o'quv grammatikasi kitobidan nazariy ma'lumotlarni ham baravar o'rganib borishga imkoniyat bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудов Н. Тил таълими ва стилистика // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2009. – 1-сон. – 3-9-б.
2. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 301-302.
3. Буслаев Ф. И. О преподавании отечественного языка. 2-е изд. – М., 1867. (переизд.: Л., 1941).
4. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. Ўқитувчилар учун методик кўлланма. – Т.: Ўқитувчи. 1996. – 193 б.
5. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

MUMTOZ ADABIYOT – MA’NAVIYAT OMILI

MUMTOZ SHE’RIYATDA MA’NO QATLAMLILIK



Valijon QODIROV

AndDPI professori.

El-manzil: vqodirov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada qatlamlilik mavjud bo‘lgan asarlarda ma’no asosan ikki qatlamda namoyon bo‘lishi: a) zohiriy – yuzaga qalqib turgan ma’no. Uni badiiy saviyasi, tayyorgarlik darajasi turlicha bo‘lgan kitobxonlar tushunishi, idrok etishi mumkinligi; b) botiniy – tushunishda ma’lum tayyorgarlik talab etiladigan asarning tag ma’nosi. Bu ma’no zohiriy mazmundan kam qimmatga ega bo‘lmagan, ba’zan esa asarning g‘oyaviy, mazmuniy mag‘zini, ijodkor badiiy niyatini o‘zida aks ettirgan bo‘lishi borasida so‘z yuritiladi. Bu ikki tushunchaning mohiyati ochiladi.

Kalit so‘zlar: mumtoz she’hiyat, tadqiqot, ma’no qatlamlilik, tuyuq, fard, g‘azal, tadqiq etish, zohiriy va botininy ma’no, g‘oyaviy mazmun, badiiy niyat.

Ko’hna Sharq jahon adabiyotiga o’nlab daho so‘z ustalarini yetkazib berdi. Ularning ijodiga doimo uzoq va yaqin xorijda ham qiziqish katta bo‘lgan. Shuning uchun Sharq adiblari asarlari o‘z yurtida bo‘lgani kabi chetda ham qizg’in tadqiqot ob’yekti bo‘lib kelmoqda.



Klassiklarimiz ijodi aksar hollarda muayyan adabiy turlar, janrlar bo'yicha, shuningdek, u yoki bu asarlari alohida olingan holda o'rganib kelindi. Bu taxlit kuzatishlar albatta o'rganishning birlamchi bosqichlarida o'rinli hamda muhim sanaladi. Zarra bir nur quyoshga, qatra ummonga ishora qilinganidek, kichik hajmli janrdagi asar ham muallifining ijodiy o'ziga xosligiga dalolat qila oladi. Lekin buyuk adabiy siymolarning merosini butun bo'y-basti bilan ko'rish, asarlarning badiiy va g'oyaviy mohiyatini chuqur va teran anglash, boshqalardan ajralib turuvchi o'ziga xos badiiy olamini yaxlit tasavvur qilish, tushunish uchun barcha yozmishlarini yagona bir tizim (sistema) sifatida tadqiq etish lozim bo'ladi.

Muallifning yaxlit bir butunlik bo'lgan ijodi ichidagi fard, qit'a g'azallaridan tortib yirik epik asarlari bir-birini to'ldiradi, izohlaydi, mazmuniy, g'oyaviy hamda badiiy jihatdan rivojlantiradi.

Mumtoz Sharq adabiyoti namoyondalari ijodini shu nuqtai nazardan o'rganish murakkab, ayni paytda o'ta qiziqarli hamdir. Chunki Sharq she'riyati uchun hali ilmda yaxshi o'rganilmagan ma'no qatlamlilik xos bo'lib, yaxlit bir tizim (sistema) sifatida o'rganilgan ijod ma'no qatlamlarining har birida o'ziga xos yangi badiiy olam sifatida qayta inkishof etishni talab qiladi. Avvalo bu ma'no qatlamlari qay tarzda vujudga keladi, ularning chegarasini qanday belgilash mumkin kabi savollarga javob berishga to'g'ri keladi.

Mana, o'ttiz yildan ortiq vaqt o'tdiki, mumtoz adabiyotimiz, asosan, she'riyatda zohiriy va botiniy ma'no mavjudligi to'g'risida gapirilmoqda. U yoki bu shoirlar ijodini tadqiq etishda, she'rlarini tahlil qilishda bu ikki ma'no tomoniga diqqat qilinmoqda. Aynan shu narsa badiiy asarning ma'no qatlamliligidir. Bizningcha ham, qatlamlilik mavjud bo'lgan asarlarda ma'no asosan ikki qatlamda namoyon bo'ladi: a) zohiriy – yuzaga qalqib turgan ma'no. Uni badiiy saviyasi, tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lgan kitobxonlar tushunishi, idrok etishi mumkin; b) botiniy – tushunishda ma'lum tayyorgarlik talab etiladigan asarning tag ma'nosi. Bu ma'no zohiriy mazmundan kam qimmatga ega bo'lmagan, ba'zan esa asarning



g'oyaviy, mazmuniy mag'zini, ijodkor badiiy niyatini o'zida aks ettirgan bo'ladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilayotgan, mumtoz she'riyatning muhim belgilaridan biri bo'lgan ma'no qatlamlilik hodisasi ilmiy mukammal o'rganilmaganligi uchun uni tushunish va talqin qilishda chalkashliklarga, ba'zan jo'nlikka yo'l qo'yilmoqda. Avvalo chalkashlik haqida. Adabiyotshunos I. Haqqulov Ahmad Yassaviy hikmatlariga yozgan so'zboshi maqolasida she'riyatda polifoniya to'g'risida yozarkan: "Necha asrlik adabiyotimiz uchun yangilik emas. Polifoniya – ko'pohangli, ko'pma'noli degani... O'zbek adabiyotida polifonik tafakkur Ahmad Yassaviydan boshlanib, Navoiy poeziyasida yuksak bosqichga ko'tarilgan..." kabi fikrlarni bildirgan[3, 23-b.]. Polifoniya nazariyasini Baxtin Dostoevskiy asar(roman)lari orqali kashf etgan bo'lib, unga ko'ra polifoniya epik asarlarga xosdir. Bu nazariyani o'zbek adabiyotshunosligida noto'g'ri tushunilishini tanqid qilgan M. Olimov ta'biri bilan aytganda: "...romanda muallif o'z qahramonlarini yuksak bir obyektivlik bilan tasvirlash barobarida barcha qahramonlariga va barcha qahramonlari o'zaro bir-biriga subyektiv munosabatini ham shekspirona ehtiros bilan namoyon etadi"[2, 29-b.]. Bu fikrlardan kelib chiqsak, I. Haqqulov qarashlariga nisbatan e'tiroz tug'ilishi tabiiy bo'lib qoladi. Birinchidan, she'riyatda, ayniqsa, mumtoz she'riyatda shoir (lirik qahramon)ning boshqa obrazlarga obyektiv munosabati ko'rinmaydi. She'riyat subyektiv munosabat mahsulidir. Undagi har bir obrazga, voqelikka muallifning oldindan munosabati, fikri shakllangan bo'ladi. Ikkinchidan, "qahramonlarning o'zaro bir-birlariga subyektiv munosabati" kuzatilsa ham, ular o'y-fikr tahlilidan iborat bo'lmay, oldindan belgilab qo'yilgan, doimiy va qat'iy, shuningdek, shakliy munosabat tarzida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, olim polifoniyani u yoki bu bir hikmatda, she'rlardagi muayyan obrazlarning o'zaro munosabatida emas, balki Yassaviyning turli hikmatlarida talqin etilgan bir necha obrazga xos bo'lgan xarakter xususiyatlarida ko'radi. Agar shu taxlit tushunilsa, dunyoda polifonik bo'lmagan shoirning o'zi qolmaydi. Shuning



uchun polifoniya nazariyasini she'riyatga, xususan, mumtoz Sharq she'riyatiga tatbiq qilib bo'lmaydi.

Endi qatlamlilikni tushunishdagi jo'nlik to'g'risida. Bu shundan iboratki, mumtoz she'rlarni zohiriy va botiniy jihatdan tahlillashda ilmiy asoslab-asoslamay ularni bir qolipda, bir mazmunda talqin qilinmoqda. Aksariyat maqola va tadqiqatlarni o'qisangiz, obrazlar asosan quyidagicha tushuntiriladi: Yor – zohiriy ma'noga ko'ra inson (ayol), botiniy ma'noga ko'ra Ollohdur. Oshiq –zohiriy ma'noga ko'ra inson (er kishi), botiniy ma'noga ko'ra so'fiy. Lekin nima uchun aynan shu she'rda Yor Olloh ma'nosida tushunilishi kerak? Unga ishora qiladigan aniq belgilar bormi? Balki shoir faqat insonni, ya'ni zohiriy ma'nonigina nazarda tutgandir? kabi savollar ko'pincha ochiq qoladi. Ba'zi tahlillarda esa g'azalning avvalgi baytlardagi zohiriy ma'no keyingi baytlarda botiniy ma'noga almashadi qabilidagi fikrlarni o'qib qolamizki, ular ham umuman asoslanmaydi.

Mumtoz she'riyatda uchta asosiy obraz bor: Ma'shuqa, Oshiq, Raqib. Qolgan obrazlar bularning qay biri atrofida guruhlashadi, ularni to'ldiradi, izohlaydi. Masalan, Yor (ma'shuqa) obrazi atrofida gul, oy, sarv, Layli kabi; Oshiq atrofida parvona, bulbul, Majnun kabi; Raqib atrofida it, tikan singari obraz yoki obraz-detallar guruhlanadi. Lekin bu markaziy obrazlar ichida ham Yor yetakchi mavqe tutadi. Chunki mumtoz she'riyatdagi qat'iy shakllangan munosabatlar, tasvirlar, qo'llanadigan leksik va poetik figuralarning barchasi asosan u bilan bog'liq. Kuzatishimizcha, mumtoz she'riyatni ma'no qatlamiga ajratishda ham Yor obraziga asosiy diqqat qilinmog'i kerak. Oldindan aytib qo'yish kerakki, mumtoz she'riyatdagi hamma asarlar ham ma'no qatlamiga ega emas. Ba'zi she'rlar faqat bir ma'no qatlamiga ega bo'ladi. Bir ma'no qatlamiga ega she'rlarni mazmuniga ko'ra quyidagilarga ajratish mumkin:

a) inson (ayol) go'zalligi madh etilgan yoki unga ko'ngil izhori bayon qilingan she'rlar. Masalan: Atoiyning “Kel, ey dilbar, bo'ston vaqti bo'ldi” g'azali;



b) diniy ma’rifat targ’ib etilgan she’rlar. Masalan: Yassaviyning bir qator hikmatlari, Navoiyning hamd, na’t g’azallari;

v) peyzaj she’rlar. Masalan: Ogahiyning “Navro’z”, “Qish” g’azallari;

g) ijtimoiy-siyosiy she’rlar: Navoiyning “Tuhfatul afkor” qasidasi;

d) hasbi hol she’rlar: Bobur she’rlari, Mujrim Obid masnaviysi.

Ushbu zohiriy ma’nolardan tashqari she’rlarning botinida diniy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa ma’nolarni o’zida jam etgan asarlar ko’p ma’noli, ko’p qatlamli hisoblanadi. Xo’sh, ularning botiniy ma’nosini qanday aniqlash mumkin? Bizningcha, ma’no qatlamlarini ajratishda quyidagi xususiyatlar inobatga olinishi lozim:

a) ijodkor yashagan davrdagi mavjud adabiy an’analar, ya’ni qanday adabiy an’analar ta’siri ostida adibning ijodiy tafakkuri shakllanganligi;

b) ijodkorning shaxsiy hayoti, taqdiri, ya’ni adib sub’ektining u yaratgan asarlar badiiy olamiga ta’siri;

v) mavjud mafkuraviy voqelik, ya’ni adib ijodiy tafakkuri shakllanishiga ta’sir etgan g’oyalar, mafkuralar.

Ushbu fikrlarga tayangan holda misol tariqasida ayrim mumtoz adiblar ijodiga xos bo’lgan ma’no qatlamlilik xususiyati borasidagi kuzatishlarimiz bilan o’rtoqlashamiz.

Avvalo Pahlavon Mahmud ijodiga murojaat qilamiz.

*Uzoqdan qarasam labing purxanda,
Ozod edim, tag’in bo’libman banda.
Ozodlikdan har bir banda erur shod,
Men shodmanki, senga bo’libman banda.*

Bu tarjima she’rning zohiriy ma’nosini sharhlashga hojat yo’q. Unda dil izhori berilgan. Botiniy ma’nosi bor-yo’qligini yuqoridagi fikrlarga tayanib tekshirib ko’ramiz. Avvalo, shoir shaxsiyatiga e’tibor qilamiz.



Pahlavon Mahmud O'rta Osiyoda valiylik siyrati bilan sharaflangan zotdir. Bunday shaxslar hayotini insonlarga diniy ma'rifat tarqatish, Haq ishqini talqin etishga bag'ishlaydilar. Shunga ko'ra she'rining botinida markaziy obraz Yor Olloh ekanligi oydinlashadi. Qolaversa, adibning ijodiy tafakkuri shakllanishidagi bosh omil ham din va tasavvufdir. Ruboiydagi "banda" so'zining takrori ham Yaratganga bandalik targ'ibini ta'kidlab turibdi. Faqat "uzoqdan qarasam", "labing", "puxanda" so'zlarini sharhlash lozim. "Uzoqdan qarasam" birikmasi xalqona ta'bir bo'lib, odatda, "o'ylab ko'rsam", "o'ylab qarasam" ma'nolariga to'g'ri keladi. "Lab" og'iz bilan bog'liq tushuncha. Og'iz esa o'z navbatida til bilan bog'liq. "Til" so'z tushunchasini xayolimizga yetaklab keladi. "So'z" arab tilida kalomdir. "Kalom" islomiy tushunchaga ko'ra Qur'onni anglatadi. "Puxanda" ilohiy kalomga nisbatan ishlatilganda xushxabar, mo'minlar uchun ilohiy mujda ma'nosini bildiradi. Demak, birinchi misraning ma'nosi quyidagicha: O'ylab qarasam, ey Parvardigorim, sening kaloming – Qur'onda bizlar uchun xushxabar mujdalar bor ekan.

Ikkinchi misrada aytilgan "ozod"lik bu dunyodagi insonning o'zligini, o'z Yaratuvchisini tanimay harakat va faoliyatida o'zini mutlaq erkin hisoblashidir. Bu yerda insonning o'z Yaratuvchisidan bexabar, g'aflatdaligi nazarda tutiladi. "Tag'in" so'zi oldinda bo'lgan va hozirda takrorlanayotgan narsa, holatga ishora qilmoqda. Ya'ni, bandalik qachondir lirik qahramonning holati edi. Bu Qur'ondagi "Voqea" surasining 72-73- oyatlarida ta'kidlangan "al-miysoq" davriga ishoradir. Ma'nosi: Men shu kungacha Sendan g'aflatda edim. Endi Seni tanidim-u, Senga banda ekanligimni angladim, esladim.

"Ozodlikdan har bir banda erur shod". Inson tabiatiga xos narsa bu erkin va ozod bo'lishga intilishdir. Hech kimga qaram bo'lmagan, har ishda erki o'zida bo'lgan kishi o'zini baxtiyor sezadi degan fikr bizda hukmron. Lekin inson o'zining ichki ehtiyojlarini qondirish ketidan quvib, ularning quliga aylanib qoladi. Borib-borib jismonan ozod, ma'nan o'z nafsiga qul, qaram kimsaga aylanadi. Faqat Yaratganga bandalikni yodda tutgan kishigina bu dunyoda



jismonan va ma’nan ozod bo’la oladi. Shuning uchun shoir Ollohga qarata “Men shodmanki, senga bo’libman banda” deydi. Mazkur ruboyida ikki ma’no qatlamini kuzatmoqdamiz. Ba’zi she’rlarda uch yoki undan ortiq ma’no qatlami yuzaga chiqishi mumkin. Misol tariqasida Bobur ijodiga murojaat qilamiz.

Bobur butun Sharq, xususan, o’zbek adabiyotida mumtoz arab she’riyati an’analari mutloq yetakchi mavqeda bo’lgan bir davrda yashadi, ijod qildi. Aruz she’r tuzilishi, qofiya ilmini, obrazlar tizimi hamda badiiy tasvir vositalarini mukammal o’rgandi. Qat’iy qolipga solingan vazn, qofiya, obrazlar va ular o’rtasidagi doimiy belgilangan munosabatlar, takrorlanuvchi badiiy vositalar bevosita shoir she’rlarda aks etadi. Ana shu qat’iy qoliplar doirasida takrorlanuvchi munosabatlar, shakllar va usullarni hali boshqalarda ko’rilmagan variatsiyalarda ifodalash shoirning ijodiy o’ziga xosligini belgilaydi [1, 23-b.]. Ayni paytda bu birinchi zohiriy ma’no qatlamini vujudga keltiradi. Bu obrazlar ma’nosini, har bir detalni badiiy didi va tayyorgarligi turlicha bo’lgan kitobxon ham o’ziga yarasha tushunishi hamda qabul qilishi mumkin bo’lgan ma’nosi zohirda ko’rinib turgan qatlamdir. Unda obrazlar o’z ma’nosida, ya’ni, olaylik, Oshiq, Yor, Raqib inson timsolida, ularga bog’liq badiiy detallar ham kundalik hayot, turmushda uchraydigan ma’nolarida tushuniladi. Masalan, gul – yor go’zalligi qiyoslanadigan o’simlik, sarv – yor qomatiga o’xshash daraxt, bulbul – qismati oshiqqa monand qush va hokazo. Misol tariqasida quyidagi mashhur g’azal baytini olamiz:

*Xazon yafrog’i yanglig’ gul yuzung hajrida sarg’ardim,
Ko’rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim.*

*Sen, ey gul, qo’ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog’ingga tushib bargi xazondek muncha yolbordim.*

Baytlarda ikki – yor va oshiq obrazlari ko’zga tashlanadi. Zohiriy ma’noga ko’ra, aytilgandek, unda intim tuyg’ularni izhor etayotgan shaxs(oshiq)ning ikkinchi shaxs(ma’shuqa)ga



munosabati va ishqdagi holati aks etgan. An'anaviy tasvir: yorning guldek yuzidan ayriliq tufayli oshiqning yuzi sarg'aygan. U lola yuzli (lolarux) ma'shuqadan za'faron yuziga qarab rahm etishini so'raydi. Ikkinchi misrada yor go'zallik tasviri hamda oshiq holati bayoni davom ettiriladi. Yorga nisbatan "gul", "sarkashlik" (o'jarlik), "sarv" so'zlari qo'llangan bo'lsa, oshiq uchun "bargi xazon", "yolbordim" ibora va so'zlari keltirilgan. Baytlar ma'nosidan ko'rinib turibdiki, hajr yor jafokorligi – sarkashligi tufayli yuz bergan. An'anaviy tasvirga ko'ra ma'shuqa jabri uchun oshiq uni yozg'irmaydi, balki jafoga vafo bilan javob beradi. Xokisorlik bilan ayog'iga yiqilishga hozir turadi.

Boburning shaxsiy hayoti va taqdiri hammaga ma'lum. U umrining oxirigacha Vatan sog'inchi, yurt ishtiyoqi bilan yashadi. Shu sog'inch va ishtiyoq uning qalbida dard va iztiroblarga sabab bo'ldi. Shoir ijodining har satrida mazkur tuyg'ular bo'y ko'rsatib turadi. Bu esa botiniy ma'no qatlamini yuzaga chiqaradi. U ikkinchi qatlamdir. Yuqoridagi baytlarga qaytsak, ulardagi Yor – Vatan, Oshiq – Vatandan ayru tushib, unga intilayotgan shaxs timsoli. She'rdagi obrazlarni to'ldiruvchi badiiy detallar ham yangicha mazmun, mohiyat kasb eta boshlaydi. Lekin ular birinchi qatlamdagi ma'nolaridan butunlay uzoqlashmagan, mazmuniy aloqadorlikni saqlagan bo'ladi. Faqat sifatlash xarakterida bo'lgan detallargina bir oz mazmuniy o'zgachalik hosil qilishi mumkin.

Vatandan judo shoir beqiyos go'zal (gul yuz) Vatan hajrida sarg'ayadi. Ikkinchi misradagi "lolarux", keyingi baytning dastlabki satridagi "gul" so'zlari ham ona yurt ko'rkamligini ifodalaydi. Navbatdagi satrdagi "sarkashlik" so'zi "o'jarlik" ma'nosi bilan mazkur ma'noga "yopishmaydi". Aytilganidek, bu so'z ushbu ma'no qatlamida o'z leksik ma'nosidan qochib, yangi mazmun kasb etadi. Vatanning Boburga sarkashligi uning **ilojsizligidir**, ya'ni Bobur har qancha istasa ham yurtga qaytolmaydi, Vatan ham uni bag'riga ololmaydi, chunki buning iloji yo'q. Lirik qahramon (shoir) esa buni anglab tursa ham, Yor (Vatan)ga iltijo qilib yolboradi. Boburning lirik qahramonga (ya'ni o'ziga) qo'llagan tashbihlari shu yerda nazarda tutilayotgan ifodaga juda mos keladi: Yor (Vatan) ko'rkam



sarv daraxti, oshiq (shoir) esa undan uzilib ayog'i ostiga tushgan xazon bargi. Bu tashbih bejiz emas, chunki daraxtdan uzilgan bargi xazon yana qayta unga qo'shila olmaganidek, tug'ilgan yeridan ketgan Bobur ham Vatanga qayta olmaydi. G'azalda ochiq ko'rinmasa-da, yurtga qaytishga to'sqinlik qiladigan kuchlar (asosan siyosiy) pinhona ifodalanayotgan Raqib obraziga ishora qiladi.

Zahiriddin Bobur bolaligidan Islom dini aqidalari asosida tarbiyalandi, tasavvuf adabiyoti ta'sirida ijodiy tafakkuri shakllandi. Inson e'tiqodi uning shaxsiyatining negizi, ma'naviy olamining qiyofasini aks ettirar ekan, adib ijodini bu ulkan dunyoviy mafkuradan ayru holda tushunish va tadqiq etish mumkin emas. Islom va tasavvufiy in'ikos Bobur ijodining uchinchi ma'no qatlamini kashf etishga yo'l ochadi. U qatlam ham mohiyat e'tibori bilan botiniy sath hisoblanadi. Obrazlar va badiiy detallar islomiy mazmun bilan yo'g'rilgan bo'ladi: Yor – Olloh, Oshiq – buyuk Yaratuvchi vasliga intiluvchi banda, Raqib – Oshiqni asosiy maqsad, intilishlaridan chalg'ituvchi nafs va nafsoniy voqelik timsoli. Badiiy detallar, qo'llangan so'z va iboralar oldingi qatlamlardagi ma'nolaridan uzoqlashishi, ayrim hollarda favqulodda yangicha ma'no kasb etishi mumkin. Gul bilan bog'liq go'zallik timsollari Yaratganning beqiyos jamolining ifodasi. Oshiq esa o'z Yaratuvchisini tanigan va unga yetishmoqlik ishq bilan yonayotgan solik bo'lib, foni dunyodagi tiriklik hayoti sabab Haqiqiy ma'shuq bilan oralariga tushgan hajrdan yuzi zard tortgan. “Sarkashlik” birinchi ma'no qatlamidagidek o'jarlik, ikkinchi ma'no qatlamidagidek ilojsizlik tushunchalari bilan bu yerda rost kelmaydi. Bu so'z Yor jafosining ifodasi ekan, u Ollohga nisbatan qo'llanganda (ayniqsa, Uning Boburga munosabatini nazarda tutganda) baytdan “sinash”, “imtihon qilish” ma'nosini chiqarish mumkin. Chunki Bobur komil musulmon iymoni bilan yashar ekan, bolaligidan boshiga tushgan va umrining oxirigacha davom etgan falokatlar, baxtsizliklar, qiyinchiliklar Yaratganning bandasiga bir sinovi, imtihoni ekanini yaxshi anglar, dildan tuyardi.



Boshqa obrazlardan farqli o'laroq Oshiq ma'no sathlarida har safar yangi mazmun olayotgan bo'lsa-da, ularning barchasi bir shaxs (sub'ekt) bo'lishligi bilan uchala ma'no qatlamini birlashtirib turadi, o'zaro bog'laydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Иванов С. Н. Пять веков узбекской газали: – В красе натленной предстаёт. – М.: Педагогика, 1977, – 234 с.
2. Олимов М. Ўзбек танқидчилигида М. М. Бахтин полифония назариясини тушуниш ва талқин этишдаги айрим чалкашликлар ҳақида. Республика ёш олимларининг анъанавий илмий конференцияси. – Т.: "Фан", 1989. – 295 б.
3. Ҳаққулов И. Аҳмад Яссавий. (Сўзбоши мақола) Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – Т.: Чўлпон, 1991. – 231 б.



G'AZAL TAHLILIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI



Dilduza TUXLIYEVA

*ToshDO'TAU katta o'qituvchisi,
pedagogika bo'yicha falsafa doktori.
El-manzil: tuxliyevadilfuza@gmail.com*

Annotatsiya: *Maqolada adabiy ta'limda pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol metodlardan g'azal janri namunalarini tahlilida foydalanish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Ularning samaradorligi misollar orqali asoslangan.*

Kalit so'zlar: *pedagogik texnologiya, interfaol metodlar, g'azal, 3x3 (4x4, 5x5)", "Blis so'rov", "Sinkveyn", "Mos maqolni top", o'quv topshiriqlari.*

Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini jadallashtirish va egallagan bilim, ko'nikma va malakalarning amaliy hayotda qo'llanilishiga erishish ko'p omillarga bog'liq. "Adabiy ta'lim samaradorligini oshirishda, eng avvalo, o'qituvchining pedagogik mahorati hamda uning ta'lim jarayoniga nisbatan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda adabiyot o'qituvchilarining pedagogik mahorat darajasi har bir dars hamda o'rganilayotgan mavzuning o'quvchilarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuvini taqozo etmoqda" [6, 67-b.]. Shu nuqtayi nazardan, dars jarayonini noan'anaviy tarzda tashkil qilish, dars shaklini bir qolipda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, katta hajmli axborotni qisqa fursatda va qiziqarli yo'sinda yetkazish, o'quvchilarning darsga bo'lgan



faolligini oshirish, ularning faoliyatini jadallashtirishda interfaol metodlarning o'рни katta. “Mazkur jarayonda o'qituvchining zamonaviy pedagogika, psixologiya hamda pedagogik texnologiyalardan xabardorlik darajasi asosiy o'rin tutadi. Bu jihatdan mashhur pedagog A. S. Makarenkoning quyidagi mulohazalarini esga olish joiz: “Men pedagogik mexanizatsiya haqida gapirganimda ijobiy va foydali hodisani nazarda tutaman, shunga qaramay ushbu mexanizatsiya tarbiyaning jonli faoliyat egasi sifatidagi ishtirokini ko'zda tutishi shart” [2, 168-b.].

G'azal o'qitish jarayonida interfaol metodlardan darsni mustahkamlash qismida, turli o'quv topshiriqlarini tuzishda foydalanish ko'proq ijobiy samara beradi. Bu bosqich o'quvchi yangi bilimlarni qanday qabul qilgani, tushunganlik darajasini ko'rsatib beradi. “O'quv topshiriqlari shaklan ham, mazmunan ham o'ziga xos tartib-xususiyatga ega o'quv materialidir. Har qanday topshiriq o'quvchining bilimi, tajribasi o'quv predmetiga qiziqishi hisobga olingan taqdirdagina muayyan tajribaga erishish mumkin. Bu esa o'quv topshiriqlarining ma'lum shakl, mazmun va mezonlar asosida tuzilishini taqozo etadi” [4, 90-b.]. Interfaol metodlar esa mazkur ishlarni noodatiy tarzda tashkillashtirish, o'quvchilar bilan individual yoki jamoaviy ishalash, vaqtni tejashda qulayliklar yaratadi. “Yangi pedagogik texnologiyaning asl mohiyati, nazarimizda, muayyan mavzuga oid manba va materiallarni o'quvchi odatlangan shakl va ko'rinishlarga qaraganda o'zgacharoq, qulayroq va qiziqarliroq tashkil etishdan iboratdir” [3, 3-b.]. Amaliyot g'azal tahlilidan so'ng o'zlashtirilgan bilimlarni takrorlash va mustahkamlashda “Mos maqolni top”, “Uchinchisi (to'rtinchisi, beshinchisi) ortiqcha”, “3x3 (4x4, 5x5)”, “Blis so'rov”, “Rasmlarni to'g'ri joylashtir”, “Sinkveyn” kabi metodlar imkoniyatidan foydalanish ancha samarali ekanligini ko'rsatdi.

1. “Mos maqolni top” metodi. Bunda o'quvchilarga g'azalning har bir bayti mazmuniga mos maqollarni topish vazifa qilib beriladi. Bu ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin. Birinchi usulda o'qituvchi g'azal baytlari miqdoriga teng ravishda maqollarni taqdim etadi, o'quvchi esa ularni har bir baytga mos





holda joylashtirishi kerak bo'ladi. Ikkinchi usulda o'quvchilar o'zlari mustaqil tarzda maqollarni topib, baytlarga moslashtirib chiqishlari lozim. Bu usulda o'qituvchi maqollarni oldindan o'zi taqdim qilmaydi. Ikkinchi usul ko'proq yuqori sinf o'quvchilariga (9–11-sinf) mos tushadi. Bu topshiriqni uyga vazifa shaklida berish ham maqsadga muvofiq, chunki o'quvchilar qisqa vaqt oralig'ida mustaqil holda har bir baytga mos maqolni topishga qiynalishi mumkin. Masalan, 6-sinfda Avaz O'tarning "Til" g'azalini o'qitishda matn mazmuni yuzasidan ushbu metodni qo'llash mumkin. Bunda birinchi usulga muvofiq baytlar soniga mos maqol namunalari o'quvchilarga aralash tarzda beriladi:

1. Til bilgan navkar — bol bilan shakar.

Til bilmas navkar — obro'ni to'kar.

2. Til bilganga ming tanga.

3. Baxt belgisi – bilim.

4. Til bilgan yo'lda qolmas.

5. Til bilgan – el bilar.

O'quvchilar esa ularni baytlarga moslagan holda juftlashtirganda quyidagicha manzara yuzaga kelishi kerak:

№	Baytlar	Maqollar
1.	Har tilni biluv emdi bani odama jondur, Til vositayi robitayi olamiyondur.	Til bilgan – el bilar.
2.	G'ayri tilini sa'y qiling bilgani, yoshlar, Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur.	Til bilgan yo'lda qolmas.
3.	Lozim siza har tilni biluv ona tilidek, Bilmakka oni g'ayrat eting, foidali kondur.	Til bilganga ming tanga.
4.	Ilm-u fan uyig'a yuboringlar bolangizni, Onda o'qug'onlar bori yaktoyi zamondur.	Baxt belgisi – bilim.
5.	Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek, Til bilmaganidan oni bag'ri to'la qondur	Til bilgan navkar – bol bilan shakar. Til bilmas navkar – obro'ni to'kar.





Bu metod ham o'tilgan mavzuni mustahkamlashga, ham mavzulararo uzviylikni saqlashga, nutqni o'stirish, so'z va maqollarni o'z o'rnida ishlatish malakasini oshirishga xizmat qiladi.

“Sinkveyn” metodi. Bu metodni barcha g'azallarning tahlilidan so'ng mavzuni umumlashtirish va xulosalash uchun qo'llash mumkin. “Axborotlarni qisqacha bayon qilish, murakkab g'oyalarni, sezgilarni, tasavvurlarni bir necha so'zlar vositasida bayon qilish imkoniyati borasidagi muhim malakadir. Bu boy tushunchalar zahirasi asosida o'ylangan refleksiyaning talab qiladi. Sinkveyn bu she'r bo'lib, u biror voqea munosabati bilan yoziladigan yoki refleksiya qilinadigan qisqa ifodalarda axborot va materiallarning sintezlanishini talab etadi. “Sinkveyn” so'zi fransuzcha so'z bo'lib, besh degan tarjimani beradi. Demak, sinkveyn besh qatordan iborat she'rdir. Sinkveynni yozib chiqish qoidasi quyidagicha:

1. Birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi (odatda ot turkumiga oid so'z bilan).

2. Ikkinchi qatorda mavzu ikki so'z bilan tavsif qilinadi (sifat turkumiga oid ikki so'z bilan).

3. Uchinchi qatorda ushbu mavzu bo'yicha xatti-harakatlar uch so'z bilan tavsif etiladi.

4. To'rtinchi qatorda temaga aloqadorlikni ko'rsatuvchi to'rt so'zdan iborat gap (ibora) yoziladi.

5. Beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so'zdan iborat sinonimdir” [1, 116–117-b.].

Masalan, to'qqizinchi sinfda Furqatning “Fasli navbahor o'ldi...” g'azali [9, 123-b.] yuzasidan quyidagicha sinkveyn tuzish mumkin:

1-qator: bahor

2-qator: go'zal, yosh

3-qator: uyg'onmoq, ochilmoq, yangilanmoq

4-qator: olam va odamning yasharish fasli

5-qator: ko'klam

Ushbu metod asosida topshiriqlarni bajarish o'quvchilar uchun juda oddiy va sodda. Bu murakkab hisoblangan g'azal janrini



nisbatan oson qabul qilish, har bir o‘quvchi, hatto, past o‘zlashtiruvchi o‘quvchining mavzuga munosabat bildirishiga sharoit yaratadi. Ularda bog‘lanishli nutqni shakllantiradi. Shu bilan birga ushbu topshiriqni bajarish uchun g‘azal matni bilan to‘liq tanish bo‘lish talab etiladi. Yangi mavzuni mustahkamlash bu metod bilan yakuniga etmasligi kerak, undan so‘ng bu jarayon yana davom ettirilishi maqsadga muvofiq.

4. “Blis-so‘rov” metodi. Bu metod qisqa savol-javoblarga asoslanadi. Mavzu yuzasidan savollar quyidagi ko‘rinishda o‘quvchilarning har biriga taqdim etiladi va ma‘lum vaqt ajratiladi. Belgilangan vaqt o‘z nihoyasiga yetgach, o‘quvchilar javoblarni boshqalar bilan almashadi. O‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligida to‘g‘ri javoblar aniqlanadi va izohlanadi. Bu metod butun sinfni qisqa vaqt ichida baholash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

G‘azal baytlari	Sog‘inchi	Oshiqning dil izhori	Holati	Qasamyodi	Oshiqlik darajasi	Azoblanishi	Rashki
Sensen sevarim, xoh inon, xoh inonma, Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.							
Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh, Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.							
Hattoki qilich kelsa boshimga, eshikingdin Yo‘qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.							
Usruk ko‘zing ashkolina har gah nazar etsam, Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.							
Ya‘qub bikin ko‘p yig‘idin qolmadi sensiz Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.							
Oy yuzung‘a ko‘z solg‘ali o‘zga kishi birla, Yo‘qtir nazarim, xoh inon, xoh inonma.							
Ishq o‘tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi, Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.							



Gʻazal baytlari	Sogʻinch	Mehr-u muhabbat	Iztirob
Bukun, ey doʻstlar, farzandi jononimni sogʻindim, Gado boʻlsam ne ayb, ul shohi davronimni sogʻindim.			
Musofirman, gʻaribman, bekas-u ham benavodurman, Vujudim dardgʻa toʻldi, emdi darmonimni sogʻindim.			
Tilimning zikri-yu, koʻnglimni fikri, yaxshi farzandim, Azizim, yolgʻizim, davlatli sultonimni sogʻindim.			
Kecha-kunduz yoʻligʻa muntazirdurman, tikarman koʻz, Kelib holim soʻribon ketsa, mehmonimni sogʻindim.			
Nasibin uzmati Tangri, ilojin topmagʻay kelsa, Onam deb boʻlgʻusi bagʻri qizil qonimni sogʻindim.			
Qorongʻu boʻldi olam koʻzima ushbu judolikdin, Koʻz-u koʻnglum ziyosi mohi tobonimni sogʻindim.			
Mani bekas Uvaysiy, yigʻlagʻayman roʻz-u-shab tinmay, Uyimning ziynati, koʻz ravshani, xonimni sogʻindim.			

Blis-soʻrovni gʻazalda qoʻllangan badiiy sanʼatlarni aniqlashda qoʻllash ham ancha samarali. Masalan, Atoyining “Ul sanamkim...” gʻazaliga (albatta, gʻazal tahlilidan soʻng) quyidagicha tatbiq qilish mumkin:

Gʻazal baytlari	tashbeh	mubolagʻa	takrir	tanosub	irsoli masal	tajnis
Ul sanamkim su(v) yaqosinda paritek oʻlturur, Gʻoyati nozukligidin suv bila yutsa boʻlur.						
Ul ilikkim suvdin oriqtur, yumas oni suda, Balki suvni pok boʻlsun deb iligi birla yur.						
To magarkim salsabil obina javloni qila, Keldi jannat ravzasindin obi Kavsar sori hur.						
Emdi bildim rost ermish, balki koʻrdim koʻz bila, Ulki derlar suv qizi goh-goh koʻzga koʻrunur.						
Qoshlarin yosin Atoyi koʻrgali husn ichra toq, Subhidam mehroblarda surayi yosin oʻqir.						



“3x3 (4x4, 5x5)” metodi. Ushbu metod bevosita “Uchinchisi (to‘rtinchisi, beshinchisi) ortiqcha” metodining mantiqiy davomi hisoblanadi. “Bunga ko‘ra, metodda o‘qituvchi mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan uchta (to‘rtta, beshta va hk.) to‘g‘ri va unga teng nisbatda (uchta, to‘rtta, beshta) noo‘rin qo‘llanilgan tushunchalar (so‘z, belgi, tasvir va bq.)dan iborat tizimni shakllantiradi. O‘quvchilar ushbu tizimdan mavzu (bo‘lim, bob)ga taalluqli bo‘lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar” [5, 163–164-b.]. Bunda o‘quvchilarga o‘ntagacha g‘azal mazmuniga mos va mos bo‘lmagan maqollar yoki hikmatli so‘zlar taqdim etiladi. O‘quvchilar ular orasidan g‘azal mazmuniga muvofiq bo‘lmaganlarini ajratishi lozim. Metod o‘quvchilarga jadval ko‘rinishida taqdim qilinsa, topshiriqni bajarish yanada qulaylashadi. Masalan:

Topshiriq. Ushbu maqol va hikmatli so‘zlarning qaysilari Avaz O‘tarning “Til” g‘azali mazmuniga mos emas?

2-jadval

№	Maqol va hikmatli so‘zlar	Mos emas	Izoh
1.	Ko‘p tilni <i>bilish</i> bitta <i>qulfga tushadigan bir necha kalitga ega bo‘lish</i> .		
2.	Achchiq til — zahri ilon, Chuchuk tilga — jon qurbon.		
3.	Til bilan tugilgan tugun Tish bilan echilmas.		
4.	Qardosh tilni bilmoq – qadrdonlik belgisi.		
5.	Til – dil tilmochi.		
6.	Dilni dilga til qovushtiradi.		
7.	Ochiq til osh yedirar, Achchiq til tosh yedirar.		
8.	Bir tilni bilgan bir odam, ikki tilni bilgan ikki odam.		

Bu erda 2-, 3-, 5-, 7-maqollar g‘azal mazmuniga mos emas, chunki bu maqollar bevosita tilning ta‘rifi, shirinso‘zlikning foydasi, dag‘al so‘zlashning zarari xususida. Avaz O‘tarning “Til” g‘azali esa



yosh avlodni turli chet tillarini o‘rganishga targ‘ib sifatida yozilgan. Ushbu metod o‘quvchi tarbiyasida bir necha jihatdan foydali. Xususan, u orqali muayyan mavzu yoki masala yuzasidan o‘quvchilarda tahlil qilish, mulohaza yuritish va eng muhim jihatlargagina e‘tibor qaratish malakalarini shakllantirish mumkin. Bular esa maktab adabiy ta‘limida juda muhim hisoblanadi.

G‘azal o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan darsni mustahkamlash qismida, turli o‘quv topshiriqlarini tuzishda foydalanish ko‘proq ijobiy samara beradi. Bu bosqich o‘quvchi yangi bilimlarni qanday qabul qilgani, tushunganlik darajasini ko‘rsatib beradi. “O‘quv topshiriqlari shaklan ham, mazmunan ham o‘ziga xos tartib-xususiyatga ega o‘quv materialidir. Har qanday topshiriq o‘quvchining bilimi, tajribasi o‘quv predmetiga qiziqishi hisobga olingan taqdirdagina muayyan tajribaga erishish mumkin. Bu esa o‘quv topshiriqlarining ma‘lum shakl, mazmun va mezonlar asosida tuzilishini taqozo etadi” [4, 90-b.]. Interfaol metodlar esa mazkur ishlarni noodatiy tarzda tashkillashtirish, o‘quvchilar bilan individual yoki jamoaviy ishalash, vaqtni tejashda qulayliklar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Азизхўжайева Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. –160 б.
2. Воронов В. Н. Воспитательные технологии и системы. – Москва: Проспект, 2006. – 168 – 194 с.
3. Малюгина В. А., Черных О. Г. Игровые уроки по литературе. 7 класс. – Москва: Вако, 2009. – 256 с.
4. Матжон С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. –208 б.
2. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2016. – 262 б.
3. Эгамбердиева Ф. Адабий таълимга илғор педагогик технологияларни татбиқ этиш методикаси. Пед. фан. ном. ...дисс. – Т., 2005. – 146 б.
4. Yo‘ldoshev Q. va b. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun. – Т.: O‘zbekiston, 2019. – 368b.



MUMTOZ ADABIYOTNI O'QITISHDA SAVOL VA TOPSHIRIQLARNING AHAMIYATI

Alisher Navoiy asarlari misolida



Miyasar MIRZAXIDOVA

QR Jalolobod Davlat universiteti

professori

El-manzil:

irodaishanxonova@gmail.com



Iroda ISHONXANOVA

ToshDO'TAU o'qituvchisi,

pedagogika bo'yicha falsafa doktori.

El-manzil: m.mirzahidova@mail.ru

Annotatsiya. *Ma'lumki, adabiyot ta'limida savol va topshiriqlar bilan ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda savol va topshiriqlar bilan ishlash borasida fikr-mulohazalar berilgan. Mumtoz adabiyot namunalarini o'zlashtirishda o'quvchilar mustaqil ishlari afzalliklariga ham to'xtalib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *darslik, o'quv mashg'uloti, savol, topshiriq, loyiha, mustaqil ish, doston, matn, insho, mumtoz adabiyot, lug'at.*

Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, o'z navbatida, ta'lim tizimida ham yangilanishlarga sabab bo'lmoqda. O'quvchi mavzuni yetarli darajada yaxshi o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda ishlashi zarurligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv mashg'uloti paytidagi mutolaa yoki savol-javobning o'zi doim ham yetarli



emasligi adabiyot o'qitish metodikasi mutaxassislari tomonidan bir necha marotaba isbotlandi. Ayrim olimlarimiz o'z tadqiqotlarida adabiyot darslarida rejadagi asar o'quvchilarga ovoz chiqarib o'qib yoki so'zlab berilmasligi zarurligini ta'kidlashgan. Maqsad – o'quvchi berilgan manbani uyda, mustaqil ish sifatida o'qib kelishini tashkil qilish. O'quvchilar faqatgina maktabdagi dars soatlari bilan cheklanib qolmasdan, o'z ustilarida muntazam ishlashlarini tashkil etish bugungi kunning ilg'or, zamon bilan hamnafas adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifalaridan biridir.

Adabiyot o'quv fani doirasidagi mavzularni o'zlashtirishda uyga beriladigan vazifalar, shu jumladan, savol-topshiriqlar ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, mumtoz adabiyot vakillari haqida mavzu ketganda, bunga alohida e'tibor berishimiz zarur. Adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis olim, filologiya fanlari nomzodi, dots.nt Omonulla Madayev bir suhbatda “Alisher Navoiyning birorta asarini tahlil qilib, maktabda Alisher Navoiy shaxsiga muhabbat uyg'otish mumkin emas. Maktab dasturida Alisher Navoiyning shaxsiy fazilatini o'quvchiga tushuntirish orqali Navoiyga hurmat hosil qilish mumkin”, - degan fikrni bildirgan hamda quyidagi mavzularda matnlar (insho) tuzish o'rinli ekanligini aytib o'tgan: “Navoiy – do'st” (5-sinf), “Alisher Navoiy – vatanparvar” (6-sinf), “Navoiy – xalqparvar” (7-sinf), “Alisher Navoiy – shoir” (9-sinf), “Navoiy – davlat arbobi” (10-sinf) va hokazo [8, 12-b.].

Bugungi kunda amalda mavjud darsliklarda quyidagi mavzulardagi matn ustida ishlash haqida topshiriqlar berilgan: “Guruhlarda ishlang. Alisher Navoiy ruboiylaridan birini tanlang. Bu ruboiyning asosiy g'oyasini tushuntirishga yordam beradigan rasm chizing yoki hikoya tuzing” [3, 123-b.], “Men ishqni qanday angladim” (uy inshosi) [7, 98-b.], “O'zbek va turkiy xalqlar madaniyati, adabiyoti va san'atida Alisher Navoiyning alohida o'ringa ega ekanini qanday sabablar bilan izohlaysiz? Fikrlaringiz asosida Alisher Navoiy ijodiga xos eng muhim uch xususiyatni misollar yordamida ochib bering” [2, 87-b.]. Bunday matnlarni tuzish, loyiha ustida ishlash asnosida o'quvchilarning mustaqil



fikrlash doirasi kengayadi, voqea-hodisaga o‘z shaxsiy mulohazalarini ifoda etish salohiyati oshadi.

Biz adabiyot darsliklaridagi savol-topshiriqlarni tahlilga tortdik. 5-sinf darsligida “O‘ninchi maqolatning “Rost so‘z ta‘rifida” qismida shoir qanday fikrlarni ilgari suradi?” savoli berilgan, lekin darslikda ushbu maqolatdan parcha mavjud emas. “Alisherning bolalik yillari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?”, “Alisher Navoiyning o‘rta yoshlik yillari hayoti va ijodi haqida so‘zlang” kabi an‘anaviy savollarga javob berishda o‘quvchilar darslikdagi ma‘lumotlarni takrorlab beradilar, tahlil qilmaydilar. “Sher bilan Durroj” hikoyatidan qanday saboqlar olish mumkin?”, “Ahil yashash, qo‘shnichilik munosabatlari haqida o‘z tushunchalaringizni so‘zlang” kabi savollar esa o‘quvchilarning so‘z boyligini, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Darslikda “Sher bilan Durroj”[1, 102-b.] hikoyatining asli va nasriy bayoni berilgani sababli, o‘quvchilarga ushbu matnlarni yonma-yon qo‘ygan holda, o‘zlashtirilishi qiyin so‘zlar lug‘atini tuzish vazifasini berish mumkin. Bunday topshiriqlar o‘quvchilarning lug‘at boyligi oshishiga ko‘mak beradi.

6-sinf yangilangan adabiyot darsligidan Alisher Navoiy ruboiylari o‘rin olgan, hikmatli so‘zlari mustaqil o‘qish uchun berilgan. O‘quvchilarga ruboiylar mazmunini izohlash hamda asosiy g‘oyasini bitta gap bilan ifodalash vazifasi berilgan. Bu vazifani bajarish uchun jadval ham namuna sifatida keltirilgan [3, 118-b.].

7-sinf darsligida Alisher Navoiyning qit‘a va fardlaridan namunalar keltirilgan. Qit‘a mazmunini hozirgi adabiy tilda ifodalash hamda tahlilini jadvalga joylashtirish vazifasi berilgan. Fardlar tahlilida esa asar g‘oyasini bir gap bilan ifodalash hamda unga mos keluvchi maqollardan namuna keltirish topshirig‘i berilgan. Oldingi sinflarda o‘tilganlarni takrorlash hamda mustahkamlash maqsadida ruboiy, qit‘a va fard janrlarini qiyoslash jadvalini to‘ldirish kerak bo‘ladi [4, 134-b.].

8-sinf darsligida mustaqil o‘qish uchun ruboiy, tuyuq va fardlar berilgan. “Ahbob, yigitlikni g‘animat tutunguz...” ruboiysida



ifodalangan g'oyaning mohiyatini tushuntiring”, “Sarvi gulrux soridin” tajnisli tuyuqning badiiy-tabiiy ta'sirchanligini ta'minlagan vositalar nimalardan iborat?”, “Men – sinuq, ko'nglum – sinuq, sabrim uyi xud – yerga past...” fardining hasbi hol xususiyatini sharhlang” singari savol va topshiriqlar berilgan [5, 152-b.]. Fikrimizcha, vazifalarga ijodiy yondashilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki ularning har biriga namuna darslikda keltirilgan.

8-sinf “Adabiyot” darsligida berilgan Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid ma'lumotlarni jadval holatiga keltirish hamda o'z munosabatini bildirish vazifasini o'quvchilarga berish mumkin. Taxminan, shunday shakldagi jadval hosil bo'ladi:

Alisher Navoiy hayoti va ijodi xronologiyasi 8-sinf darsligi asosida

Yillar	Vogelalar
1441-yil 9-fevral	Hirotda shahrida G'iyosiddin Kichkina xonadonida tavallud topdi.
1466-1469- yillar	Yosh shoir Samarqanddagi madrasalarda ta'lim oladi. Bu shaharda yosh qalam sohibi davlat ishlarida xizmatda ham bo'ladi, faol ijod ham qiladi.
1469-yil	Bahorda Navoiyning yaqin do'sti – temuriyzoda Husayn Boyqaro Hirotda taxtini egallagandan so'ng shoirni yoniga chaqiradi. Navoiy bir necha yil saroyda oliy martabali lavozimlarda xizmat qiladi.
1483-1485- yillar	Shoirning eng buyuk asari – besh dostonidan iborat “Xamsa” yaratiladi.
1491/92- 1498/99-yillar	Barcha lirik she'rlarini to'rt devonga taqsimlab, “Xazoyin ulmaoniy” nomli yirik to'plamini tuzdi.
Umrining so'nggi o'n yili	Navoiy juda ko'p badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar bunyod etdi.
1501-yil 3- yanvar	Hirotda vafot etdi.
1991-yil	Toshkent shahridagi O'zbekiston Milliy bog'ida shoirning yangi haykali o'rnatildi.
2017-yil	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti binosi oldiga shoirning yangi haykali o'rnatildi.



Ma'lumki, 9-sinf darsligiga “Farhod va Shirin” dostonidan salmoqli parchalar kiritilgani sababli asarni o'rganishga ham boshqa sinflarga qaraganda ko'proq soat ajratilgan [7, 102-b.]. Parchalar orasida berilgan savol va topshiriqlarda matn bilan ishlashga katta e'tibor berilgan. Ayrim baytlardagi mazmun va g'oyaning izohlanishiga doir topshiriqlar ko'p. Bolani fikrlashga undaydigan savollar ham talaygina. Masalan: “Farhoddagi g'amginlikning sababini Siz qanday izohlaysiz?”, “Farhodning Xusravga bergan tanbehiga qo'shilasizmi? Uning so'zlariga munosabat bildiring” yoki “Farhodning noma'lum ko'zgu tilsimini bilish uchun hayotini xavf-xatarga solib bo'lsa ham safarga chiqqanligini qanday baholaysiz? Sizningcha, u to'g'ri ish tutdimi?” va hk. Darslikka “komil inson” tushunchasi borasida savollar kiritilmagan. O'quvchilar komil inson sifatida qanday kishilarni hisoblashlari, Farhoddagi mukammallik belgilari to'g'risida mustaqil fikrlarini bildirishlari juda muhim.

10-sinflar uchun ishlab chiqilgan darslikda “O'zbek mumtoz adabiyoti: XIV asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha” sarlavhasi ostida keltirib o'tilgan davr ijtimoiy-siyosiy hamda adabiy hayoti haqida matn kiritilgan. Adabiyot va tarix fanlarini integratsiya qilgan holda savol va topshiriqlar berilgan: “XIV–XX asrlarda hozirgi O'zbekiston hududida qanday davlatlar mavjud bo'lgan?”, “Bu davr adabiyotida lirikaning yetakchilik qilgani sabablari nimada bo'lishi mumkin?” kabi savollar, “Tarix va boshqa fanlardan olgan bilimlaringiz asosida Markaziy Osiyoning Temuriylardan keyin XIX asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan taraqqiyotining eng muhim uch xususiyatini ajratib ko'rsating. Nima uchun aynan shu xususiyatlarni muhim deb hisoblashingizni izohlang” mazmunidagi mustaqil ish berilgan. “Guruhlarda ishleng. Markaziy Osiyoning XIV–XIX asrning ikkinchi yarmidagi taraqqiyoti tendensiyalaridan birini ajratib oling va uning adabiyotga ta'sirini misollar yordamida ochib bering” [2, 143-b.] deb berilgan loyiha ishi ham o'quvchilarda qiziqish uyg'otishi aniq, nazarimizda.

Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot berish barobarida, o'quvchining buyuk bobokalonimiz shaxsiyati bilan



qay darajada tanish ekanligini tekshiruvchi savol va topshiriqlar berilgan. “Saddi Iskandariy” dostonidan parcha keltirilganda asardan oldin, asar ichida, asardan keyingi uch bosqichli savollar berilgan. Masalan, “Iskandar Zulqarnayn haqida nimalarni o‘qigansiz yoki eshitgansiz?”, “Muallifning ikki do‘st haqidagi lavhani Chingizxon tushida tasvirlashi sababini qanday izohlaysiz?”, “Iskandar vahshiylar zulmiga qarshi qanday siyosat qo‘llamoqchi deb o‘ylaysiz?” singari o‘quvchini fikrlashga undaydigan, xayolotini boyitadigan savollar keltirilgan[2, 145-b.]. Avvalo, darslikda doston matni hamda nasriy bayon yonma-yon berilgani o‘quvchilarning asarni tushunishlarida qulaylik yaratadi.

11-sinf “Adabiyot” darsligiga tarixchi Xondamirning mashhur “Makorim ul-axloq” (“Oliyjanob sifatlar”) asaridan parchalar keltirilgan [6, 122-b.]. Parchalarda Alisher Navoiyning bunyodkorlik faoliyati, Mavlono Lutfiy tahsini, hazratning mehribonligi va saxovati aks etgan.

“Saddi Iskandariy” dostonidan parcha hamda asar haqidagi matn berilgan. “Shahzoda Feruz shaxsiyati haqida sizda qanday tasavvur paydo bo‘ldi? Mulohazalaringizni bildiring”, “Yigitlik va qarilik haqidagi misralarni o‘qing va ularga o‘z munosabatingizni bildiring”, “Hikoyat qahramoni bo‘lgan yigit portreti qanday chizilgan? Uning surati va siyratida qanday farqlar mavjud?”, “Safar va sayohatlar haqidagi hikmatli so‘zlar mazmunidan kelib chiqadigan xulosalaringiz qanday bo‘ldi?”, “Dostonda olimlarga qanday munosabat bildirilgani haqida o‘z mulohazalaringizni bildiring” [6, 125-b.] kabi o‘quvchini shaxsiy fikr-mulohaza yuritishga undaydigan savol va topshiriqlar berilgan.

Savol va topshiriqlarni ko‘rib chiqish jarayonida quyidagi masalalarga alohida e‘tibor berishimiz zarurligiga amin bo‘ldik:

1. Savollar mavzu oid bo‘lishi.
2. Matndagi fikr va g‘oyalarni aks ettirishi.
3. Javobi matn ichida tayyor holda bo‘lmasligi.
4. Topshiriqlar o‘quvchini ijodkorlikka undashi.
5. O‘quvchining o‘zi mustaqil ravishda bajara olishi.



6. O‘quvchi matn tuzish iqtidorini namoyish qila olishi va hokazo.

Mumtoz adabiyot namunalarini o‘rgatish o‘rta maktab o‘qituvchilari uchun doim qiyinchilik tug‘dirgan. Shu sababli, shu mavzudagi o‘quv mashg‘ulotlari adabiyot o‘qituvchisidan ham alohida tayyorgarlik talab qiladi. Mumtoz adabiyot namunalari uchun mo‘ljallangan lug‘atlar, izohli lug‘at doim o‘qituvchi stolida bo‘lishi shart deb hisoblaymiz.

Adabiyot darsliklarini ko‘rib chiqish vaqtida shunga amin bo‘ldikki, yangi joriy etilgan darsliklardagi savol va topshiriqlar ko‘proq o‘quvchini mustaqil fikrlashga, ijodkorlik jihatlarini namoyon qilishga, matn ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotni o‘qitishda savol va topshiriqlarga jiddiy e‘tibor qaratish zarur. Chunki o‘quvchi asar mohiyatiga kirib borishi lozim. Bir o‘qiganda ko‘zga tashlanadigan tashqi ma‘no bilan ijodkor nazarda tutgan ichki, majoziy ma‘noni ham tushuna olishi kerak bo‘ladi. Avvalo, adabiyot o‘qituvchisi o‘zi bunday darslarga alohida tayyorgarlik bilan kirsa, albatta, o‘quvchilarga mumtoz adabiyotning, xususan, Alisher Navoiy ijodining betakror ekanligini anglatishga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov S. va b. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: Sharq, 2020. – 272b.
2. Mirzayeva Z. va b. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 312b.
3. Mirzayeva Z. va b. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 224b.
4. Mirzayeva Z. va b. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik. – T.: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 224b.
5. Olim S. va b. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2019. – 352b.
6. To‘xliyev B. va b. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari uchun. I qism. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 200b.
7. Yo‘ldoshev Q. va b. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 368b.
8. Мадаев О. Иншо қандай ёзилади? – Т.: Ўқитувчи, 1991. – 120 б.



ADABIY TA'LIM – MA'NAVIYAT MANBAI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INSHO YOZDIRISH VA ULARNI TEKSHIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR



Муталлиб HAZRATQULOV

SamDU dotsenti

El-manzil:

hazratqulovmutallib@gmail.com



Xurshida QILICHBOYEVA

*Urgut tumanidagi 71-maktab
ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumta'lim maktablaridagi yozma ishlarning tashkil etilishi va tekshirish talablari yoritilgan. Hozirgi kunda o'quvchilar bilimni baholash bilan bog'liq bir qator o'zgartishlar bo'layotgan paytda kerakli zaruriy xulosa va tavsiyalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *bayon, insho, fikr, reja, dalil, kirish, asosiy qism, xulosa, analiz, obraz, mezon, baholash.*

Hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida darsliklar o'zgarishi, ta'lim tizimidagi islohotlar o'qituvchilar oldiga ko'plab majburiy vazifalarning qo'yilishiga sabab bo'lmoqda. Ayni kunlarda o'qituvchilardan o'ziga belgilangan vazifalardan ko'proq majburiyatni bajarish taqozo etilmoqda.



Ona tili va adabiyot o'quv fanlaridan dasturlar, o'quv rejalar va darslikdagi mavzularni moslashtirish, o'z ijodiy faoliyatini qo'shib dars o'tish zamonaviy o'qituvchining eng muhim majburiyatlaridan biriga aylanib bormoqda.

Shu o'rinda bugungi kunda mavzudan biroz chetda qolib ketayotgan yozma ishlar – diktant, bayon va insholar ustida ishlash barcha davrlarda ham o'quvchilarning yozma nutqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiluvchi mashg'ulotlar turi hisoblangan.

Hozirgi kunda ko'pchilik hollarda insho o'rnida ishlatilayotgan esse ham o'quvchilarning shaxsiy fikrini bayon qila olish, mustaqil matn yaratish, mavjud o'y-fikrini yozma ifodalash vazifasi uchun xizmat qiladi.

O'quvchilarda bog'lanishli nutqni o'stirish, so'z boyligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga yo'naltirishda insho va esse yozdirish bilan birga uni tekshirish va baholash ham alohida o'rin tutadi. O'quvchilarning adabiyot darslarida yozgan mustaqil ishlarini baholashda, eng avvalo, tanlangan mavzuning qay darajada ochilganligiga, fikrlarning ma'lum dalillar bilan qanchalik asoslanganligiga, xulosalarning nechog'lik mustaqilligiga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Adabiyot darslarida yozidiriladigan insho va esse – o'quvchilarning badiiy asarni, undagi etakchi qarashlarni qanchalik anglaganligi, o'z fikrini to'g'ri, ma'lum izchillikda ifodalash ko'nikmasini egallaganlik darajasini aniqlashning asosiy shakli hisoblanadi.

Adabiyot darslarida yozilajak insho yoki esse mavzusining tub mohiyatini anglash, yozuvchi ilgari surgan g'oya haqida fikr yuritish, timsollarga xarakteristika berishda muallifda mustaqil fikrning mavjudligi, fikr ifodalashdagi izchillik, asardagi mavzuga doir muhimni nomuhimdan farqlash bilan bog'liq jihatlar o'quvchi mustaqil ishini baholashning asosiy mezon bo'lib hisoblanadi. Ya'ni, adabiy ta'limdagi insho va esselarni baholashda yozma ishning tili, imlo me'yorlari va ishora (punktatsion) xatolaridan (bular ona tili darslarida amalga oshiriladigan yozma ishlarda muhim hisoblanadi) ko'ra undagi mazmun, bildirilgan fikrning



ahamiyatlilik darajasi, ijodkorlik, o'quvchi dadil aytgan munosabatlar va mustaqil chiqarilgan xulosalarning birinchi planga qo'yilishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyot darslarida tashkil etilgan yozma mustaqil ishlarni tekshirish va baholashda quyidagilar yetakchi ahamiyat kasb etadi:

- yozilgan ishning mavzuga mos kelish-kelmasligi;
- epigrafning (agar ishda mavjud bo'lsa) mavzuga, insho yoki esse mazmuniga mosligi;
- reja bandlari orasida mantiqiy bog'lanishning mavjudligi;
- mustaqil ish reja asosida yozilmagan bo'lsa, fikrlar qanchalik izchil bayon etilganligi;
- mavzuning yoritilishida mantiq – badiiy va hayotiy haqiqatlarning darajasi;
- yozma ish kompozitsiyasining butunligi;
- matn qismlarining hajm va mazmun jihatidan qanchalik to'g'ri shakllantirilgani;
- insho yoki esse matnida ko'chirmalar borligi va ularning qanchalik o'rinli ishlatilgani;
- dalillar keltirishda xatoliklarga yo'l qo'yilmagani;
- fikr chalkashliklari yo'qligi.

Bu kabi insholarni baholashda yuqorida sanalgan talablarning mavjudlik darajasidan kelib chiqib ish tutiladi. Ularning deyarli barchasi aks etgan ishlarga «a'lo»; nisbatan kamorq talablar amalga oshirilgan ishlarga «yaxshi»; deyarli qamrab olinmagan insholarga esa «o'rta» baho qo'yiladi. Lekin undan ham past baho qo'yilishi lozim bo'lganda baholash masalasini ochiq qoldirish o'rinli hisoblanadi.

Metodist olim Q. Husanboyeva adabiyot darslarida o'quvchilar inshosini baholash haqida quyidagilarni aytadi: “Adabiyot darslari – ko'ngil darslari. Adabiyot darslarida, ko'ngil bilan ishlayotganda ko'ngilga yomon baho qo'yishga hech kimning haqqi yo'q. U Allohning mulki. Juda noiloj qolinganda bolaga ozgina to'g'ri yo'nalish berib, hozircha baho qo'yilmaganini, keyingi safar yaxshiroq yozishga urinishi lozimligini aytib baho ochiq qoldiriladi” [1, 292-b.].





Demak, adabiy ta’limda o’quvchilarning insholarini baholashga o’qituvchi o’ta sinchkovlik va e’tibor bilan yondoshmog’i kerak bo’ladi. Masalan, 5-sinf o’quvchisi “Bulbul” ertagi asosida “Ertak haqida taassurotlarim” mavzusida insho yozgan bo’lsa, unda o’quvchi, birinchi navbatda, o’z fikr-mulohazasini oshkor ayta olgan bo’lishi kerak (Garchi u xato bo’lsa ham. Chunki umuman fikrning yo’qligidan ko’ra, noto’g’ri bo’lsa ham fikrning bori muhim. Fikrsizlikdan ko’ra noto’g’ri fikrni to’g’ri yo’nalishga solish osonroq). Insho hajmi unchalik katta bo’lmasligi ham mumkin, biroq unda aytilgan fikrning teranligi muhim ahamiyat kasb etadi. Munosabat bildirayotgan o’quvchi ertakdagi tabiiylik va sun’iylikning farqini nafaqat ertakdagidek, balki bugungi hayot bilan bog’lab anglashi va ifodalashi adabiy ta’lim uchun katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda ham xuddi shunday sun’iylik va soxtalikning ta’siriga tushib qolmaslik, nima yaxshi-yu, nima yomonligining farqiga etish, hayot yo’lida adashmay olg’a borish muhimligini ilg’ashi o’quvchining ertak g’oyasini tushunganlik darajasini anglatadi. Inshosida ertak syujetini shunchaki qayta bayon qilib berishi yoki asar qahramonlari xatti-harakatlarini takrorlashi o’quvchining ertak mohiyatiga kira olmaganligi va undagi hayotiy haqiqatni anglamaganidan dalolat beradi.

Masalan, Samarqand shahar 64-umumta’lim maktabining 5-sinflarida olingan insholar tahlilida yuqoridagi fikrlarni asoslaydigan holatlarni ko’rish mumkin (insho imlo va uslubiy xatolari tuzatilgan holda taqdim etilmoqda):

Ertak haqida taassurotlarim

“Bulbul” ertagida bir podsho bo’ladi. Podshoning o’z bulbuli bo’ladi. Bir kuni Yaponiya imperatori unga yana bir bulbulni sovg’a tariqasida yuboradi. Podsho o’z bulbulidan ko’ra Yaponiya imperatori yuborgan bulbulni yaxshi ko’rib qoladi. Biroq vaqt o’tib, sun’iy bulbul buzilib qoladi. Podsho ham kasal bo’lib qoladi. Tabiblarning davolashi foyda bermaydi. Shunda podsho o’z bulbulini topib kelishlarini so’raydi...

Bir qizcha podshoga rahmi kelib unga bulbulini topishda yordam beradi. Shu tariqa podsho yana tuzalib ketadi”.





Ushbu inshoda asar matni qisqatirilgan holda takrorlangan. O'quvchi eslab qolganlarini qog'ozga tushirishga harakat qilgan, biroq uning asarga bo'lgan munosabati, shaxsiy fikri, ertakdagi asosiy g'oya aytilmay qolib ketgan. O'qituvchi bu o'quvchiga chiroyli bayon uchun bir yoqlamalilik asosida “yaxshi” baho ham qo'yishi mumkindir, biroq undagi asosiy fikrning aytilmay qolib ketayotganligi, adabiy ta'limda jiddiy xato hisoblanadi.

Shu maktabning 6-sinf o'quvchisi Ravshanova Nigina erkin mavzuda quyidagi inshoni (insho imlo xatolari tuzatilgan holda taqdim etilmoqda) yozgan:

Mening sevimli kitobim

“Hayotda har bir insonning sevimli narsasi bo'ladi. Masalan, kimnidir mushugi, kuchugi, yoki sevimli o'yinchog'i bo'lishi mumkin. Mening eng sevimli narsam O'tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” kitobidir.

Men bu kitob haqida 5-sinfda o'qiyotganimda adabiyot darsida tanishganman. O'qituvchimiz dars o'tayotganida “Gilam paypoq”, “O'ris bolaning oyisi” hikoyalarini jon qulog'im bilan tinglardim. Keyin shu kitobni sotib oldim. Sotib olgan kunimoq uni o'qishni boshladim. Kitobdagi boshqa hikoyalar ham menga juda yoqdi. Undagi ona mehri, onaning farzandiga bo'lgan mehribonligi meni ham ayamga bo'lgan munosabatimni o'zgartirdi. Men ayamni yana ham yaxshi ko'ra boshladim. Shu paytgacha bu kitobni juda ko'p marta qayta va qayta o'qib chiqdim. Barcha sinfdoshlarimga ham shu kitobni o'qishni tavsiya qilaman...”

Insho muallifi bir qator imloviy va uslubiy xatolarga yo'l qo'ygan. Jumladan, “kimnidir” so'zida qaratqich o'rniga tushum kelishigi qo'shimchasi ishlatilgan, yoki ayiruv bog'lovchisidan oldin vergulni noto'g'ri ishlatgan, “Men bu kitob haqida 5-sinfda o'qiyotganimda adabiyot darsida tanishganman” gapidagi “haqida” ko'makchisi o'rnida “bilan” ko'makchisi ishlatilishi lozim edi va hk. Ko'rinadiki, kichkinagina inshoda bir talay imloviy va uslubiy xatolar mavjud. Lekin adabiyot darslarida yozilgan insholarda bunday xatoliklar ikkinchi planda qoladi. Adabiy ta'lim uchun o'quvchida munosabat bildirish istagining mavjudligi, uning o'z



mustaqil fikri va qarashlarini qanchalik dadil ifoda eta olishi muhimdir. Shu nuqtayi nazardan yondashganda ushbu insho ijobiy baholanmog'i lozim. Albatta, yozma ishlarga bo'lgan eng muhim talablardan biri matnni imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarsiz yozish. Biroq adabiy ta'lim uchun insholarda aytiladigan sog'lom fikr, ijodkorlikning mavjudligi, bildirilgan munosabatlar bir qadar ustun sanaladi. Shundagina o'quvchilarda yana fikr bildirish istagi paydo bo'laveradi, ijodkorlik shakllanadi, yangi-yangi g'oyalar sari olg'a qadam tashlanaveradi. Yana shunisi ham borki, ona tili darslarida o'quvchilarning savodxonlik darajasi to'g'ri yo'lga qo'yilsa, adabiyot darslarida yozilgan mustaqil ishlarda imlo va ishora xatolariga tabiiy ravishda yo'l qo'yilmaydi.

“Mening sevimli kitobim” mavzusidagi inshoni, agar baholash tizimi 5 ballik asosida bo'lsa, o'quvchining insho mavzusi va asar g'oyasini anglagani, qarashlarini o'z mustaqil fikri bilan asoslay olganligi uchun 5 ball qo'yish, biroq uslubiy kamchiligi, ishoraviy xatolarini ko'rsatib, xatolari ustida ishlashni alohida topshirish adabiy ta'limning maqsadiga muvofiq bo'ladi.

Ko'rik-tanlov, olimpiada va boshqa yo'nalishlar asosida tashkil etiladigan insholarda baholash tartibini 100 ballik asosida baholash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda mavzuni yoritib berganligi 40 ball, o'quvchining o'z shaxsiy munosabatlari, mustaqil fikrining ifodalanganligi 30 ball, yozma savodxonligi 30 ball bilan baholanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jami to'plangan ballar bahoga aylantirilganda 86–100 ball “a'lo” baho, 71–85 ball “yaxshi” baho, 56–70 ballni “o'rta” baho, 0–55 ballni “qoniqarsiz” baho deb hisoblash mumkin.

Maktabda o'quvchilarning mustaqil yozma ishlarini tashkil etishda adabiyot o'qituvchisining asosiy vazifasi tarbiyalanuvchini kerakli material bilan ta'minlash, ishga qanday kirishishni o'rgatish, ishlashga to'g'ri yo'nalish berishdan iboratdir. “Agar mening bolalarga berganlarimni usul deb atash mumkin bo'lsa, - degan ekan L. Tolstoy, - u usullar quyidagilardan iborat:

a) ularga yozma ish uchun eng katta va xilma-xil mavzularni taklif etish va tanlash ixtiyorini berish. Bu mavzular bolalar uchun



maxsus tanlangan bo'lmay, o'qituvchining o'zi uchun ham o'ta jiddiy va qiziq bo'lishi kerak;

b) ularga bolalarning insholarini o'qishga berish va namuna sifatida ham faqat o'z tengdoshlarining ishlarini ko'rsatish;

v) eng muhimi, bolalarning ishlarini tekshirayotganda daftarinig ahvoliga, xatining sifatiga, xatolariga va ayniqsa, uning ifoda tarziga, aytish joiz bo'lsa, uslubiga hech qachon tanbeh bermaslik kerak" [1, 167-b.].

Bugungi kun ta'lim tizimidagi, xususan, adabiyot darslarida insho yozdirishdagi kamchiliklarning asosiy sababi o'quvchilarda kitobxonlik saviyasi past ekanligidir. Kitob o'qimaydigan o'quvchining nafaqat asar qahramonlari haqida so'z yurita olishi, balki oddiy insoniy qadriyatlar borasidagi mulohazalari ham sayoz, asossiz bo'lishi tayin. Maktab ta'limida adabiyot o'qitish tizimi qanday yo'lga qo'yilganligi haqida Q. Husanboyeva quyidagilarni bayon etadi: "Darsliklardagi didaktik ashyolarning vazifasi o'quvchini o'sha eng zo'r asarni mustaqil ravishda qidirib, topib o'qiydigan ma'naviyat egasi sifatida shakllantirishdan iboratdir. Afsuski, bugun maktabda adabiyotdan dars berayotgan o'qituvchilarning hammasi ham buni anglab etganicha yo'q. Darsliklarda hech narsa mualliflarning qolipiga solinmasligi, ularning xulosalariga asoslanmasligi kerak. Darsliklarda bolaga ta'lim jarayonining o'qitilishi kerak bo'lgan, berilishi lozim bilimlar miqdorini miyasiga joylab qo'yiladigan obyekt deb emas, balki darsning o'qituvchi bilan teng maqomdagi ijrochisi va egasi deb qaralishi lozim. O'quvchilar darsning tinglovchisidan, intizomli ijrochisidan bu jarayonning subyekti – ishtirokchisi martabasiga ko'tarilishi zarur. Darsliklarda bu yaqqol aks etib turishi maqsadga muvofiqdir"[1, 311-b.].

O'quvchilarning adabiyot darslarida yozgan ijodiy ishlarini baholash uchun boshqa davlatlarning insholarni baholash mezonlariga asoslanilgan holda maxsus mezonlar belgilab olinish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Badiiy so'zga tayanilgan ijodiy ishlar uchun: badiiylik va tafakkur obrazliligining ustuvorligi.



2. Nazariy-adabiy tushunchaga tayanilgan ishlar uchun: nazariy bilimlarning ustuvorligi, ijodiy tafakkur unsurlarining mavjudligi (aqlning egiluvchanligi, mantiqiy fikrlash, ketma-ketlilik).

3. Axloqiy tushunchalarga tayanilgan ishlar uchun: estetik vaziyatning mavjudligi, o'qilganlarni shaxsan tushunib yetilganlik darajasi.

4. Ma'lum maqsadga yo'naltirilgan insho turlariga xos bo'lgan xususiyatlarning tushunilganligi darajasi.

5. Insho mavzusi va g'oyasini izohlashda mushohadaning mavjudligi hamda asardagi yetakchi qarashlarni tushunib yetganlik.

6. Inshoning originalligi (g'alati qahramonlar, mustaqil o'ylab topilgan qiziqarli narsa-hodisalar, g'ayrioddiy harakatlar) va bqlarning mavjudligi.

7. Fikr ifodalashda mantiqiylik, ketma-ketlilik, sharhlash, tasavvur faoliyatining mavjudligi.

8. Nutqning hissiylik darajasi, inshoda monolog va dialoglardan foydalanilganlik darajasi.

9. Insho yozishda o'quvchilarning shaxsiy munosabat bildirish ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasi.

10. O'quvchilarning insho mavzusini ochib berishdagi ijodiy yondashuvi, mustaqil munosabatlarning mavjudligi.

11. Insho yozishda o'quvchi faoliyatining erkinlik, onglik, ixtiyoriylik tamoyillariga asoslanganligi.

12. O'quvchilarda voqea-hodisa, shaxs va uning xatti-harakatiga munosabat bildirish ko'nikmasining shakllanganlik darajasi.

13. O'qilgan asardan olgan taassurotlarini yorqin ifodalab bera olish darajasi.

14. Adabiy qahramonlarning xatti-harakatlariga bildirilgan munosabatini asoslay bilishi.

15. Adabiy tarixiy davrlar, adiblar ijodiga berilgan bahoning haqqoniyligi va asosliligi [5].



Xulosa qilib aytganda, o'quvchida dialektik fikrlash qobiliyatiga egalik, qabul qilgan qarori uchun javobgarlikdan qo'rqmaslik va yangiliklar o'ylab topa bilish qobiliyatini shakllantirishga imkon beradigan ijodiy tafakkur va erkin tasavvurni rivojlantirish adabiyot o'qituvchilarining asosiy yumushi hisoblanadi. O'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatini, xayol qilish istagini uyg'ota bilish o'z fikri va dunyoqarashiga ega bo'lgan barkamol avlod tarbiyasining samaradorligini ta'minlaydigan yo'ldir. Bunday avlod Vatanimizning ertangi kuni, sharafiga va vijdoni bo'lib ulg'ayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboeva Q. Tahlil adabiyotni anglash yo'li. – T.: Sharq, 2013. – 346 b.
2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. – T., Noshir, 2009. – 232 b.
3. Madayev O. Insho qanday yoziladi. – T.: O'qituvchi, 1991. – 120 b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006. – 671 b.
5. <https://neznaika.pro/criteria.html>



O'ZLASHTIRISH DARAJASINI BAHOLASH – TA'LIMNING MUHIM KOMPONENTI



Nazokat YUSUFJONOVA

*ToshDO'AU o'qituvchisi,
pedagogika bo'yicha falsafa
doktori.*

El-manzil:

Senator_advokat@mail.ru

Annotatsiya. *O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va baholash muhim pedagogik jarayon bo'lib, o'qituvchi bunda nimani talab qilsa, talaba yoki o'quvchi shuni ko'proq o'zlashtiradi.*

Bugun ta'lim bilim yoki matnga emas, ko'nikmalarga asoslangan bo'lishi va maktab o'quvchilarni hayotga tayyorlashi lozim. Bu o'z-o'zidan o'quv dasturlari, o'qitish usullari, baholash tizimi va ta'limiy muhitni yangilashni taqozo etadi.

Maqolada an'anaviy baholash tizimining o'ziga xosligi va ayrim kamchiliklari tahlil qilinib, adabiy ta'limda o'quvchilarning o'z-o'zini baholash mezonlari uchun namuna tavsiya qilingan.

Kalit so'zlar: *an'anaviy baholash, xalqaro baholash dasturlari, formativ va summativ baholash, o'z-o'zini baholash mezonlari, zamonaviy tendensiyalar.*

Ma'lumki, bugun vaqtga emas, o'rganish natijalariga asoslangan ta'lim samarali, deb baholanmoqda.

Dalillarni yod oldirishga mo'ljallangan ta'lim o'z o'rnini bilish va qila olish ko'nikmalarini rivojlantirishga mo'ljallangan, o'quvchining mustaqil faoliyatiga qaratilgan ta'limga bo'shatib



bermoqda. Shunday ekan mustaqil fikrlash hamda o'z intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga qodir yoshlarni tarbiyalash, qolaversa, ta'limda kompetensiyaviy yondashuvga o'tish uchun ham ta'limiy muhitni yangilash talab qilinadi [1].

O'quv dasturlari, o'qitish usullari va baholash jarayoni ta'limning uch muhim komponenti sanaladi. Ular o'rtasidagi muvozanatning buzilishi ta'lim samaradorligining keskin pasayishiga sabab bo'ladi.

XX asrda o'qituvchiga o'quvchini baholay oladigan yagona hakam sifatida qaralgan bo'lsa, hozirgi kunda o'quvchi uning o'zi yoki sinfdoshlari va jamoatchilik tomonidan ham baholanishi mumkin.

Ma'lumki, "Baholash – biron bir domen (bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalar majmuyi)ning ta'lim oluvchilarda shakllanganlik darajasini o'lchash jarayoni"dir [2, 10-b.].

Bugun umumta'lim maktablarida o'quvchilar maktabda egallagan bilim, ko'nikma va malakalar 5 ballik tizimda baholanadi.

Mazkur tizimning hisob-kitob qilishning osonligi jihatidan bir qator afzalliklari borligini e'tibordan qochirmagan holda uning noxolis va tasodifiy xarakterga egaligini ham ta'kidlash o'rinli.

Ya'ni, o'quvchi o'zlashtirgan bilimning darajasini aniq o'lchashning imkoni yo'q.


Shuning uchun ham o'qituvchi o'zining bilimi yoki sinfdagi boshqa o'quvchilarga nisbatan baholashga majbur.

An'anaviy baholash tizimining yana bir kamchiligi o'quvchining bilimini o'stirish, o'qishga rag'bat uyg'otish, o'z ustida ishlab, xatolarini tuzatishiga emas, uning hozirgi darajasini ta'kidlash hamda kamchiliklarini yana bir bor ko'rsatishga qaratilgani bilan ham xarakterlanadi.

Qolaversa, axborotni qabul qilish, o'zlashtirish va o'z bilganlarini namoyon qilish darajasi turlicha bo'lgan o'quvchilarni baholashda bir xil topshiriqlardan foydalanish mantiqan to'g'ri emasligi quyidagi suratda ham aks etgan¹:

¹ O'qituvchining gapi: Imtihondan o'tish uchun barchangiz marhamat qilib daraxtga chiqing.





Bugungi kunda dunyoda ENQA, EQAR, NOQA, INQAAHE, EUR-ACE, SICI, Quality Audit Network, PISA, Pirls, TIMMS kabi bir qator xalqaro baholash dasturlari mavjud, ammo ularning hech biri o'quvchilar bilimini baholashning eng optimal variantlarini bermaydi. Har bir o'qituvchi o'quvchining yosh xususiyatlari, o'zlashtirish darajasi va salohiyatidan kelib chiqib, nazorat turlarini tanlashi va baholashi lozim bo'ladi. Zero, baholash tizimi nafaqat nazorat qilishga, balki boshqarish va rivojlantirishga ham xizmat qilishi lozim.

Bugun jahon pedagogik amaliyotida o'quvchilarni tadqiqotlar, loyihalar va taqdimotlar orqali baholash, ularda qat'iyatlilik, ilmiy muammolarni hal etish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, tadbirkorlik ko'nikmalari, jamoa bilan ishlash kabi XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish afzal ko'rilmoqda [3]. Ayrim horijiy davlatlarda o'quvchilar bilimini baholash tizimi “Kelajakka nazar solish” prinsipi asosida ish olib boradi. Baholashning sifat kafolati va samaradorligi hamkorlik va o'zaro ishonchga asoslangan bo'lib, o'qituvchilar o'rtasida baholash jarayoni yuzasidan muntazam ravishda ochiq muhokama va debatlar o'tkazib boriladi [4].

Tadqiqotlarga ko'ra, hozirda qo'llanib kelinayotgan diagnostik, formativ va summativ baholash turlaridan ko'ra talabalarning



o'zini-o'zi baholashi afzalroq bo'lib [5], quyidagi jadvalda adabiy ta'lim misolida o'quvchilarning "O'z-o'zini baholash mezonlari" namunasi aks etgan.

Unda o'quvchilarning og'zaki javob berishda e'tibor qilishi lozim bo'lgan jihatlar hamda yozma ishlarni bajarishda amal qilishi talab etiladigan qoidalar o'z ifodasini topgan.

Nº	Og'zaki javoblarni baholash mezonlari	Qila oldim	Qila olmadim
1	Fikrlarni aniq va tushunarli tarzda yetkaza olish.		
2	Fikrlarni asardan misollar keltirish orqali asoslash.		
3	Nutqning tozaligi, to'g'riligi va ishonarliligiga e'tibor berish.		
4	Asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yuzasidan aytilgan fikrlarda turli manbalardan foydalanish.		
5	Qahramonlar xatti-harakatlari va fe'l-atvorini qiyoslash, umumlashtirish orqali asarda ko'tarilgan asosiy muammoga munosabat bildirish hamda tanqidiy yondashish.		
6	O'rganilgan yangi lug'atdan foydalanish.		

Nº	Yozma javoblarni baholash mezonlari	Ha	Yo'q
1	Gaplarni til qoidalariga muvofiq ravishda tuzdim va imlo qoidalariga amal qildim.		
2	O'z fikrlarimni aniq, tushunarli tarzda bayon qildim va asardan misollar bilan asoslab berdim.		
3	Badiiy tasvir vositalaridan foydalandim		
4	Asar qahramonlarining o'xshash va farqli jihatlariga e'tibor qaratib, mustaqil fikrlarimni bildirdim.		
5	Fikrlarimni ifodalashda boshqa fanlarga oid bilimlarimdan ham foydalandim.		
6	Yozma ishda mantiqiy ketma-ketlikka amal qildim, fikrlarimni umumlashtirdim, xulosalar chiqardim.		
7	Takrorlar bo'lmasligiga e'tibor qaratdim va kerakli hajmda yozdim.		





O'quvchi ushbu mezonlarga qanchalik rioya etganini o'zi belgilaydi va o'zlashtirish darajasini bilib oladi. Keyingi mashg'ulotlarda qatnashish va uy vazifalarini tayyorlashda ana shu jihatlariga e'tibor qaratadi. O'z faoliyatini o'zi tekshirishi, to'g'rilashi va baholashi o'quvchining kamchiliklarini xolis tushunib yetishi, o'z ustida ishlashiga yordam beradi.

O'quvchini ma'lum raqamlar bilan baholamay, bajargan vazifasining darajasiga mos maqto'v so'zlar aytish yoki to'ldirishi lozim bo'lgan jihatlariga e'tiborini qaratish ham oson ish emas. Sinfda o'quvchilar ko'p, shu bois uyga berilgan vazifani tekshirib olish ham anchagina mushkul. Har bir o'quvchining o'zlashtirish darajasini tekshirish anchagina vaqt oladi, ayniqsa o'tiladigan yangi mavzu mazmun jihatidan katta bo'lsa. Keling, uy vazifasini tezda tekshirib olishga doir bitta metodni ko'rib chiqamiz.

Deylik, biror adibning hayoti va ijodini mustaqil o'qib kelishni topshiriq qilib bergansiz. O'zingizga adib hayotiga oid yarmi to'g'ri, yarmi noto'g'ri bo'lgan 10–12 ta ma'lumot tayyorlab oling. To'g'ri ma'lumotlarni o'qiganingizda o'quvchilar o'rnidan turishi kerak, aksi bo'lganda esa o'tirishlari. Sanalar, joy nomlari, adib asarlarining nomlari o'zgartirilgan, xato ma'lumot aytganingizda o'rnidan turmagan o'quvchilaringizga savol bering: “Sen nega o'rnindan turmading? Qaysi ma'lumotni xato aytdim? Aslida qanday bo'ladi?” kabi.

Xuddi shunday o'rnidan turgan o'quvchilarga ham qo'shimcha savollar berishingiz mumkin. Bu mashg'ulotda uy ishi qilmay kelgan o'quvchilar ajralib qoladilar. Chunki ular sekin, ikkilanib harakat qiladilar va ko'zlari a'lochi o'quvchilarda bo'ladi.

Harakatli mashg'ulotlar o'sib kelayotgan bola fiziologiyasi uchun ham juda muhim. Vaqt taqsimotida mana shu jihatlariga ham e'tibor qilish lozim. Uyga vazifalarni esa variativ shaklda berish o'quvchilarning bilim va qiziqishlari, layoqati va qobiliyatini xolis baholashda yordam beradi.

2020 yilda o'tkazilgan Jahon Iqtisodiy Forumida o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan besh muhim kelajak ko'nikmalari





rasman ma'lum qilingan edi [7]. Bular – *muammoga yechim topish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, odamlarni boshqarish va jamoada ishlash hamda muloqot ko'nikmalari*.

O'quvchilar egallagan bilim va ko'nikmalar zamonaviy tendensiyalarga qanchalik javob bera olishini aniqlay oluvchi ilmiy-ijodiy loyihalarga asoslangan nazorat turlari va baholash tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etishgina kelajak egalari bo'lgan yoshlarda ana shunday hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.globalpartnership.org/sites/default/files/2019-04-gpe-esp-uzbekistan.pdf>.
2. Жалилов К. Баҳолаш назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2020. 10-бет.
3. Pingel F. UNESCO Guidebook on textbook research and textbook revision. Paris: Braunschweig, 2010.
4. Электрон манба:
https://www.researchgate.net/publication/282182499_Problem-Based_Learning_in_ESL_Classroom_Students%27_Perspectives
5. Hopfenbeck A., Ingram J., Ian T. A marked improvement? A review of the evidence on written marking. – Oxford: Department of Education, 2016.
6. Kirby J. Marking is a hornet. 2015. – Электрон манба:
<https://pragmaticreform.wordpress.com/2015/10/31/markings-is-a-hornet/>.
7. Global Competitiveness Report Special Edition 2020: How Countries are Performing on the Road to Recovery. – Электрон манба:
<https://www.weforum.org/reports/the-global-competitiveness-report-2020/>



ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNI QIZIQTIRISH USULLARI



Kamola NABIYEVA

*Yunusobod tumani 274-umumta'lim
maktabining ona tili va adabiyoti
o'qituvchisi.*

El-manzil:

kamola.nabiyeva.90@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarni qiziqtiruvchi turli metodlar va o'yinlar yoritib berilgan. Tavsiya qilinayotgan metod hamda o'yin texnologiyalari asosan darsning mustahkamlash qismi uchun mo'ljallangan.*

Namuna sifatida 9-sinf adabiyot darsligidagi Odil Yoqubovning “Ulug'bek xazinasini” hamda Abdulla Oripov “Sohibqiron” dramalari asosida bellashuv darsi uchun metodik tavsiyalar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *darslik, kirish qism, tahlil, metod, kreativlik, ta'limiy o'yinlar, bellashuv, drama.*

Yurtboshimiz tomonidan aytilgan “Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda” degan fikrlar biz o'qituvchilar zimmasiga ulkan, mas'uliyatli va ayni damda sharafligi bo'lgan vazifani yuklaydi.

Zero, bugungi berilayotgan ta'lim, tarbiya, bilim ertangi kelajakdir.

Demak, yurt ertasining qanday bo'lishi ko'p jihatdan pedagoglarning salohiyati va mahoratiga bog'liq.



Avvalo, bugungi o'quvchi qanday? U o'z ustozidan nimalarni kutadi? U qanday o'rganishni istaydi?

Shu kabi savollarga javob topish va amaldagi metodikani bir qayta ko'rib chiqish zarur.

Barkamol avlodni tarbiyalash borasida adabiy ta'lim tutadigan mavqe adabiyot fanini o'qitishni har jihatdan puxta yo'lga qo'yishni taqozo etadi.

Bola nasihatni xushlamaydi. U o'zini kichik deb o'ylaganlar, unga aql o'rgatib, yo'l ko'rsatadiganlar bilan ko'ngillashmaydi. Bola tenglik istaydi, baravarlik istaydi.

Chunki, bugungi o'quvchi – texnika asri avlodi, u internet tarmoqlarida faol, tezkor va rang-barang tasvirlarni ko'rib ulg'aymoqda. Uning diqqatini jamlash, fanga qiziqтира olish bugungi kun o'qituvchisidan o'z ustida tinmay izlanishni, yangiliklarga boy, qiziqarli, zamonaviy usulda dars o'tishni talab etadi.

Adabiyot insonga o'z tuyg'ularini boshqarishni, tushunishni o'rgatadi. Fikr tuyg'ularni uyg'ota olmasligi mumkin, ammo tuyg'u fikr uyg'ota oladi. Fikrlashga o'rgatish borasida adabiyotning o'rni shuning uchu ham beqiyosdir.

Olamni anglamoq, bilmoq, idrok etmoq tasavvurdan boshlanadi.

Tasavvurlar olami shu qadar keng, bepoyon, miqyosliki, ruhimiz unda parvoz qiladi.

Aslida ijodkor barkamol asar yaratish uchun bepoyon tasavvurlar dunyosiga ham ega bo'lmog'i lozim. Iste'dod va bilim, hayotiy tajriba bilan o'ziga xos uslub birlashib, tasavvur dunyosida tug'ilgandan so'ng kitobxon qalbini larzaga soladi.

Qalbimizni larzaga solarlik holatga kelgan chinakam badiiy asar o'z muallifini ham lol qoldirishi mumkin.

Mikelandjelloga o'zi yaratgan haykal tirikday ko'rinib, qo'rqib ketganligi, Balzak qahramoni o'lganda yurak xurujiga uchragani, Qodiriy Kumush o'lganini tasvirlash chog'ida yum-yum yig'lagani haqidagi ma'lumotlar behuda emas.

Adabiyot o'qituvchisi misralar qatiga yashiringan ma'nolarni, ulardagi nozik ishoralarni o'quvchiga his qildiradi olishi, go'zal tasvir



va jozibali tuyg‘ulardan hayratlantirishga erishmog‘i juda muhim sanaladi.

Shu o‘rinda afsus bilan aytish lozimki, yurtimizda kitobxonlik darajasi pastlab bormoqda.

Ayni shu jarayonda adabiyot o‘qituvchisining darslarni qiziqarli, badiiy asar tilini o‘quvchilariga yetkazib bergan holda tashkil etishi muammoga yechim bo‘lib xizmat qila oladi. Zero, kitob mutolaasiga mehr adabiyot darslarida shakllanadi va rivoj topadi.

Bugungi o‘quvchilarning darslarga layoqatsizligidan kelib chiqib aytishim mumkinki, ularni “o‘ynatib, o‘qitib olish” qabilida ish tutish mening darslarimda o‘z samarasini bergan. Shu o‘rinda adabiyot darslarining kirish qismi uchun bir qancha o‘zim qo‘llagan ta’limiy o‘yinlarni metodik tavsiya sifatida berib o‘tmoqchiman.

“Izoh sizdan, topish bizdan” o‘yini

Ushbu o‘yin o‘tilgan mavzularni mustahkamlash, nutqiy va hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quvchilar 3 guruhga bo‘lingan holda tashkil etiladi. O‘qituvchi stolida mavzuga doir atamalar, asarning nomlari yoxud qahramonlar ismlari yozilgan kartochkalar teskari holatda qo‘yiladi.

Navbat bilan har bir guruhdan bittadan ishtirokchi chiqib, kartochkalardan birini tanlaydi va o‘z guruhiga yuzlangan holda yozilgan so‘zni izohlab, tushuntirib berishi lozim bo‘ladi. Guruhdoshlari esa so‘zga berilgan izoh asosida o‘sha tushunchani topishlari kerak bo‘ladi.

Bu o‘yin orqali o‘quvchilarning tushunish hamda tushuntira bilish, kollaboratsiya – jamoa bilan ishlash qobiliyati, kommunikativlik – muloqot qilish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Yuqoridagi izohlar tavsiyaviy bo‘lib, o‘quvchi o‘z tafakkuridan kelib chiqib tushunchani izohlashi mumkin.

O‘yinning asosiy sharti – tushunchalar badiiy adabiyotga aloqadorlikda izohlanishi lozim.



“Rangli konvertlar” o‘yini

Yangi mavzuni, yangi qoidalarini o‘rganishda tezda yod olishga yordam beruvchi “Rangli konvertlar” o‘yini juda qiziqarli bo‘ladi. Adabiyot darslarida asarlarning tur va janr xususiyatlari, qaysi she‘riy san’atlardan foydalanilganligini aniqlash uchun nazariy bilimlar ham zarur. Darsda nazariy bilimlarni berish zerikarli tus olmasligi hamda faollikni oshirish, o‘quvchilar diqqatini jamlab olish maqsadida ushbu o‘yindan foydalanish mumkin. Buning uchun bizga 3–4 rangdagi konvertlar va yangi mavzuga doir 3–4 qoida yozilgan kartochkalar kerak bo‘ladi.

Qoidalar o‘qituvchi tomonidan o‘qib tanishtiriladi va birin-ketin konvertlarga solinadi. So‘ngra qaysi konvertga qaysi qoida joylangani haqidagi savol bilan o‘quvchilarga murojaat qilinadi. O‘quvchilar o‘yin o‘ynash jarayonida yangi qoidalarini osongina yodlab olishadi. Quyida 8-sinf *She‘riy san’atlar* mavzusiga taalluqli qoidalar namuna sifatida berildi.

1. **Qizil konvert.** She‘riy asarlarda maqol, matal hamda hikmatli so‘zlardan foydalanish san’ati ***Irsoli masal*** deyiladi. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari ushbu san’at asosiga qurilgan.

2. **Yashil konvert.** ***Talmeh*** – badiiy asarda biror voqea-hodisa, tarixiy fakt, adabiy yoxud afsonaviy qahramon nomini tilga olish yoki unga ishora qilish san’ati. Farhod va Shirin, Layli-yu Majnun kabilarning ismlarining qo‘llanilishi eng mashhur namunalardan biri.

3. **Sariq konvert.** ***Tajnis*** san’ati shakli bir xil, ma’nosi har xil so‘zlarni qo‘llash orqali hosil bo‘ladi. Ushbu she‘riy san’at tuyuq janrining paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

4. **Ko‘k konvert.** Shoir ijod qilar ekan, u she‘riy san’atlardan foydalanishni nazarda tutmaydi. Uning qanday san’atlarni qo‘llaganligi ijodining tahlili jarayonida anglashiladi.

Bu metoddan nafaqat, adabiyot, balki boshqa o‘quv fanlari ta’limida ham foydalanilsa o‘quvchilarning darsga yanada qiziqishiga, qoidalarini o‘yin tarzida o‘zlashtirib olishiga yordam beradi. Ularning xotiralari ham biryo‘la sinovdan o‘tkaziladi.



"Intellectual futbol" o'yini

Futbol so'zini eshitishlari bilan o'quvchilar, ayniqsa, o'g'il bolalar tezda diqqat qiladilar. Bu o'yin uchun magnit doska, futbol darvozasining surati, to'p shaklidagi kartochkalar va magnit donalari kerak bo'ladi. Jismoniy tarbiya fani bilan integratsiya tarzida o'tiladigan ushbu o'yin savol-javob asosiga qurilgan.

Doskaga futbol darvozasining surati ilinadi, savollar esa to'p shaklidagi kartochkalarga yozilgan. O'quvchilarga "Kim bugun intellektual futbolda darvozaga "goll" kiritmoqchi?" deya savol beriladi va orqasiga savol yopishtirilgan to'p shaklidagi kartochkalar beriladi. Savolga javob bera olgan o'quvchi to'pni nishonga urgan hisoblanadi, javob berolmagan holatda esa "out" deb e'lon qilinadi va to'p darvoza tashqarisiga yopishtirib qo'yiladi. "Intellectual futbol" o'yini o'quvchilarga savollar berishning qiziqarli usullaridan biridir. Quyida "Kuntug'mish" dostoni yuzasidan tayyorlangan savollar namuna sifatida keltirildi.

"Kuntug'mish" dostoni yuzasidan savollar

1. Xolbeka ko'rgan tushini so'zlab bering.
 2. Xolbekadan rad javobini olgan Buvraxon qanday farmonni e'lon qiladi?
 3. Xolbeka suvga oqizgan sandiqqa nimalarni soladi?
 4. Kuntug'mish va yigitlar o'ljani qanday bo'lishib oladilar?
 5. Kuntug'mish 14 yoshida qanday hunarlardan xabardor edi?
 6. Zangarga kelgan Kuntug'mish Xolbekani ko'rish uchun qanday yo'l tutadi?
 7. Dostonda "Baxt ham egiz, mehnat ham egiz" maqoli qaysi o'rinda, nima maqsadda qo'llanilgan?
 8. Kuntug'mish farzandlarining ismlarini ayting va ularning ma'nosini tushuntiring.
 9. Kuntug'mish qanday qilib Zangarga podshoh bo'ladi?
- Savolga javob bera olgan o'quvchi to'pni nishonga urgan hisoblanadi, javob berolmagan holatda esa "out" deb e'lon qilinadi va to'p darvoza tashqarisiga yopishtirib qo'yiladi. "Intellectual futbol" o'yini o'quvchilarga savollar berishning qiziqarli



usullaridan biridir. Yuqoridagi kabi savollar orqali o‘quvchilarning topqirligini va ziyrakligini oshirish, mavzuni yanada mustahkamlab olish mumkin.

“Xotira mashqi” o‘yini

O‘quvchilarni “Xotira mashqi” o‘yini bilan faollashtirish mening darslarimda doimo o‘z ijobiy samarasini bergan. Masalan, o‘qituvchi 9-sinf o‘quvchilariga avvalgi choraklarda yoki 8-sinfda o‘tilgan asarlardan bir misradan namunalar keltiradi. O‘quvchilar ushbu misralar muallifini va uning qaysi asariga tegishli ekanligini aniqlashlari lozim.

“Xotira mashqi” o‘yini uchun namunalar

1. Kechqurun osh suzsak, bir nasiba kam. (G‘.G‘ulom “Sog‘inish” she‘ridan).
2. Poyida yig‘laydi kumush qor yum-yum. (Oybek “Na‘matak” she‘ridan).
3. Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat (Nodirabegim “Oqibat” g‘azalidan).
4. Hamon tilla qadahda qon ichar Sezar. (Usmon Nosir “Nil va Rim” she‘ridan).
5. Vatangado kimsaga davr qayda, davron qayda?
Bahor, ketma mening bog‘imdan. (To‘ra Sulaymon “Iltijo” she‘ridan).
6. Aziz asrimizning aziz onlari,
Aziz odamlardan so‘raydi qadrin. (G‘.G‘ulom “Vaqt” she‘ridan).
7. Mushkin qoshining hay‘ati ul chashmi jallod ustina.
(Ogahiy “Ustina” g‘azalidan).
8. Dedi: – “Bu so‘zlaringdin yaxshiroq qatl”. (Navoiy “Farhod va Shirin”).
9. Masala adolat va haqiqat masalasidir. Haqiqat olomon tarafidadir. (Oybek “Navoiy” romanidan).
10. Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi. (Oybek “O‘zbekiston” she‘ridan).



11. Qodiriyni sotib shoir bo'lganlar, Mehrobingdan chiqqan chayonlarning bor... (M.Yusuf “Yurtim, ado bo'lmas armonlarning bor” she'ridan).

12. Bog'bon, gulbargi xandoning kerakmazmi sanga? (Fuzuliy “Kerakmazmi sanga?” g'azalidan).

Shu tarzda kirish qismida faollikni oshirgan holda darsni davom ettirish mumkin. Adabiyot darslaridagi badiiy asar tahlillari, nazariy bilimlar til me'yorlari bilan hamnafas tarzda amalga oshirilsa, uning ta'sir doirasi yanada kengayadi. Biz ularni o'quvchilarga murakkab usulda o'rgatib o'z adabiyotimizdan sovutib qo'ymaslikka harakat qilishimiz lozim. Bolalarga va kasbga bo'lgan muhabbat, qiziqarli o'yin texnologiyalari, rang-barang metodlar asosida tashkil etilgan dars o'quvchilarning kelgusi darsni ham intiqlik bilan kutishlariga sabab bo'ladi. Yuqorida tavsiya qilingan o'yin texnologiyalarini har bir mavzuga qay tartibda qo'shish o'qituvchining kreativligiga bog'liq.

Bellashuv darsi uchun o'yin texnologiyalari

O'zbek xalqining sevimli yozuvchisi Odil Yoqubovning nomi 9-sinf o'quvchilariga avvaldan tanish. Ular 6-sinfda “Muzaymoq” (amaldagi 6-sinf adabiyot darsligida “Yaxshilik”) hikoyasini o'rganish orqali yozuvchi ijodi haqida, uning bolaligi haqida birmuncha tasavvurga ega bo'lganlar. Ushbu hikoya o'ziga xos mazmuni, ta'sirchanligi bilan o'quvchilar qalbida qolgan bo'lsa, ajabmas.

9-sinfda Odil Yoqubov bilan tarixiy yozuvchi sifatida tanishish ularga adibning ko'pqirrali ijodkor ekanligidan dalolat beradi. Darslikda “Ulug'bek xazinasi” romanidan parcha berilgan bo'lib, ushbu mavzuga umumiy 5 soat ajratilgan. Mavzu yakunlangach darslikdan zamonaviy o'zbek she'riyati rivojiga barakali hissa qo'shgan, adabiyot olamiga o'z mavzusi bilan kirib kelgan shoir Abdulla Oripovning “Sohibqiron” dramasi o'rin olgan, unga esa o'quv rejasida 4 soat vaqt berilgan. Ikki tarixiy asar tushunarligi, sermazmunligi hamda real voqealarga asoslanganligi bilan o'quvchilar e'tiborini torta oladi. “Ulug'bek xazinasi” romani va



“Sohibqiron” dramasi dan olingan parchani o‘qib-o‘rganish hamda tahlil uchun jami 8 soat ajratsak, bir soatni ushbu ikki mavzu yuzasidan sinfdagi o‘quvchilar o‘rtasida bellashuv tarzida tashkil etishga rejalashtirish mumkin. Bu sinfdagi o‘quvchilarning qobiliyati va ishlash mahoratiga ham bog‘liq. Bunda o‘quvchilarning asar yuzasidan o‘rgangan bilimlari yanada mustahkamlanadi. Natijada, o‘qituvchi o‘quvchilarning zerikishiga, bilimlari kemptik bo‘lib, uzilib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bellashuv darsi sinfxonada, ikki guruhga bo‘linib, elektron doska yoki televizorda namoyish etiladigan slayddan foydalangan holda tashkil etiladi.



1-guruh

“Ulug‘bek xazinasi” ixlosmandlari



2-guruh

“Sohibqiron izdoshlari”

Guruhlar 4 shart bo‘yicha o‘zaro bellashadilar:

1-shart: Zukkolik sinovi.

2-shart: “To‘g‘ri yoki noto‘g‘ri” usuli.

3-shart: “Rasmlar nelardan so‘zlar?” o‘yini.

4-shart: “Intervyu” usuli.

1-shartga ko‘ra guruhlar ga ketma-ketlik asosida savollar beriladi. Savollar slayd ko‘rinishida o‘quvchilar e‘tiboriga havola qilinadi. Slaydda javoblar animatsion usulda ko‘rinadi. Har bir to‘g‘ri javob uchun 1-guruhga Mirzo Ulug‘bek, 2-guruhga esa Amir Timur surati aks etgan rag‘bat kartochkalari “Natijalar ko‘zgusi” ga, ya‘ni magnit doskaga yopishtirib boriladi, bu qaysi guruh faol ishtirok etayotganini, to‘g‘ri berilgan javoblar sonini aniqlashga yordam beradi.

1-shart. “Ulug‘bek xazinasi” ixlosmandlari guruhiga beriladigan savollar:



1. Mirzo Ulug'bekni eng ko'p qiynayotgan masala nima edi?
2. Asardagi tarixiy hamda to'qima obrazlarni ayting.
3. Asardagi **usturlob** so'zi bugungi kundagi qaysi predmetning nomini anglatadi?
4. Asardagi **poytaxt shahar** ma'nosini izohlovchi tushunchani ayting.
5. **Abdullatif taxtga o'tirgach.....** Yozuvchi kimning kitobidagi qaysi so'zlar bilan asarni boyitgan?

"Sohibqiron izdoshlari" guruhiga beriladigan savollar:

1. Tarix bilan bog'lagan holda **"Loy jangi"** haqida ma'lumot bering.
2. Amir Temurning shamshiriga qanday bitik yozilgan edi?
3. Bibixonim Amir Temur hayotida muhim o'rin tutganligi dramada qanday ifodalangan?
4. Shayxulislom Sohibqironning tug'ilishi haqida qanday ma'lumotlar aytdi?
5. **"Men bir lang-u, sen esa ko'r, notavon so'qir"**. Temur kimni nazarda tutgan?

Har bir slaydda guruh nomidan kelib chiqqan holda, Mirzo Ulug'bek va Amir Temur suratlari aks etgan. So'roq belgisi ortida esa, javoblar yashiringan. Animatsion usulda javoblar biryo'la tekshirib boriladi. Savollarda tushunchalar izohini so'rash orqali o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, fikrlash – biror masala yechimini izlash, qandaydir savolga javob topish jarayoni. Ammo har qanday savol yoki topshiriq ham fikr mustaqilligi va faolligini talab qilavermaydi. Inson tafakkuri mustaqilligini faollashtirishning birinchi sharti uning oldiga chigal masala qo'yishdir. O'quvchini topqirlikka undovchi, intellektual faolligini hamda o'ziga ishonchini oshiruvchi o'yinlar orqali darsda ko'zlangan maqasadga erishish mumkin. Shunda bilim olish jarayoni har bir bola uchun qiziqarli faoliyatga aylanadi. Shu o'rinda o'rganilgan asarlar yuzasidan **"To'g'ri yoki noto'g'ri"** o'yinidan foydalanish ham samarali hisoblanadi.



**"Ulug'bek xazinası" ixlosmandlari guruhi uchun tayyorlangan
ma'lumotlar**

Boboali Husayn Mirzo Ulug'bekning sevimli shogirdi edi.

Abdullatif Mirzo Sulton Jondor bilan til biriktiradi.

**Ali Qushchi bilan Qalandar Qarnoqiyl xazinalarni
rasadxonadan lahim kavlab, o'sha yerga yashiradilar.**

Abdullatif otasi bilan uchrashgach o'z xatosini anglab yetdi.

**Abdulatifning tushiga otasi va uning vafot etayotgan lahzasi
kiradi.**

**"Sohibqiron izdoshlari" guruhi uchun tayyorlangan
ma'lumotlar**

**Amir Temur Boyazid bilan bo'lgan jangda o'zi qo'shinni o'ng
tomondan boshqaradi.**

**Amir Temur Amir Husayn bilan Balxda tanishgan bo'lib,
uning yaqin do'sti edi.**

**Boyazid Yildirim Temurni jangga chorlab, uning
nafsoniyatiga teguvchi xat jo'natadi.**





Dramada Qosimbek keltirgan xushxabar uchun Temur unga o'z nabirasini berishini va'da qiladi.



Temur Boyazid qo'shinlarini ayovsiz qirib tashlashga buyurdi.

Ushbu o'yinda o'qituvchi, har bir javobdan asos, ya'ni izoh so'rashi muhim bo'lib, bunda o'quvchining taxminiy javobi emas, balki asosli, asar asosida berilgan javobigina inobatga olinadi va to'g'ri javob deya qabul qilinadi.

Badiiy adabiyot hayotni so'z vositasida va timsollar orqali aks ettiradi. O'quvchilarga so'z qudratini namoyish etishda ko'rgazmali quroldan foydalanish muhim ta'limiy ahamiyatga egadir. O'qituvchi asarlarni o'tish jarayonida o'quvchilarga asarlarda ifodalangan voqealar to'g'risida aniq va yorqin taassurot hosil qilishga erishmog'i lozim.

Buning uchun ta'sirli nutq bilan birgalikda badiiy tasviriy ko'rgazmali qurollar – rasmlardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. O'quvchilar mashg'ulotda ko'rish orqali mavzun tez, puxta o'zlashtirib oladilar.

Bellashuv darsida o'quvchilarning asarlarni qay darajada sinchkovlik bilan o'rganganliklarini aniqlash maqsadida **"Rasmlar nelardan so'zlar?"** o'yinini qo'llash mumkin.

Bunda asardagi biror lavha, detal, qahramon kabilar aks etgan suratlar namoyish etiladi.

Guruhlar suratda aks etgan narsa yoxud shaxsning asardagi aynan qaysi o'rinda uchraganini, yozuvchi nima maqsadda ushbu detaldan foydalanganini izohlashlari lozim.



“Ulug‘bek xazinası” ixlosmandlari guruhi uchun rasmlar



Mirzo Ulug‘bek Ko‘ksaroydagi xonada. O‘rtadagi xontaxtada sovib qolgan kabob. Lekin ovqatdan shubhalangan Mirzo Ulug‘bek hanuz tuz totgani yo‘q




— Amir Sulton Jondor! — dedi Mirzo Ulug‘bek. — Humo qushi kimning boshiga qo‘nur, buni yolg‘iz haq taolo biladur.



Mirzo Ulug‘bek patirni olib ushatdi.

Patirning orasidan naycha qilib o‘ralgan bir qog‘oz chiqdi.



Mirzo Ulug‘bek go‘yo darvozani ag‘dara oladigandek, ot soldirib bordi.



Mirzo Ulug'bek lablarini qattiq qimtib: "Burgut! — dedi ichida.
— Qora burgut!"

"Sohibqiron izdoshlari" guruhi uchun rasmlar



Marhabo amir! Kishan sendan xalos bo'lsin!




Jadiy burji ko'ringaydir kiyik shaklida.
O'sha yili tug'ilgaydir bir sohibqiron.



Olampanoh, shu sababdan laqabimni ham
Juda topib qo'ygandingiz, Buqalamun deb



Bizning uchun ulkan zamin
shatranj taxtasi...



Chumolilar xor qilishsa arslon rutbasin,
Buzilgaydir o'rmonning ham onunivati.

O'qituvchi shu o'rinda ijodkorlar tomonidan qo'llanilgan badiiy detal, so'z hamda qahramonlarni bejiz qo'llamaganligini tushuntirgan holda asarning jozibasini ochuvchi jihatlarni topishga o'quvchini yo'naltirishi kerak. O'quvchilar suratlar asosida asarning bir lavhasini ko'z oldilariga keltirish darajasiga yaqinlashganlari sayin, badiiy so'zning sehridan xabardor bo'la borganlari sari adabiyotga qiziqib boraveradilar.

Keyingi “Intervyu” sharti o'quvchilarni o'z mustaqil fikriga ega bo'lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida tashkil etiladi. Bunda ikki guruhdan muxbirlar tayinlanadi va ular o'z guruhdoshlariga mushohadaga chorlovchi savollarni intervyu o'yini tarzida beradilar. Shu o'rinda mikrofondan ham foydalanish o'yinni yanada jonliroq chiqishiga yordam beradi. Guruh a'zolari o'z fikr-mulohazalarini bildirishlari kerak. Quyida namunaviy savollar berildi:

“Ulug'bek xazinasi” ixlosmandlari guruhi uchun savol:

Tasavvur qiling, o'z otasining qotili – Abdullatif yoningizda bo'lib qolsa, unga nimalar degan bo'lar edingiz? Bugungi kunda siz ota-onangiz uchun qanday farzand bo'la olyapsiz? Ota-onangiz sizdan xursandmi?

“Sohibqiron izdoshlari” guruhi uchun savol:

Amir Temurning kuch-qudrati, sizningcha, nimada? Siz buyuklar avlodisiz, aytingchi, ularga qay darajada munosib bo'la olyapsiz? Sizningcha, tarixda iz qoldirish uchun nimalar qilish lozim?

Eng kreativ va fikrlashga undovchi savol hamda javoblar yuqori baholanadi. Ushbu savollar orqali o'quvchilarga tarixiy haqiqatlarni badiiy talqin etish asosida hayotni chuqurroq, kengroq mushohada qilishlariga, o'zlarini muxbir sifatida sinab ko'rishlariga imkon beriladi. Ularning kreativ va tanqidiy fikrlashlariga yo'l ochiladi. Hayotiy va kasbiy ko'nikmalar rivojlantiriladi.



O'qituvchi darsga tayyorlanar ekan, o'quvchilari uchun o'tilgan mavzular yuzasidan, albatta, qiziqarli topshiriq tayyorlashi kerak. Bugungi o'quvchilarning diqqat jamlashi qiyin. Bir mavzudan, bir xillikdan tez zerikishadi. Uyga vazifani so'rash vaqtida, ya'ni darsning kirish qismidayoq o'quvchini "jonlantirish", shijoatini uyg'otish bilan boshlash lozim. Boshidan zerikarli tus olgan darsni keyin qiziqarli yo'sinda davom etishi qiyin kechadi.

Demak, yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limiy o'yinlarni dars jarayoniga olib kirish davr talabidir. O'qituvchi bunday texnologiyani puxta bilishi, o'rganiladigan adabiy mavzular xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uni to'g'ri tanlay olmog'i lozim. Darsning samarali shakllari qanchalik tez-tez qo'llansa, o'quvchilarning adabiyotga qiziqish darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Adabiyot inson kamoloti yo'lida tuyg'ularni va hayotni anglashga asos soluvchi fandir. Shuning uchun adabiyot o'qituvchisi fanning go'zalligi, imkoniyati, sehri va boshqa jihatlarini o'quvchilarga singdirishi, adabiyotga mehr-muhabbat tuyg'ularini tarkib toptirishi zarur. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 365 b.
2. Mirqosimova M. So'z iztiroblari. – T.; Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 143 b.
3. Niyozmetova R. H. Uzluksiz adabiy ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish metodikasi. – T.: Fan, 2007. – 216 b.
4. Kambarova S. I. O'quvchilarda badiiy asarni idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usullari. //January 2024 Conference: In an Multidisciplinary "International Conference on Advance Research in Humanities Sciences and EducationAt: published with Conferencea International Database, hosted online from London.
5. Zakirova N. M. O'quvchilarda kreativlikni shakllantirish mazmuni va usullari. //ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804






MUHOKAMA UCHUN MAVZU

NAVOIY “O‘ZBEK TILINING ASOSCHISI”MI

Munosabat



Qamchibek KENJA

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan

madaniyat xodimi,

AndDU faxriy professori.

El-manzil:

kenjaboyevkamchibek@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoyining ijodi, uning turkiy va fosiydagi bitiklari hamda turkiy tilning tarixi va uning buyuk daho shoir ijodidagi o‘rni va ahamiyati borasida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *mutafakkir, turkiy til tarixi, asoschi, turkiy, forsiy, o‘zbek adabiy tili, raddiya.*

Bir hol meni ko‘pdan taajjublantirib keladi. Alisher Navoiy haqida gap ketganda, katta-kichik navoiyshunos va tilshunoslar, ularga ergashib, boshqalar ham “o‘zbek adabiyoti va o‘zbek adabiy tilining asoschisi” degan iborani hech ikkilanmay ayta beradilar. Ajabki, bu fikrga raddiyaga ham ko‘zim tushmadi.

Qay bir olim televideniyeda chiqishida “Keyingi paytlarda “Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi emas” degan iddao paydo bo‘lib qoldi” deya, mazkur mulohazaga e‘tiroz qilib, o‘z qarorini, ya’ni, “Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi” ekanligini buyuk mutafakkirning tilshunoslikka oid risola (“Muhokamat ul-lug‘atayn”) yozgani va yana u qadar ishonchli negizga ega bo‘lmagan odatiy dalillar bilan asoslashga urindi. “Risola va hatto





qo'llanma bitmoq asoschilikka asos bo'lmasligi mumkin-ku... Hay, mayli, u ham o'zidan oldingilarni qo'llab-quvvatladi-da", deb qo'ya qolgan edim. Keyinroq "Adabiyot gazetasi"ning 2022 y. 10 fevral sonida Farg'ona davlat universiteti dots.anti, filologiya fanlari nomzodi Mahfuzullo Rahmonovning "Alisher Navoiy – benazir shoir" degan maqolasini o'qib qoldim. Maqola shunday jumla bilan boshlangan edi: "Alisher Navoiy ulug' mutafakkir, buyuk shoir va ulkan adib bo'lish bilan birga, eski o'zbek tiliga asos solgan (ta'kidlar bizniki – Q. K.), uni shakllantirish hamda rivojlantirish ishiga juda katta hissa qo'shgan zabardast tilshunos olim hamdir". Ikkinchi jumla: "Shuning uchun ham eski o'zbek tilining shakllanishi va taraqqiyoti haqli ravishda (?) uning tabarruk nomi bilan bog'liqdir". Eng "qizig'i" – yana uch jumladan keyin shunday gap keladi: "O'zbek tilining asoschisi Navoiy (Ana xolos! Muallif salgina avval eski o'zbek tili haqida gapirgan edi, endi umuman o'zbek tilining ibtidosi, tug'ilishi yuzasidan hukm chiqarib qo'ya qolibdi – Q. K.) arab, fors va o'zbek tillarining stixiyali kurashi davom etayotgan bir davrda o'z asarlarini o'zbek tilida yozdi". To'g'risi, men esankirab qoldim. "Hartugul, "Navoiy – o'zbekning asoschisi" demabdi-ku, deya o'zimga taskin berdim. Biroq... nahotki, Navoiy ham turkiy til deb atagan o'zbek tili XV asrgacha mavjud bo'lmagan bo'lsa?! Nahotki, o'zbek-turkiy so'zlarni ilk bor Navoiy yozib-tuzib chiqib, joriy etgan bo'lsa?!.. U holda Turonzaminida bir necha ming yillardan beri yashab kelgan ajdodlarimiz qaysi tilda so'zlashishgan? Men esa o'zbek adabiy tilining yaralishini Navoiyga bog'laganlardan o'pkalab yuribman... Ajab, Navoiygacha o'zbek tili bo'lmagan bo'lsa, u tillarning stixiyali kurashida qanday qilib ishtirok etadi?

Hazrat Navoiy, hech shubhasiz, qomusiy, daho ijodkor. G'azaliyot bobida bunday allomai kiromning dunyoga yana kelishkelmasligi dargumon. Ijodi mahsulining hajman beqiyosligi va yana barining javohirotlardan iboratligini ham hech kim inkor etmaydi, etolmaydi. Alqissa, benazir lirik, faylasuf, mutasavvuf shoir ijodi har qancha vasfu tavsiflarga loyiq. Faqat, kamina mumtoz adabiyotimiz sultoniga berilajak ta'rifu qiyosu baholarga "o'zbek



adabiyoti va o‘zbek adabiy tilining asoschisi...” degan yorliqni ham tirkash joizmi, deb o‘ylab qolaman. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “asoschi” so‘zi “Biror narsaga asos solgan, poydevor qurgan shaxs; biror narsani barpo qilgan, ta’sis etgan yoki boshlab bergan kishi, yaratuvchi” degan ma’nolarni anglatishi uqdirilgan. Ajab, o‘zbek (turkiy) adabiyoti va adabiy tili Navoiydan avval ham bor edi-ku...

“Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilining asoschisi” ekanini tasdiqlash uchun qator umumiy dalillar keltirishadi, holbuki, uning mazkur adabiy tilning asoschisi emasligini isbotlash uchun birgina dalil – ul mo‘tabar zotgacha yashagan yetuk shoirlarimiz ijodi kifoya emasmikin? Uzoq o‘tmishdagi yozma bitiklar (“To‘nyuquq bitigi”, “Kul tigin bitigi”, “Bilga xoqon bitigi” va boshqa) yoki “Rustamxon”, “Alpomish” kabi xalq og‘zaki ijodi namunalarini hisobga olmagan taqdirimizda ham, Navoiydan bir necha asrlar muqaddam hayot kechirgan mutafakkirlar – dastlab turkiy so‘zlar lug‘atini tuzgan Mahmud Koshg‘ariy, o‘z davrining yetuk olimlaridan Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy...

Yugnakiyning “Qadimgi o‘zbek adabiy tilidan klassik o‘zbek adabiy tiliga o‘tishda... ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan” “Hibat ul-haqoyiq” asarini tadqiqotchilar o‘sha zamon va keyingi davr ijodkorlari uchun adabiy til namunasi bo‘lganini qayd etadilar... [1]

Alisher Navoiydan roppa-rosa to‘rt yuz yil oldin umrguzaronlik qilgan Ahmad Yassaviyning turkiy olamga mashhur hikmatlari ham ana shu turkiy-o‘zbek adabiy tiliga mansub emasmi? Atoqli yozuvchi, olim Pirimqul Qodirovning shu to‘g‘rida kuyinib yozishlari bejiz emas: “Ahmad Yassaviy hikmatlari va uning adabiy maktabi sharqda Mo‘g‘uliston chegaralarigacha, shimoli-g‘arbda Volga bo‘ylarigacha, janubda Misrgacha bo‘lgan shunday keng hududlarda ijod qilgan shoirlarni bir adabiy til atrofiga jipslashtirgani va xilma-xil shevalarda so‘zlashgan turkiy xalqlarning hammasi uchun umumiy bir dorilfunun bo‘lib xizmat qilgani ilm-fanda hali o‘ziga yarasha baho olgani yo‘q”. “Buyuk vatanparvar Ahmad Yassaviy XII asrdayoq ona (eski o‘zbek-turkiy



– Q. K.) tilimizning himoyachisi va targʻibotchisi boʻlib maydonga chiqqan”.

Toʻgʻri, Navoiy asarlari tili bilan Yugnakiy, Yassaviylarning tili oʻrtasida sezilarli farq bor, lekin bu tabiiy hol-ku. Boshqa sohalar kabi til ham har turli oʻzgarishlarga uchrab, takomillashib boradi-ku. Qolaversa, har qanday adabiy til jonli soʻzlashuv tili asosida vujudga keladi-ku.

Yana Navoiygacha boʻlgan mumtoz adabiyotimizning mashhur namoyandalari – Ahmad Yassaviyning izdoshi, tasavvufning yirik vakili Sulaymon Boqirgʻoniy, “oʻzbek tilida nasr bilan yozilgan” “Qisasi Rabgʻoʻziy” asari muallifi Nosiriddin Rabgʻoʻziy, “Yusuf va Zulayho” haqidagi Qurʻoniy qissani “birinchi boʻlib oʻzbek tilida nazm bilan bayon etgan” (taʼriflar ijodkorlar haqidagi maqolalardan olindi) Durbek, Nizomiy Ganjaviyning “Xisrav va Shirin” dostonini oʻzbekchaga erkin tarjima qilgan Qutb Xorazmiy, “X1U asr oʻzbek adabiyotida dunyoviy lirika rivojiga katta hissa qoʻshgan... oʻzbek adabiyoti tarixida noma janrini boshlab bergan”, yaʼni Oltin Oʻrda xoni Jonibekning yaqin kishisi Muhammad Xoʻjabekning “turkiy tilda bir kitob yozib berish” toʻgʻrisidagi iltimosiga binoan “Muhabbatnoma” bitgan yana bir Xorazmiy, turkiy lisonda Navoiydan oldin “Hamsachilik” anʼanasini davom ettirishga kirishib, “Mahzan-ul asror” degan asar yozgan Xaydar Xorazmiy, shuningdek, Xoʻjandiy, Yusuf Amiriy, Gadoiy, Muqimiy, Sayid Ahmad, Yaqiniy, Ahmadiy, Husayniylar-chi?.. Bularni ham qoʻya turaylik, Navoiyning oʻzi ustoz maqomida koʻrgan Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy va boshqa adibu shoirlarimizning salmoqli, umrboqiy asarlari, devonlari, forsiydan oʻgʻirgan tarjimalari Hazrat ijod qilgan, rosmi shakllangan oʻzbek (turkiy) adabiy tilida (lahja, shevalarda emas!) yaratilgan va oʻzbek mumtoz adabiyotining nodir namunalari sifatida eʼtirof etiladi-ku!

Darhaqiqat, mavlono Lutfiyning:

Jafoni jonima oz qilki, nogahon bir kun
Jafo tugansa netarsan, jafo kerak boʻlsa?...





* * *

Ko'rmish qaro soch halqasi ostinda mengingni,
"Jim" o'rtasida ul kishikim nuqta solibdur.

So'zlarda qachonkim ko'zi qoshi bilan o'ynar,
Har go'shada yuz ming kishi boshi bila o'ynar.

Nun qoshi uchun sehr qilib yer yuzini ko'k,
Olmosi ko'zum mardumi yoshi bila o'ynar.

Va yo Atoyining:

Jamoling vasfini qildim chamanda,
Qizordi gul uyotdin anjumanda.

Ul sanamkim suv yoqosinda paritek o'lturur,
G'oyati nozukligidin suv bila yutsa bo'lur, -

kabi sodda, ravon, shu bilan birga ramziy ma'nolarga, go'zal tashbehlarga boy g'azallar Navoiy ijod qilgan o'zbek-turkiy adabiy tilida yozilmay, qanday lahjada bitilgan, baraka topgurlar?

Hatto XIII asrda barpo etilgan Oltin O'rda davlati saroyidagi ish yurituvchi, mirzalar, lashkarboshilar va boshqa mansabdorlarning aksariyat qismi turkiylardan bo'lgani bois, rasmiy yozishmalar, adabiy-badiiy matnlar asosan eski o'zbek (turkiy) tilida olib borilgan. "O'z zamonasidagi dunyoviy lirikaning zabardast ustunlaridan biri", "Suxayl va Guldursun" dostoni, "Guliston bit-turki ("Turkiy Guliston") asari (darvoqe, bu borada ham qarashlar har xil: kimdir uni Sa'diy Sheroziy "Guliston"ining tarjimasi, boshqasi original asar deydi) muallifi Sayfi Saroyi ayni o'sha davrlarda Oltin O'rdada yashab, ijod qilgan.

Yana bir muhim dalil: Navoiydan qariyb bir asr avval yashab o'tgan va jahon liriklarining sardori Hofiz Sheroziy bilan qiyoslanadigan Hofiz Xorazmiyning buyuk dahoimizdan yuz yillar





ilgari ikki zalvorli kitobdan, 18632 baytdan iborat devon tartib berganiga nima deysiz? Filologiya fanlari doktori, o‘zbek mumtoz adabiyotining otashin tadqiqotchi va targ‘ibotchisi, Hofiz Xorazmiy devonini Hindistondan topib kelgan Hamid Sulaymon “qadimiy o‘zbek adabiyoti va adabiy tilining ajoyib, bebaho yodgorligi bo‘lmish” mazkur devon muallifiga komil ishonch va g‘urur bilan “Badiiy mahorat va o‘zbek tilida g‘oyat sodda va ravon g‘azallar yaratishda uni Navoiygacha bo‘lgan o‘zbek adabiyotining benazir ustozlari desa arziydi”, deya baho bergan edi.

Bulardan tashqari, Navoyning o‘zi ham “Majolis un-nafois” asarida o‘zidan avval o‘tgan yo yaqin zamondoshi bo‘lgan 40 dan ortiq turkigo‘y shoirlarni tasnif qilib, ularning baytlaridan misollar keltirgan va yuksak ta’riflar bergan. Shuningdek, u “Sohibqiron Amir Temurning izdosh farzandi Shohrux sulton hukmronligi davrida turk tilida ijod qiladigan bir guruh shoirlar paydo bo‘ldilar” deb yozadi-ku?..

Binobarin, bunday sun’iy, mubolag‘aviy alqovlardan ul kamtarin zotning ruhi ham shod bo‘lishi gumon deb o‘ylayman. Nechukkim, Mavlono Lutfiy haqidagi “O‘z zamonasining malik ul-kalomi (so‘z podshosi) erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q edi, ammo turkiyda shuhrati ko‘prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdir”, Atoyi to‘g‘risidagi “Turkiygo‘y erdi. O‘z zamonida she’ri atrok orasida ko‘p shuhrat tutdi” degan baholari, Lutfiyning bir necha g‘azaliga muxammas va musaddaslar bog‘lagani ham o‘zidan ilgari turkiy adabiy tilda nazm bitgan, ustoz deb bilgan salafilariga ehtiromidan, ulardan o‘rganganidan dalolat emasmi?

Yaqinda “O‘zbekiston tarixi” telekanalida yana bir navoiyshunos, filologiya fanlari nomzodi Berdak Yusupov bilan Navoiy asarlari tili mavzuida suhbat uyushtirildi (afsuski, uni boshidan ko‘rolmadim). Olim boshlovchining savollariga keng va atroflicha, bilimdonlik va jonkuyarlik bilan javoblar berdi. U “turkiy til dag‘al, unda yirik badiiy asarlar yaratish qiyin” deganlarga javoban Navoiy “Xamsa” va boshqa asarlari bilan turkiy tilning salohiyati, imkoniyatlarini isbotlaganiga e’tibor qaratdi. Holbuki, Navoiydan avval ham mazkur tilda dostonlar bitilgan. Yana,



boshlovchining “Navoiy o‘z asarlarini qaysi lahjada yozgan?” degan savoli menga erishroq tuyuldi. Menimcha, Navoiygina emas, qo‘liga endi qalam tutganlar ham so‘zsiz mavjud adabiy tilda yozishga harakat qiladi, lahja – shevada emas. Lekin olim ayni shu savol munosabati Zahiriddin Muhammad Boburning “Andijon... Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur (Ya’ni, adabiy til bilan muvofiqdir – Q. K.). Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim Hiriya nash’u namo topibtur, bu til biladur”, degan fikriga “Navoiy Andijonda yashamagan”, degan iddao bilan e’tiroz bildirdi. Holbuki, shoh va shoir, adabiyot nazariyachisi Bobur asossiz mulohaza aytadigan shaxs emas. Chunki u Navoiyga har jihatdan yaqinroq bo‘lgan: asarlarini oldinroq, sinchiklab o‘qigan, Hirotida hazratning uyida istiqomat qilgan, aruz haqidagi nazariy qo‘llanmasini yaratish asnosida Navoiy asarlarining tili, uslubini chuqur o‘rgangan, tahlil qilgan, baho bergan. Yana qayd etish kerakki, Andijon tili hozirgidek, Navoiy zamonida ham adabiy tilga juda yaqin bo‘lgan. Bobur aynan shu jihatni nazarda tutgan bo‘lishi tabiiy. Navoiy Samarqandda tahsil olgan yillarida (1465-69 y.), Hirotida andijonlik shoir, san’atkorlar Mavlono Safoiy, Mavlono Yusuf Badiiy, Xoja Yusuf Andijoniy va boshqalar bilan baqamti yashagan, qadrdonlashgan, ularning ijodlarini yuksak baholagan, ehtimol, ularning tili, so‘zlash uslubi ma’qul tushib, qay bir miqyosda o‘zlashtirgandir. “XV asrning yirik madaniy markazi Hirot bilan Farg‘ona viloyatining markazi Andijon o‘rtasidagi madaniy aloqalar, ayrim san’at va adabiyot ahli o‘rtasidagi o‘zaro bordi-keldilar muttasil davom etgan”, deb yozadi atoqli navoiyshunos olim, akademik Aziz Qayumov “Bobur davridagi Andijon adabiy muhiti” risolasida.

Pirimqul Qodirovning o‘zbek adabiy tili tarixi va tadrijini tadqiq etishga bag‘ishlangan “Til va el” kitobidagi “Alisher Navoiy – o‘zbek adabiy tilini mumtozlik darajasiga ko‘targan siymo” [1, 131-6.] degan xulosasi maqbulroq va tarixiy haqiqatga yaqinroq. (Bu baho hazratning obro‘-e’tiboriga, yuksak martaba-mavqeiga zarracha putur yetkazmaydi deb o‘ylaymiz). Lekin ajabki, ustoz



adib ham o'sha maqolaning o'zida "...Navoiy o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tilining asoschisi bo'lish bilan birga..." degan iborani qo'llagan [1, 132-6.]. Holbuki, u shu asarida "Qadimiy dostonlar va tosh bitiklarda ko'ringan mardona uslub, mohiyat va ma'noni turkiy tilda qisqa, lo'nda va rostgo'ylik bilan ifodalash an'anasi yanada yaqqol ko'zga tashlanadigan "Temur tuzuklari"ning o'zbek adabiyotida bundan olti asr burun realizmni boshlab bergan avtobiografik asar"ligiga, bundan tashqari, Shayx Ahmad ibn Xudoydod Taroziy qalamiga mansub, adabiyot nazariyasiga oid "Fununi balog'a" (balog'at ilmlari) ilmiy asarining adolatli temuriy hukmdor, buyuk munajjim Mirzo Ulug'bek davrida (XU asrning birinchi yarmida) turkiy tilda yaratilganiga alohida urg'u bergan. Barhaqqi, agar eski o'zbek – turkiy tili bo'lmasa, ushbu tildagi avtobiografik va ilmiy-nazariy manbalar qanday vujudga kelardi?

Ayrim navoiyshunoslar esa, VI-VIII asrlardagi O'rxo'n-Yenisey bitiklari qadimiy turkiy tilga mansubligini, "Qutadg'u bilig" – "eski turkiy tilda yaratilgan shoh asar"ligini, hozirgi o'zbek tilining ajdodi bo'lmish "Turkiy tildagi adabiyot Lutfiyni, forsiy tildagi adabiyot Jomiyni yetishtirgani va ana shu muhitda buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy maydonga chiqqan"ligini e'tirof etaroq, "Navoiy o'zbek adabiyoti va o'zbek tilining asoschisi" deya qayd qiladilar.

Filologiya fanlari nomzodi Masharif Safarovning bu bobdagi qarashi yanada keskinroq. "O'zbek tilida yozilgan asarlar XIV asrdan, ya'ni umumxalq o'zbek adabiy tili paydo bo'lganidan keyin vujudga keldi", – deb yozadi olim ("Hurriyat" gaz. 2007 y. 19 dek.). Xo'sh, umumxalq o'zbek adabiy tili aynan ana shu asrda qanday paydo bo'lib qoldi, mazkur to'xtamga qanday asoslarga ko'ra kelindi va "asarlar..." deyilganda kimlarning qanday asarlari ko'zda tutilmoqda?.. Agar shunday bo'lgan bo'lsa, yangi til oldingi tildan qaysi jihatlari bilan farqlanardi?..

Ehtimol, "asoschilik..." fikrini dastlab Navoiydan oldingi mumtoz adabiyotimiz bilan chuqurroq tanish bo'lmagan rusiyzabon olimlar (akad. N.I.Konrad va b.) sohaning piri komili



ijodiga hayratini ifodalash uchun aytsa, aytgandir. Balki, bu tamoyil Mir Alisher Navoiy boshi uzra qora bulutlar aylana boshlagan kezlarda uni o'sha bulutlar ostidan olib chiqib ketish uchun hazrat bobomiz xizmatlarini mumkin qadar mukammal va yanada ijtimoiy qilib ko'rsatishga urinishdan boshlangandir. Mabodo bunday yondashuvni “turkiy” kalomining “o'zbek”ga aylanishi bilan bog'liq desak, Navoiy (hatto Zahiriddin Muhammad Bobur va undan keyingi ijod ahli ham o'zlarini “o'zbek shoiri” deyishmagan va umuman, u davrlarda “o'zbek adabiyoti” degan” atama qo'llanmagan. “O'zbek xalqi 1924 yilga qadar sharqiy turk tilida yozilgan yozma obidalarda turk nomi bilan yuritildi, – deb yozadi bir umr shu borada tadqiqot olib borgan, chunonchi, “Hibat-ul-haqoyiq” asarining fonetik va morfologik xususiyatlari” mavzuida nomzodlik, “XII-XIII asrlar yozma yodgorliklarining fonetik xususiyatlari” mavzuida doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagan olim, xalqaro Mahmud Koshg'ariy mukofoti sohibi Qozoqboy Mahmudov “Qadimgi Turkiston” kitobida.

Boringki, istilohida harfiy-zohiriy o'zgarish yuz bergan taqdirda ham, mavjud tilning mohiyati, tuzilishi o'zgarib, boshqatdan asos solinadigan tilga aylanib qolmaydi-ku. Bir mulohaza: mumtoz adabiyotimiz, klassik shoir-adiblarimiz haqidagi maqolalarda ko'pincha “turkiy” va “o'zbek” so'zlari yonma-yon, lekin alohida-alohida ishlatiladi. Masalan, 4 jildli “O'zbek adabiyoti”ning 1-chi jildida Mavlono Lutfiy haqida “...o'z zamonining turkigo'y... dongdor shoiri...” ta'rifidan so'ng “O'zbek tilidagi she'rlari...” deya davom etiladiki, bu, shubhasiz, o'quvchini chalg'itadi, ikkilantiradi. Yana, masalan, yuqoridagi kitobda Yusuf Amiriy, Sayid Ahmad va boshqalarning ham “asarlarini o'zbek tilida yozgan”ligiga, Otoyining esa, “... o'zbek adabiyotining yuksalishiga katta hissa qo'shgan”ligiga urg'u beriladi. Demak, o'zbek adabiyoti Navoiydan avval ham bor ekan-ku! Bizningcha, ana shunday xar xilliklarga, chalg'itishlarga barham berish uchun millatimiz, milliy adabiyotimiz o'tmishi xususida so'z borganda “turkiy-o'zbek” yoxud “o'zbek (turkiy)” shaklini qo'llash ma'qulmikin?



Eng muhimi, Navoiyni nafaqat o'zbek tilining, balki o'zbek adabiy tilining asoschisi (ya'ni, poydevorini ko'taruvchi, yaratuvchi) deyish VI–VIII va undan avvalgi asrlarda yashagan, asarlari qayta-qayta nashr etilib, 4 jild, 7 kitobdan iborat “O'zbek adabiyoti”, 5 tomlik “O'zbek she'riyati antologiyasi”, ko'p tomlik “O'zbek adabiyoti bo'stoni” kabi nodir, nufuzli xrestomatiyalar, bayozlarni bezab kelayotgan, xalqimizning g'urur-iftixoriga aylangan mumtoz shoirlarimizni kamsitishgina emas, umuman inkor etish, ramziyroq ma'noda daraxtni yashnatib turgan tuproq ostidagi ildizlar xizmatini e'tibordan soqit qilish (holbuki, biz nazarda tutgan “ildizlar” shundoq yer yuzasida, aniq-tiniq ko'rinib turibdi), adabiy tilimiz, milliy adabiyotimiz yoshini o'lchashda esa, mezon-qarichni o'ta qisqa olish, xolos.

Vaholanki, Navoiy “Muhokamat ul-lug'atayn”da turk tilini arab tilidan tashqari yer yuzidagi yana uch “asl va mo'tabar”, qadimiy va asosiy tillar (turk, forsiy va hindiy)dan biri sifatida zikr etib, turkiy tilda ijod qilishga jazm etishi sababini shunday izohlaydi: “Ammo shuur yoshig'a qadam qo'yilg'anda Haq subhona va taolo ta'bimg'a g'aroyibotlar sari maylni zotiy, diqqat va zahmatkashlikka jasoratni tug'ma qilgani uchun mushohada va mulohaza meni turkiy tilga yo'lladi: shunday zeb-ziynatli bir olam ko'z oldimda namoyon bo'ldiki, o'n sakkiz ming olamdan ortiq, va ta'bimga shunday fazlu yuksaklik osmon tabaqasi ochildiki, to'qqiz falakdan ham baland, bir xazina uchradi, durlari yulduz gavharlaridan ham yorug'roq, bir gulshan yo'liqdi: gullari osmon sayyoralaridan porloqroq, maskani atrof-tevaragi el oyog'i yetmakdin forig' va g'aroyib narsalari begona qo'llar daxlidan omonda.”

Agar ushbu til o'zidan avval mavjud va shoyoni e'tiborga sazovor bo'lmaganida Navoiy uning fazilatlarini shunchalar hayratu hayajon, on qadar ehtiros bilan o'n sakkiz ming olamga qiyos etarmidi? Va yana “turkiy tilda ajoyib so'zlar va nafis iboralar g'oyat ko'p”ligi, “turk tilining cheksiz imkoniyatlari”ni, “so'z va iboralar yasashda turk tili fors tilidan ustun kelgani”ni faxru maroq bilan tasdiqlar ekan, ko'p ma'nolik, sinonim so'zlarning o'ta bisyorligiga doir misollarni havodan olib yo o'zi to'qib emas, balki



shu tilning o‘zidan, uning avvaldan mavjud xazinasidan olib sharhlaydi va shunday ajoyib tili bo‘laturib, forsiyda qalam tebratishni ma’qul ko‘rgan yoshlarga haqli ravishda ta’nalar yog‘diradi.

Aslini olganda, o‘zbek adabiy tili va badiiyati o‘z tadrijida soddalikdan murakkablikka, jo‘nlikdan mukammallikka qarab borgan, bu xususiyat Navoiy tomonidan eng baland maqomga yetkazilgan, undan keyin, aniqrog‘i, mumtoz adabiyotimizning yana bir buzrukvori Zahiriddin Muhammad Boburdan mazkur jarayon boz soddalikka, xalqchillikka yuz borgan. XX asr adoqlaridan, XXI asr boshlaridan modernizm degan oqim ta’sirida tilimiz, she’riyatimiz, umuman badiiyatimiz yana asta-asta, qisman-qisman murakkablik sari o‘rlayotir (O‘ylab ko‘rsak, shu ma’noda Alisher Navoiyni o‘z davri modernizmining bobokaloni deyish mumkin).

Men navoiyshunoslikka zinhor da’vogar emasman, bunga haddim ham sig‘mas, faqat hayronmanki, nega endi o‘z madaniyatimiz tarixini, ma’naviy-ma’rifiy kamolimiz ibtidosi va bosqichlarini belgilashda juda muhim bo‘lgan omilni ko‘rib-ko‘rmaganga, bilib-bilmaganga olamiz, unga bepisandlik bilan qaraymiz? Navoiyni ulug‘lash uchunmi? Axir hazratning boshqa buyuk fazilatlari, favqulodda va betakror iste’dodining o‘zi uni har qancha e’zozlash uchun yetib ortadi-ku? Yo “asoschisi” degan so‘zning lug‘atlarda sharh etilmay qolgan, bizga noayon o‘zga ma’nolari ham bormi? Qolaversa, butun boshli bir xalq tilining yuzaga kelishini bir shaxs nomi bilan bog‘lash nechog‘liq mantiqiy? “Adabiy til”ning birdaniga, bir adib ijodida shakllanib qolishini tasavvur qilish qiyin-ov...

Mazkur dalillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, u mahallarda “turkiy” deb yuritilgan eski o‘zbek tili ham, o‘zbek adabiy tili ham, o‘zbek adabiyoti ham Alisher Navoiydan bir necha asr avvaldan bor edi va yuzlab ijodkorlarning necha asrlardan buyon zavol bilmay, qalblarga nur va shuur bag‘ishlab kelayotgan durdona asarlari o’sha tilda, o’sha adabiyot namunalari sifatida yaratilgan. “O‘zbek klassik adabiyoti, – deb yozgan edi akademik



Vohid Zohidov, – o‘z boshlang‘ichini juda ham uzoqdan, undan ham oldin – folklordan oladi. Uning deyarli yigirma asrlik tarixi... juda murakkab hamda boy” (“O‘zbek adabiyoti”, 1-tom, so‘zboshi, 1959 y.). “X-XII asrlar – o‘zbek adabiyotida xilma-xil adabiy janrlar, shu jumladan, nasriy turlar ham takomillashgan davr bo‘ldi”, – deya ta’kidlagan edi taniqli olima, filologiya fanlari doktori, adabiyotimizning fidoyi tadqiqotchisi Ninel Vladimirova “От слова к книге” kitobida.

Hech shubha yo‘qki, Navoiy o‘z salafлари an‘analarini davom ettirgan holda, forsiy, arabiy va boshqa so‘zlar hisobiga o‘zbek (turkiy) adabiy tilini takomillashtirgan, ayni vaqtda murakkablashtirgan va uning zaxirasini, shu bilan birga, mumtoz adabiyotimizni o‘zining hajman ulkan, badiiy jihatdan beqiyos barkamol asarlari bilan boyitib, yuksak pog‘onalarga ko‘targan. Bu jihatdan alloma shoirning milliy adabiyotimiz, millatimiz oldidagi xizmatlari bemisl va har qancha tahsin aytmoqqa, bayroq maqomida ulug‘lamoqqa chandon munosibdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Муҳокамат-ул луғатайн. – Т.: Тафаккур, 2014. – 233 б.
2. Алишер Навоий. Мажолис-ун нафоис. Ўн жилдлик. 9-том. – Т.: Чўлпон, 2011. – 441 б.
3. Ўзбек адабиёти (хрестоматия). 1-том. – Т.: Ўздавнашр, 1959. – 345 б.
4. Ўзбек шеърляти антологияси. 1-том. – Т.: Ўздавнашр, 1961. – 390 б.
5. Қодиров П. Тил ва эл. – Т.: Фан, 1999. – 143 б.
6. Ҳофиз Хоразмий. Икки жилдлик девон. 1-китоб. – Т.: Ўзб.КПМК нашрети, 1981. – 296 б.





BIR ASAR TAHLILI

«Telegram»dagi «Metodist minbari» kanalida o‘qituvchilar shoira H. Xudoyberdiyevaning «Men seni topgandim...» nomli she’rini yigirma olti banddan iborat savol va topshiriqlar ko‘magida tahlilga yo‘naltirilgan edi. Olingan javoblarning bir qismini jurnalda chop etishga qaror qildik. Toki boshqa muallimlar ham keyingi bosqichlarda bunday faoliyatga urinib ko‘rsinlar va asarlarning didaktik tahlilida o‘zlarini sinab ko‘rsinlar. Axir adabiyot darslarida, asosan, asarlarning didaktik tahliliga tayaniladi.

Tahririyatdan.

Men seni topgandim...

Men seni topgandim, ammo yaxshi qol,
Sen: “yaxshi qol!” – degil, “ko‘rishguncha” mas.
Bul quyosh hali ko‘p ol bo‘ladir, ol,
Bul oy ham umrimga ko‘p qiladir qasd.

Sen sherik bo‘lmaysan endi g‘amimga,
Darvoqe, hech qachon sherik qilmadim.
Xayr endi, ma’zur tut ortiq-kamimga,
Men seni Layliday seva olmadim.

O‘rtanma bul xato mushkullaridan,
Yo rabbiy, lahzada bor orzular puch.
Men ham qaydan bilay ishq yo‘llarida –
Majnun emas, senga kelarimni duch...





GULSHAN RAHIMOVA

*Urganch shahrshdagi
1-ixtisoslashtirilgan maktab-internat
ona tili va adabiyot o'qituvchisi.*

El-

manzil:sardor.azimov.2000@gmail.com

Osmono'par tog' sharsharasidek shiddatli va jo'shqin ijod sohibasi Halima Xudoyberdiyevaning yuqoridagi ijod namunasi she'riyat ixlosmandlarining ko'ngil mulkiga aylanib ulgurgan. She'r qahramoni ma'suma bir qiz sifatida xayolimizda gavdalanadi. U vanihoyat nechalar orasidan ko'ngli va orzusiga monand insonni uchratgan, uning o'z baxti ekanini anglagan edi. Lekin...

Lekin umr bo'yi orzu qilgan insonni topgani bilan uni tark etish majburiyati ila undan uzoqlashilgani afsus ila ta'kidlanayotganday go'yo.

Ilk misradagi "Men seni topgandim, ammo yaxshi qol" jumlası lirik qahramonning o'z orzusidagi insonni uchratgani bilan yo uning sevgisiga o'zini munosib bilmagani, yoki ul insonning ko'ngli boshqada ekani, yoxud ikkisiga ham bog'liq bo'lmagan boshqa bir sabab tufayli undan ketishga majburlik tufayli nadomati ifodasi sifatida qo'llangandek, nazarimda.

Lirik qahramon ko'nglining sohibini qoldirib, o'zi ketishga chog'langanini ifoda etish uchun "ammo yaxshi qol" deya majolsiz shivirlayotganday go'yo. Qo'lidagi "baxt»ni tark etishga majbur bo'lish mashaqqati "topgandim" dek oddiygina so'zda o'z ifodasini topgan.

Taqdirga ko'ndirish, ayro yashash ma'qulligiga inontirish uchundir, balki, Uni ham "yaxshi qol"deyishga undamoqda lirik qahramon. Qayta ko'rishish yoki bir-birini izlash yo'qotishdan ko'ra og'ir oqibatlar keltirishi mumkinligidan ogoh etish uchun lirik



qahramon suhbatdoshidan "Ko'rishguncha" demasligini o'tinmoqda.

"Bul quyosh" iborasi orqali ham oddiy tabiat hodisasi, ya'ni quyoshning qizarib botishi va chiqishi, hali hayot davom etishi, qolaversa, quyoshmonand o'z qalbining ayriliq azobida alangai otash bo'lishiga-da ishora bor. Muallif "r" tovushining zimmasiga o'tmishga hamohanglik yaratish hamda ol so'zi bilan ohangdoshlik yaratish, ta'bir joiz bo'lsa, o'z-o'ziniki ekaniga urg'u berishdek ohang yuklangan. Go'yoki, qahramon ko'ksiga urib-urib: "*Bul quyosh hali ko'p ol bo'ladir, ol*", deb ingranayotganday.

She'rda istiora va iyhom san'atlari go'zal tarzda mushtaraklik hosil etgan: 1) bu oy (muddat) ham ko'p qiynayajak; 2) bu oy (osmondagi oy ham u kabi ko'p ozor berishi nazarda tutilganday. "Bul oy ham hali ko'p qasd qiladir, qasd" misrasida yetakchi fe'lning "qiladir" tarzida ishlatilishi jarayonning davomiyligini anglatmoqda. Uning yodi, xotirasi ham oq, oydin tunlari ozor berajagini qalban his qilmoqda qahramon. Badiiylik, ta'sirchanlik, voqelikning to'xtovsiz amalda ekanini ifodalash uchun shoir «qiladir», «bo'ladir» shaklidagi fe'llarni qo'llagan.

Mag'rur, nozikta'b, hissiyotga beriluvchan, e'tiborli, o'zgalarga g'amxo'r va fidoyi qahramon "*Sen sherik bo'lmaysan endi g'amimga, Darvoqe, hech qachon sherik qilmadim*", deya boshiga yoqqan qorni yolg'iz o'zi kurashga qaror qilganini, aslida, ilgari ham hech qachon g'am-tashvishini u bilan baham ko'rmaganini sezdirib qo'yyapti.

«Xayr» so'zi orqali oddiy xayrlashuv emas, vidolashuv, rizolik so'rash mazmuni o'z ifodasini topgan. Bir umrga ayriliq oldidan yana o'sha g'amxo'rlik, fidoyilik hissiyoti ila yaxshi, yomon gapga uzr so'rab, ko'ngilxonlik ila vidolashish umidi mujassam.

Ehtimol, oila, ehtimol, taqdir va yo boshqa sabab tufayli sevgisi uchun barchasidan kecha olmagan lirik qahramon qattiq o'kinch, afsus-nadomat, chorasizlik hislariga mag'lub. Ikkisi ham aynan bitta muammo qarshisida ojiz, barcha mushkulotlar birgina xato tufayli. Sevilgan kimsa yo'l qo'ygan kechirilmas xato ko'plab mushkulotlarga sabab bo'lgani, bundan lirik qahramon bir umr g'am-g'ussaga asir bo'lib yashashga mahkum ekani, "sevikli"ning



o'z sevgisiga munosib inson bo'lib chiqmagani dardli misralar faryodida anglashilib turgandek.

She'r dardni, alamni yengib yashashga kuch topa olgan, lekin aslo o'z g'ururi va sha'nini o'zgalar poyiga otmaydigan mag'rur qalb sohibasining azmi-qarori ifodasidir.



Mashrabxon RAHMONOVA.

*Farg'ona shahridagi 33-maktab
ona tili va adabiyot o'qituvchisi.*

She'rning bosh qahramoni shoira tasavvuridagi sevgi-muhabbatdan kuygan, muhabbatning shirin va iztirobli damlaridan bahramand bo'lgan go'zal qiz. Mahbuba o'zidan ham ko'proq yorini qadrlaydigan pokiza ishq egasi. Ehtimol, orzusidagi yoriga, uning sevgisiga beparvo shaxsga qaratilgandir bu satrlar. "Topdim" deganda topgan qahramoni uni ham sevgan bo'lardi, u emas bu (lirik qahramon) uni topganligi uchun "topgandim" degan va bu so'zda jindek xato va bu xatodan afsus tuyg'usi ham o'z ifodasini topgan.

She'r qahramoni muhabbatini topguncha qancha ishq bo'hronlarini, mumtoz va pokiza tuyg'uning hayajonlarini boshidan kechirgan edi, sevgan insonga doim qiyin bo'lishi haqidagi haqiqat hamda serjilo tuyg'ulardan tushkunlikka qaytish azoblari yashiringan. Sevgisi, sevgilisidan, taqdirdan umidvor bo'lgan qalbning iztiroblarga chek qo'yishini to'g'riroq ekanligini anglab yetgan lirik qahramon.



Men bu satrlarda shoira H. Xudoyberdiyevaning “Siz bilan minnatdor xayrlashaman” she’ridagi nidoga o’xshash chaqiriq va umidvorlikni angladim:

Ammo menga ayting bir og’iz nido

Va uzilsin bizni bog’lagan arqon.

Siz bilan minnatdor xayrlashaman...

Yaxshiyamki, qahramonning o’zi “yaxshi qol” deydi, bu sevgilisining “yaxshi qol” deyishidan yengilroq, menimcha. O’sha mashhur satr: «Topmoq yo’qotmoqdir. O’zim topdim seni deya: Bu kun darmon ketib tizlarim toldi, Sizki yonimdasiz, yonimda azob»ga iqror bo’lib, majburlikdan yo’qotib qo’yayotganidan afsus chekadi qahramon.

“Ko’rishguncha”da yana qayta uchrashishga umidvorlik bor, “yaxshi qol”da esa rizolik, nekbinlik. Sinonimlardan mahorat bilan foydalangan shoira so’zni o’z o’rnida qo’llash kerakligini tushuntiradi va men o’ylab qoldim: she’r izohlanmaydi, uni anglamoq kerak. “Uchrashguncha” – “ko’rishguncha”- “xayr”- “alvido” (evfemizm va devfemizm). Yuqorida aytganimdek, “xayr”dan ko’ra “yaxshi qol” afzalroq, yumshoqroq-da. «Degin» – buyruq, “degil” – iltimos. Bitta «l» tovushining orttirilishi qahramonning yumshoqtabiat inson ekanini ifodalaydi.

“Bul” quyosh barchaga barobar nur sochadi, bu nurdan sevgilisi ham bahramand bo’ladi, uning hurmati yuzasidan quyoshni ham “hurmat qiladi”, “l”ning zimmasiga ardoqlash, e’zozlash, hurmatlash yuklatilgan.

Nechun quyosh bir qizarib oladir

Tongda – yerga tushganida kezishi?!

Uni balki shshu ko’ylarga soladir

Tunda qilgan ba’zi gunohli ishi...

Qaysidir shoirning ushbu satri yodimga tushar ekan, quyosh – olov – g’alaba – kuch-qudrat – shiddat – jasorat. U hali she’r qahramonini ham o’rtaydi, azoblaydi, xatolari uchun jazolaydi, ehtimol. Har bir rang ma’no tashiganidek, shoira rang bilan bog’liq mifologik tushuncha va tasavvurlarga ham murojaat qiladi.



Quyosh va oy unsurlari biri jo'shqinlik, biri esa xotirjamlik aslida. Yorug' kunning qisqa, zulmatning uzun kechishi, tungi iztirob, dardning so'roqqa tutishini qahramon "oy ham qasd qiladir" deya ifodalayapti, nazarimda. Qasd qiladi – qat'iy hukm, «qiladir» – so'roq savolining iskanjasidagi yengillikka ishora qilingan. Go'yoki mahbubaning ham o'z o'ziga rahmi kelayotganday. Yo'q, qasd qilmagan. Ruhiy holatning qasddan ham og'irligini ifodalagan. So'zda "r" tovushining orttirilishi "ehtimol", "balki", "basharti" singari o'ylar girdobida qolgan qahramonning his-tuyg'ulari yuklangan. Men kechirayotgan, sensizlikda o'tayotgan g'amimdan ozodsan demoqchi. Yana shoira ijodiga yuzlanib, shunday deyish mumkin:

Neni oy deb o'ylab, ko'zimni tikib

Zarrin shu'lasiga yuz tutdimki zor.

Oy deb o'ylaganim yoy bo'lib chiqib,

U otgan o'qlardan ko'ksim yarador.

Sevgisini ochiq ayta olmagan iboli, xayoli go'zal dildor. U sevgilisini chin dildan sevishini o'zining yutug'i deb bilardi (ortiq) kamchiligi – unga munosib yor bo'lolmagani, aniqrog'i uning sevgisiga loyiq bo'lmaganligi (kamimga) ya'ni ... yana shoira ijodiga yuzlanamiz: «*Sizni men o'zimga ham loyiq ko'rmam rosti gap...*»

Kechirim, yolvorish. Sevgisi shu qadar pokizaki, go'yoki sevish jinoyatdek, aybdorlikdek tuyuladi unga. Albatta o'kinish bor. Laylida qat'iyat, jur'at bor. Qahramonda xayo, andisha ustun. Biroz o'ylantirdi, endi mening taxminlarim yolg'on chiqsin. Bu xatolik, mushkulotlardan ham yorini himoya qilyapti, inson hamma narsani boricha, xato-kamchiliklari bilan qabul qilinishi kerak deb o'ylayman. Qahramon taqdiriga ko'ndi. Hayotning o'z qonuniyatlari bor, qahramon azob chekyapti, taqdir oldida bandaning naqadar ojiz ekaniga ishora bor. Haqiqat ayon bo'lgan paytdagi lahza, lirik qahramonning ishq-visol haqidagi orzulari puchga chiqqanligi, aro yo'lda sargardonligi. Afsus, nadomat. Suhbatdoshi ham uni o'ziday sevish kerakligi haqidagi iddaolari Majnun – ishq odami, ishq uchun yaralgan, "sen" esa, suhbatdosh shunchaki.



10-sinf «Ona tili» darsligida “Muhabbat nima?” nomli mavzu bor. Ishq, sevgi, muhabbat soʻzlariga dalillar bilan taʼrif berilgan. Qahramon holati ham shunga mos kelganligi uchun darsda shu sheʼrdan foydalanish gʻoyasi tugʻuldi. Sheʼr mazmuni asosida taqdim etilgan savol va topshiriqlar inson ruhiyatini anglash, qahramonning nozik kechinmalarini tushunish, his qilish, kuchli tuygʻularni ham oʻzbekona andisha bilan izhor qilgan shoironing soʻz qoʻllash mahorati, “kichik” sheʼrning zalvorli tahliliga qaratilgani har qanday sheʼriyat muhlisini badiiy tafakkurini oʻstiradi, ijodning sehrli olami bilan oshno etadi. Oʻquvchilarimning koʻpchiligi mazkur savollarga sidqidildan javob berishga harakat qilishidi. Muhimi, ular bu savol va topshiriqlar koʻmagida asarning mohiyatiga kirishdi. Soʻzning qudratini his etishdi.



Feruza UMARALIYEVA

*Fargʻona tumanidagi 59-maktab
oʻqituvchisi.*

El-manzil: feruzafilolog@gmail.com

Menimcha, asar bosh qahramoni ayol kishi. Koʻngli nozik, chin seva oladigan, taʼsirchan odam. U oʻzi sevib qolgan insonga murojaat qilgan: «Men seni topgandim, ammo yaxshi qol» satridagi “topgandim», «ammo» soʻzlaridan “topganim chin emas ekan, aldandim, adashdim” (qoʻpolroq boʻlsa ham) degan oʻkinch seziladi. Ayol sevib qolgan, lekin javob sevgisi oʻzi kutganchalik boʻlmagani sababli undan voz kechmoqda. Shu sababdan “topgandim” deya oʻtgan zamondagi feʼldan foydalangan. “Yaxshi qol” qabilidagi “tilak” koʻproq “alvido” soʻzining yumshoq varianti sifatida ishlatiladi, demak U oʻzi bir vaqtlari sevgan insoniga “ket” deyapti, yoki oʻzi uni tark etyapti.



Ijodkorning “xayr” soʻzini qoʻllamagani sababi shundaki, bu soʻzda oddiy xayrlashuv maʼnosi boʻlib, unda tagmaʼno, tilak jo boʻlmagan boʻlar edi. “Yaxshi qol”da esa “mensiz azoblanma, koʻngling xotirjam boʻlsin” degan maʼnolarni ham uqish mumkin.

«*Sen: “yaxshi qol!” – degil*» satridagi “degil” soʻzini buyruq, amr yoki ayolning erkalangan (sevgan insoniga buyruq bera olishga jazm qilgan) holdagi istagi deb tushunish ham mumkin. Sevgan insonining oʻz qalbini tushunishini, uning qiynalishini sezishini va yaxshi, samimiy tilak tilashini istayapti. Yana koʻrishishga umidvor boʻlmaslik istagi borligini esa «*Sen: “yaxshi qol!” – degil, “koʻrishguncha”mas*» deganidan anglash mumkin. Chunki ayriliq oʻziga ham oson boʻlmasligini biladi.

«*Bul quyosh hali koʻp ol boʻladir, ol*» satridan anglaymizki, u (ayol) juda kuchli sevgan. Maʼlum muddat ishq dunyosida masrur yurgan. Lekin ayriliqdan keyin oldinda uni nimalar kutib turibdi? Buni vaqt koʻrsatadi. Satrdagi “bul” soʻzini “bu”tarzida emas, aynan “bul” shaklida berilishidan “l”undoshining koʻrsatishni yanada shaxsiylashtirilganini, yaʼni qahramon oʻz qalbidagi quyoshni nazarda tutganini ham anglash mumkin. U hali koʻp “yonishini”, sevgi oʻtida “qovrilishini” sezmoqda.

Bul quyosh hali koʻp ol boʻladir, ol,

Bul oy ham umrimga koʻp qiladir qasd.

Bu qatorlardagi “boʻladir”, qiladir” soʻzlaridagi «r» undoshi “ol boʻlish”, “qasd qilish” maʼnolarini urgʻulaydi, “boʻlishi” va “qilishi” aniqligini koʻrsatadi. «Bul quyosh» deganida sevgisini nazarda tutgan boʻlsa, “bul oy” endi shu sevgidan qolgan xotiralar, hali toʻliq yoʻqolmagan hislarni, uyqusiz tunlar azobini bildiradi. «*Sen sherik boʻlmaysan endi gʻamimga*» soʻzlari qaytib oʻz koʻnglini unga ochmaslikka, dil izhorlari qilmaslikka qaror qilganidan dalolat bersa, «Darvoqe, hech qachon sherik qilmadim» degan soʻzlaridan Uning oʻz suhbatdoshini ayaydigan, unga mehribon inson ekanligi koʻrsatadi.

Xayr endi, maʼzur tut ortiq-kamimga.

Bu joyda qahramon qalbiga ozor yetgani biroz ochiqlangan. U oʻsha inson bilan “sovuq” xayrlashishni maʼqul topdi. “Maʼzur tut”



deganida siniqish bilan birga kesatq ohangidagi uzr so‘rash holati ham sezilgan. “Ortiq-kam”da esa suhbatdoshi tomonidan bo‘lgan e’tiroz va ta’nalar nazarda tutilgan desa bo‘lar.

«*Men seni Layliday seva olmadim*» e’tirofi yigitning o‘sha ta’nasiga, ya’ni o‘zining “orti-q-kami”ga sabab, tushuntirish qilib ko‘rsatilgan, degan fikrni beradi. «*O‘rtanma bul xato mushkullaridan*» satirda noto‘g‘ri insonni sevganini xato deyapti. Xato she’r qahramoniniki ekanligini “bul” so‘zi bilan yana o‘ziga ishora qilganidan anglaymiz. Xato mushkullari bu – shu xato orqasidan kelgan iztiroblar, qiynoqlar, sog‘inchlardir. Bu xatodan Ayolning o‘zi ham iztirob chekmoqda.

«*Bul quyosh hali ko‘p ol bo‘ladir, ol, Bul oy ham umrimga ko‘p qiladir qasd*» satrlarida qahramonning Yigit sevgisi chin emasligini bilgan lahzasi. O‘zining orzulari haqida gap ketmoqda. Orzulari bu – baxtli hayot, oila qurish, birga bo‘lish, birga qarish va hk.

Afsus va pushaymonlik hislarini: «*Men ham qaydan bilay ishq yo‘llarida – Majnun emas, senga kellarimni duch*» degan izhoridan bilib olishimiz mumkin. Hayot shunday: xatolar, yo‘qotishlar, topishlar, yutuqlar, yutqizishlar, tuzatishlar, afsuslar va hk. Lekin sevis va savilish baxti barcha qiyinchiliklarning yengib o‘tilishiga asos bo‘ladi.



Orasta UBAYDULLAYEVA.

Qarshi shahridagi

5-maktab o‘qituvchisi.

El-manzil:

orastaubaydullayeva@gmail.com

...Menimcha, she’rning bosh qahramoni juda ulkan orzular og‘ushida sevgi qasriga malikalardek qadam qo‘ygan hazrati ayol. Noo‘rin qadam sabab, xayolot va haqiqat orasidagi tafovutni



anglagan ojiza. Chunki u suratga ahamiyat berib ishq vodiysini bunyod qildi-yu, suyuqli siyratining mohiyatini anglagach, ishqim "tug'ildi-yu o'ldi" demoqchi. Topganlarim yo'qotganlarimning sirli sandig'iga joylandi, degan ma'no yashirin, nazdimda. Qahramon jisman birgamanu, qalban juda yiroqman demoqchi. Men sendan ayrilishimda sening aybsizliging tufayli "xayr" demay, "yaxshi qol" deyishni maqbul ko'rdim. She'r mazmuniga muallif afsus va nadomatlarni juda chiroyli joylay bilgan.

«Yaxshi qol» iborasi shunchaki xayrlashish emas, xush qol, ya'ni meni yomonliklar bilan eslama, degan ma'noni anglatadi. «Ko'rishguncha» so'zi yana ko'rishmoqlik niyatida, vasl nasib etsin ma'nosida aytiladi. Lirik qahramon buni ham istamayapti. U yaxshilikcha xayrlashmoqchi, xolos. Xayr bu – vido (alalabadga demak). Yaxshi qol shu xayrlashuvning eng yumshoq shakli.

Gap shundaki, suyuqli kishi bu holatning aybdori emas. Lirik qahramon o'z olamida kashf etgan ishq ilohiysining sarobligini, ko'ngli to'lmasligini anglagan ma'suma. U yoridan duoibad olib emas, duo olib ketmoqchi.

Ol bu – qirmizi, ya'ni qizil rang demak. Inson uyatdan, hayodan, hijolatdan qizaradi (ya'ni hissiyotlar junbushga kelsa), quyosh esa shafaqqa botayotib qizaradi. Ayol hali yashamoqchi, juda ko'p marotaba quyoshning chiqishi va botishini ko'zlariga indirmoqchi. Alloh taolo koinotni yaratganda Quyoshni ham uning bir ajralmas bo'lagi sifatida barpo qildi. Quyosh harorati, tafti almiysoqdan beri ko'hna libosini yechmay, qadimiyat abosiga o'ranib, tabiatga va odamga zarrin nurlari-la daxl qilmoqda. Ishq ham inson bilan esh, demak, u ham ko'hnalikka da'vogar. «Bu» ko'rsatish olmoshining «bul» tarzida qo'llanilishi «ikkimizga tegishli» ma'nosidan tashqari asrlar silsilasi, vaqt va zamonga aloqador, menimcha.

Qahramon o'z hissiyotlari, ruhiy to'fonlari aqlidan ustun kelganidan xijolat chekmoqda, ya'ni qizarmoqda. Shu jihatdan qizarib shafaqqa botayotgan quyoshga uyatdan qizarib chekinayotgan go'zal muqoyasa qilingan. Oy hamisha tun malikasi. Istaymizmi, yo'qmi u kunduzi nafli emas. Go'zal ham qilmishi sabab oydek biroz xira tortib yorug'likdan chekinadi, uzlatni,



qorong'ilikni xush ko'ra boshlaydi. Qorong'ilikda mutlaq hokim bo'lay desa, oy unga qasdma-qasd turaveradi. Quyoshday porlay desa gunohi bor... Aslan, yovlashish, qasdlashish odamzod qonida bor. Buning mezoni inson tarbiyasi, ichki olami, iymoni bilan bog'liq. Malaksiymolarga hatto sarv daraxtlari, odamzod, parilar ham qasd qilishi va qattoli bo'lishi mumkin ekan. Ba'zida inson o'z-o'ziga dushman bo'lib qolishi ham mumkin. Bundan ortiq badbaxtlik yo'q...

Fikri ojizimcha, xatolar, sinovlar davomli demoqchi shoiramiz. Bo'yimday bo'y topdim-u, ko'nglimdek ko'ngil topmadim. Sen hech qachon qalbm tubidagi po'rtanalar, to'fonlardan xabardor bo'lolmagansan, bo'lolmaysan ham. Chunki holimizni so'z demasdan anglaguvchi Robbimiz bor. Darvoqe, o'zim ham seni sheriklikka, hamdamlikka, yuragim to'riga chorlamasdim, aniqrog'i, chorlashni istamasdim. Otashin sevgini, yurakni junbushga keltirgan, buyuk hissiyotlarni taqdim etolmagani uchun (mahbubaning o'zi) xayr (ya'ni alvido) demoqda. U yo'ldoshlik, yorlik maqomini uddalolmagani uchun afv so'ramoqda.

Beayb parvardigor. Bas shunday ekan, yaxshi fazilatlar-yu, yomon nuqsonlari uchun uzr so'rash oni yaqin kelganini anglamoqda. Satrlarda anduh bor, afsus bor, nadomat bor. Laylining sevgisi ishq ilohiy bo'lgan va qahramonimiz bu pillapoyalarga qadam bosib, Layliga yaqin kelolmagach, hayot rangini yo'qotmoqda. Oniy lahzalarda uchrashish uchun bir-biriga yo'liqqan ikki yo'lovchi. Aslida, inson hayoti xatolarga limmo-lim. Xato qilgan borki, badalini to'laydi. Xato, gunoh g'ofil bandalar nafi sabab sodir bo'lgan. Xato, menimcha, ayolga tegishli. She'rdagi qahramon iztirob chekmoqda, chunki tavba-tazaru she'riy qahramon tomonidan istifoda etilmoqda.

Gohida oltin deb o'ylaganimiz mis, gul deb xayol qilganimiz tikanga o'xshab qoladi. Orzular, umidlar sarobidan-da ortiqroq azob yo'q. Biz insonmiz, ko'proq, nafsimiz bilan sevishga moyil gumrohlar. Majnundek sevish uchun insonga Alloh ato etgan ilohiy va insonlar tilsimiga yetolmagan ishq zarur. Taxayyul vodiysida



sarosar kezmaslik uchun devonalarni emas, oddiy, qusurlarga ega odamni seva olishga o'zni ko'ndirishi kerakdir ko'ngil.

Atrof "sen"ga to'la, lekin hamma ham Majnun bo'lolmaydi. Chunki Qays odamlar tasavvurida o'rtamiyona, qorachadan kelgan Laylini (ma'nosi qora) telbalarcha sevdi. Umr so'qmoqlarida vaqt yuzimizga ajin, tanimizga kasallik, qaddimizga dollik ato etganda ham yonimizda nuqsonlarimiz bilan suyguvchi "Majnun" imiz bo'lsa, foniyl dunyodagi mehr, vafo, muhabbat boqiyga, abadiyatga ko'chadi.

Savollar insonni o'yga toldiradi, tafakkurini charxlaydi, beixtiyor, dunyoning beshinchi tomoni, qalbning uchinchi ko'ziga boqishga undaydi. Alloh bizni nafaqat zohirimiz, balki botinimizni ham anglab suyguvchi mehribondir. Arzimas nuqsonlarimiz uning ishqila fazilatga aylansin!



JISMONIY TARBIYA VA SPORT SALOMATLIK GAROVI

JISMONIY MADANIYATNING TUSHUNCHA VA ATAMALARI



Dilmurod YAHYOYEV

*Uchtepa tumanidagi 238-maktab
jismoniy madaniyat o'qituvchisi.*

El-manzil: dkya-83@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada jismoniy madaniyatning asosiy tushuncha va atamalari hamda sport o'yinlarida qo'llaniladigan ibora va tushunchalar orqali o'zbek tilining yanada boyishi va rivojlanishi haqida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *jismoniy tarbiya, adabiyotlar, tushuncha, ensiklopedik, o'zbek tili, ibora, tushuncha, sport o'yinlari.*

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish yo'lida tizimli islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu tizimda amalga oshirilayotgan ishlarning asosiy maqsadi xalqimiz salomatligini yanada mustahkamlashdan iboratdir. Mazkur harakatlar negizida jismoniy tarbiya va sport sohasida har bir masala yoki muammoni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yangi so'z va atamalarni o'rganish, zarur adabiyotlarni yaratish masalalarini muhokama qilishga bag'ishlangan anjuman O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining 2020 yil 7 sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid yangi so'z va atamalarning qo'llanilishi: nazariya va amaliyot" mavzusida onlayn ilmiy-amaliy anjumanni tashkil etish to'g'risida"gi 1008-sonli buyrug'i asosida tashkil etilishi jismoniy tarbiya va sport sohani o'rganishda sohaga



oid bo'lgan so'z va atamalarni to'g'ri tushunish, sohaning qonuniyatlarini o'rganishda, malakali mutaxassis bo'lib yetishishda mazkur anjuman o'z ahamiyatini namoyon etdi.

Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport tez rivojlanib borar ekan uni rivojlantiruvchi mutaxassislar, ya'ni murabbiylarning malakasini oshirib borish, zamonaviy talablar doirasida tayyorlash soha rivojidadagi asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu jihatdan, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda yangi so'z va atamalarning mohiyatini anglash va tushunish, ularning sohaning o'ziga xos qonuniyatlarini o'rganishda, tajriba orttirishda muhim hisoblanadi.

Umuman olganda barcha amaliy tadbirlar doirasida jismoniy tarbiya va sport sohasida yangi so'z va atamalarning shakllanishidagi masalalarni birgalikda hal qilish bo'yicha o'zaro kelishish, sohani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish ko'zlangan ishlarimizning maqsadini tashkil qiladi.

Jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid yangi so'z va atamalarning qo'llanilishi bo'yicha muammolarni, o'zbek tilining davlat tili sifatida rivojlanishida sportning o'rni hamda davlat tili targ'iboti masalalarini o'rganish hamda jismoniy tarbiya va sport sohasiga oid yangi so'z va atamalarni qo'llash borasida ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish zarur hisoblanadi.

Har qanday soha kabi, jismoniy madaniyat (jismoniy tarbiya va sport) sohasi ham o'ziga xos tushuncha va atamalarga juda boy. Bu tushuncha va atamalar barcha jahon xalqlari hamda o'zbek tilida ham juda qadimdan shakllanib kelgan. Sohadagi tushuncha va atamalar aholini va ayniqsa mutaxassislarning savodxonligini: ilmiy-nazariy, uslubiy-amaliy, tashkiliy jarayonlaridagi bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikma va malakalarini mukammal shakllantirish orqali sohadan inson manfaatlari yo'lida unumli foydalanish imkoniyatini kengaytiradi. Shu bilan bir qatorda, barcha jahon hamda o'zbek tillarini rivojlantiruvchi manbalardan biri hisoblanadi.

Jismoniy madaniyat sohasidagi tushuncha va atamalarning hozirgi holati, ularning vujudga kelishi manbalari, ba'zi



muammolari va istiqbollari yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalarini mutaxassislarga yetkazish davr talabidir.

Ushbu sohaning o'zbek tilidagi tushuncha va atamolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar uzoq yillardan boshlanib, 1989-yilda o'zbek tilining Davlat tili deb e'lon qilinishi O'zbekiston qonuni, ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 21-oktyabrda “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” qabul qilingan farmonidan keyin, bu mavzuga qiziqish yanada kuchaydi. Jumladan, jismoniy tarbiya vazirligida davlat tiliga rioya etishni ta'minlashga qarata amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, “Sport” gazetasining 25–38-sonlarida chop etilgan maxsus maqolalar, o'tkazilgan ilmiy anjumanlar fikrimizning isbotidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assamblyasi yig'ilishi minbaridan turib, millat tilida dunyoga murojaati, o'zbek tilining xalqaro miqyosidagi obro'yini yanada oshirdi. O'zbekiston Oliy Majlis Senati raisi Tanzila Norboyevaning Birlashgan Millatlar Tashkilotida xotin-qizlar masalasi bo'yicha o'zbek tilida chiqishi, bu muvaffaqiyatni yanada mustahkamladi. Asrlar davomidagi o'zbek tilini xalqaro miqyosida obro'sini oshirishdagi orzularimiz nihoyatda amalga oshirilishi, mamlakatimizda uchunchi Renessans davrining dastlabki boshlanishi bo'ldi desak xato qilmaymiz. Shuni ham e'tiborga olish kerakki, uchunchi Renessans davrining amalga oshirilishida jismoniy madaniyatning ham o'ziga xos o'rni va ahamiyati mavjud. Ayniqsa, milliy sport turimiz “Kurash”ning: “halol”, “dakki”, “yonbosh”, “g'irrom” kabi atamalarining jahon sport maydonlarida o'zbekona yangrashini ona tilimizning ulkan muvaffaqiyatlaridan biri, deyish mumkin.

O'zbek tilidagi “jismoniy madaniyat” tushuncha va atamolari juda qadimiy xalq og'zaki ijodi namunalaridan “Alpomish” dostonida, muqaddas kitob Avestoda, Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari”, Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u Bilik”, Abulqosim



Firdavsiyning “Shohnoma”, M. Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ati turk”ida, Amir Temur tuzuklarida, Zahiriddin Muxammad Boburning “Boburnoma”si va Alisher Navoiyning asarlarida shakllanib kelgan. Zamonamiz allomalaridan Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq”, Abdulla Qodiriyning hikoyalari, Primqul Qodirovning “Xumoyun va Akbar” romani va boshqa mualliflarning asarlarida ham jismoniy madaniyatga doir ko‘plab tushuncha va atamaları uchraydi. Soxa tushuncha va atamalarini o‘zbek tilida yaratish va targ‘ib qilishda ommaviy axborot vositalari, xususan, 1932-yilda tashkil etilgan, “O‘zbekiston fizkulturachisi”, 1992-yildan “Sport” gazetasi hamda “Sport” telekanali muhim rol o‘ynab kelmoqda.

Jismoniy madaniyat sohasi tushuncha va atamaları sohada amalga oshirilayotgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar qanchalik o‘tkazilmasin, unda muammolarning hamon ko‘pligi chuqurroq ayon bo‘lmoqda. Avvalo, ularning vujudga kelishi manbalarini chuqur o‘rganish, tahlil qilish, muammolarning yechimlarini aniqlash va hal etish uzoq, cheksiz davom etadigan ilmiy jarayondir. Chunki barcha sohalar kabi jismoniy madaniyatning rivoji cheksiz bo‘lib, unga yangi tushuncha va atamalar kirib kelishi ham cheksizdir.

Ushbu muammoli holatni o‘rganish, vujudga kelish manbalarini ilmiy tadqiq etib taxlil qilish, jismoniy madaniyat tushuncha va atamalarini ilmiy ishlab chiqish orqali, sohani halqimzga o‘zbekona, to‘g‘ri ma‘noli, tushunarli qilib yetkazishni amalga oshirish, jismoniy madaniyat hamda o‘zbek tilshunosligi ilmlarining dolzarb muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda.

O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqotlarimizning tahlili natijalariga ko‘ra hozirgi zamon jismoniy madaniyat sohasida o‘n mingdan ziyod tushuncha va atamaları mavjud bo‘lib, shulardan yetti mingdan ortig‘i 2016-yilda H. Rafiyev tomonidan tayyorlanib, chop etilgan “Jismoniy madaniyat atamalarining ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”da joy olgan [4].

Hozirgi kunda “Jismoniy madaniyat”, “Jismoniy tarbiya”, “Sport”, “Jismoniy rivojlanish”, “Jismoniy tayyorgarlik”, “Sport



mashqi”, “Sport tayyorgarligi madaniyati” kabi tushunchalar, “Yugurish”, “Sakrash”, “Osilish”, “Uloqtirish”, “Gimnastika”, “Tngil atletika”, “Futbol”, “Voleybol”, “Basketbol” kabi atamalar ham o‘zbek tilida keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibiki jismoniy madaniyat sohasida o‘zbek tilidagi tushuncha va atamalar qatorida, xorijiy tillardan kirib kelgan atamalar ham birdek qo‘llanib kelinmoqda.

Shuni e‘tirof etish kerakki, mustaqillikdan oldingi yillardagi jismoniy madaniyat sohasida, o‘zbek tilida qo‘llaniladigan tushuncha va atamalarning xorijiy, ayniqsa rus tilida ishlatiladigan tushuncha va atamalarga nisbatan salmog‘i ortganligi kuzatiladi. Masalan: “Shtanga” – “Tosh”, “Mat” – “To‘shama”, “Brusya” – “Qo‘shpoya”, “Turnik” – “To‘sin”, “Smirno” – “Rostlan”, “Shagom-marsh” – “Olg‘a bos” kabilar.

Shu bilan bir qatorda xorijiy mamlakatlardan kirib kelayotgan yangi sport turlarining nomlari, ularga doir tushuncha va atamalar yangi avlodining kirib kelishi ham kuzatilmoqda. Masalan: “Tayekvondo”, “Pinchak silat”, “Kyorling”, “Tayboks”, “Beysbol” va boshqalar.

Bunday hol jismoniy madaniyat sohasidagi tushuncha va atamalar rivojlanish jarayonining cheksizligidan darak beradi.

Shu bilan bir qatorda, jismoniy madaniyat soxasidagi tushuncha va atamalarning o‘zbek tilida qo‘llanilishida bir qancha dolzarb muammolarning mavjudligi ham ko‘zga tashlanmoqda. Jumladan, ba‘zi tushuncha va atamalarning jarayon mazmuniga, jismoniy harakat amalining shakliga mos kelmasligi, chalkashliklar va boshqa holatlar uchraydi.

Atamashunoslikda, har bir tushuncha va atamani yuqori aniqlik bilan yaratish, zarurligi ko‘rsatilgan. Buning uchun ularning vujudga kelish manbalarini o‘rganish, muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar tahliliga ko‘ra quyidagi manbalarning mavjudligi aniqlandi:

– halq og‘zaki ijodi, tarixiy va zamonaviy asarlarda qo‘llanilgan tushuncha va atamalar;



- milliy sport turlari hamda xalq o'yinlari;
- xorijdan kirib kelayotgan sport turlari;
- o'zbek tilida yaratilgan maxsus o'quv adabiyotlari;
- ommaviy axborot vositalari;
- ruscha-o'zbekcha va boshqa xorijiy tillarda yaratilgan lug'atlar;

- kundalik maishiy xayot tarzida ishlatiladigan tushuncha va atamalar.

Albatta, bu manbalar xali oxirgi nuqta emas. Jismoniy madaniyat sohasining o'zbek tilidagi tushuncha va atamalari eng dolzarb muammolaridan biri. Bu “Jismoniy tarbiya va sport” sohasining bosh, umumlashgan asosiy tushunchasi hisoblangan “jismoniy madaniyat” tushunchasining o'z o'rnida qo'llanilishini amalga oshirishdadir.

O'zbekistonda universitet va pedagogika institutlaridagi “Jismoniy tarbiya” fakultetlari, “Jismoniy madaniyat” fakultetlari deb nomlandi. Rus tilida “Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya” fani “Teoriya i metodika fizicheskoy kulturi” deb qabul qilindi. Bunday holat sohaning, odamlarning jismoniy madaniyatini shakillantirish maqsadini mavhumlashtirib, ko'pgina anglashimovchilikka olib kelmoqda. Biz sohadagi ikkita juda muhim, o'ziga xos bo'lgan tushunchalarni bitta “Jismoniy tarbiya” tushunchasiga birlashtirib qo'ymoqdamiz.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib, “Jismoniy tarbiya va sport” tushunchasini umumlashtiruvchi muqobil “Jismoniy madaniyat” tushunchasiga Davlat maqomini berish vaqti keldi. Bu tushunchaning yangi O'zbekistonda, milliy yuksalishni amalga oshirish hamda uchinchi Renessans davriga o'tishga xalqimizni ma'nan va jismonan barkamolligini ta'minlashga xizmati katta bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda jismoniy madaniyat sohasiga oid tushuncha va atamlarni o'zbekona muqobillarini yaratishga doir ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish zarurati tug'ilmoqda.

Buning uchun jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini malaka oshirish markazi Samarqand filialida yoki Rossiya filialida



“Jismoniy madaniyat tushuncha va atamalarini o‘zbek tilida ilmiy ishlab chiqish bo‘limi”ni tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Jismoniy madaniyatning o‘zbek tilidagi tushuncha va atamalarini ilmiy ishlab chiqish, aholining soha bo‘yicha savodxonligini hamda jismoniy faolligini oshirishga va sohani odamlarning kundalik hayotiga singdirish va taraqqiy ettirishga keng yangi istiqbolli imkoniyatlarni yaratadi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib, quyidagicha xulosalar qilish mumkin:

1) “jismoniy madaniyat” tushunchasini qo‘llashda unga davlat maqomini berib sohani “jismoniy madaniyat” deb atashni amalga oshirish;

2) “jismoniy madaniyat” sohasi minglab tushuncha va atamalarga ega bo‘lib, xalqimizning soha bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish hamda o‘zbek tilini boyitishning asosiy manbalaridan biridir;

3) “jismoniy madaniyat” sohasining o‘zbek tilidagi tushunchalari va atamlarida hali yechimini kutayotgan muammolar mavjud bo‘lib, ularni maqsadli ilmiy-tadqiqotlar orqali hal etilishini amalga oshirish davr talabidir;

4) jismoniy tarbiya va sport soxasi mutaxassislarini malaka oshirish markazi Samarqand filiali yoki Rossiya filialida “jismoniy madaniyatning o‘zbek tilidagi tushuncha va atamalarini ilmiy ishlab chiqish bo‘limi”ni tashkil qilish;

5) jismoniy madaniyat sohasi bo‘yicha o‘quv adabiyotlarida tushuncha va atamalarni maqsadli to‘g‘ri qo‘llashni ta’minlash uchun, soha bo‘yicha har xil lug‘atlar, izohli lug‘atlar, soha hamda sport turlari bo‘yicha ensiklopedik izohli lug‘atlar tayyorlab chop etishni amalga oshirish, xalqimizni soha bo‘yicha bilim tajribalarini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, bu bilan mamlakatimiz rahbariyati tomonidan qabul qilinayotgan qonun, farmon, qarorlarini bajarilishida sifat samaradorlikni oshirishga bevosita yordam beriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузли ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони.
3. Tursunaliyev I. A. Sport o‘yinlari. – T.: Umid Design, 2021. – 325 b.
4. Рафиев Х. Жисмоний маданият атамаларининг русча-ўзбекча луғати. – Самарқанд, 2016.





Bosh muharrir:
Qunduzxon Husanboyeva
Pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

1. Qodirov Valijon - pedagogika fanlari doktori, professor
2. Hamroyev G’ofir - pedagogika fanlari doktori, tadqiqotchi professor
3. Yusupov Qonisbay - pedagogika fanlari doktori, professor
4. Mavlonova Klara - pedagogika fanlari doktori, dotsent
5. Qambarova Saodat - pedagogika fanlari doktori, dotsent
6. To’ychiyeva Mahfuza - pedagogika bo’yicha falsafa doktori, dotsent
7. Hazratqulov Mutallib - pedagogika bo’yicha falsafa doktori, dotsent
8. Nurmuhammadov Jamoliddin - Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi bosh mutaxassisi
9. Yusupjonova Nazokat - pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori
10. Tuxliyeva Dilfuza - pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori
11. Hasanova Kibriyo - pedagogika fanlari nomzodi, professor
12. Turdaliyev Dilshod - pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent
13. Mahmudov Ravshan - falsafa fanlari nomzodi, professor
14. Shohruh Abduraimov, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent
15. Valiyeva Mahmuda - Yunusobod tumani 274-maktab oliy toifali ona tili va adabiyot o’qituvchisi
16. Namoz Rasulov - Respublika Ta’lim markazi bosh mutaxassisi

“METODIST” ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNALI TA’LIMY, ILMIY-INNOVATSION NASHR
BO’LIB, BIR YILDA 6 MARTA CHOP ETILADI.

*Tahririyatga kelgan maqolalar Tahrir hay’atining tavsiyasiga binoan jurnalda e’lon
qilinadi. Nashr etilmagan maqolalar tahlil qilinmaydi.*

Tahririyat manzili:

Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Dilbuloq MFY Shota Rustaveli ko’chasi 1-uy.

Jurnal direktori: Xolsaidov F.B.

Bosishga 15.04.2024.da ruxsat etildi. Bichimi 60x90. “Cambria” garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog’i 9. Nashr bosma tabog’i 8,5.
Adadi 200 nusxa.

“METODIST NASHRIYOTI” MCHJ matbaa bo’limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri Shota Rustaveli 2-vagon tor ko’chasi 1-uy.



+99893 552-11-21

Nashriyot rozilgisiz chop etish ta’qiqlanadi.



